

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Murodova Maqsuda Maxsudovna

**O'QISH SAVODXONLIGI
DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH**

O'QUV QO'LLANMA

(60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan)

**BUXORO – 2025
«DURDONA» nashriyoti**

74.202.5+81.2-5

373.5.091.33:81'271.1(075.8)

M 89

Murodova Maqsuda Maxsudovna

O'qish savodxonligi darslarida nutq o'stirish [Matn]: o'quv qo'llanma / Murodova Maqsuda Maxsudovna – Buxoro: «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2025. – 300 b.

UO'K 373.5.091.33:81'271.1(075.8)

BBK 74.202.5+81.2-5

TAQRIZCHILAR:

Sh.Sh.Olimov

– pedagogika fanlari doktori, professor

R.X.Jumayev

– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

"O'qish savodxonligi darslarida nutq o'stirish" nomli o'quv qo'llanma o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan muhim ilmiy-metodik qo'llanmadir. Ushbu darslikda o'qish savodxonligi va nutq o'stirish jarayonining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan bo'lib, o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish, ularning so'z boyligini kengaytirish va ifodali nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'quv qo'llanma mazmuniga nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda nutqni shakllantirish tamoyillari, o'qish va savodxonlik darslarida innovatsion metodlar – interfaol o'qitish texnologiyalari, kommunikativ yondashuv va kreativ fikrlashni rivojlantirish usullari, badiiy adabiyot va bolalar uchun mo'ljallangan matnlar orqali nutq o'stirish – ifodali o'qish va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish usullari, nutqiy to'g'ri nafas olish va ovoz ustida ishlash amaliyoti – o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish, ritorika, intonatsiya va temp, notiqlik san'ati elementlarini o'qish darslariga tatbiq etish masalari bayon etilgan. O'quv qo'llanma maktab o'qituvchilari, pedagogika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar, nutq o'stirish metodikasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar hamda bolalar nutqini rivojlantirishga qiziquvchi keng kitobxonlar auditoriyasiga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 - yil 7 - oktyabrdagi "387" - sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida chop etishga tavsiya etilgan. Ro'yxatga olish raqami 544-319

ISBN 978-9910-10-740-5
Maxsudovna

© Murodova Maqsuda

KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodning muvaffaqiyatli o'sishi va taraqqiyoti uchun to'liq savodxonlik – ya'ni o'qish, yozish va muloqot qobiliyatlarining mustahkam asoslarini yaratish zarurati tobora dolzarblashmoqda. Nutq o'stirish, xususan, o'qish savodxonligi darslarida, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish, so'z boyligini oshirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

O'quvchilarning nutq qobiliyatlarini yaxshilash, ularning o'z fikrlarini aniq va mantiqiy ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Maqsadimiz – darslarda interaktiv metodlar, ijodiy mashqlar va kommunikativ faoliyatlar orqali o'quvchilarning nutqini yanada boyitish va ularni samarali muloqotga tayyorlashdir.

Til va nutq o'rtasidagi bog'liqlik, nutq o'stirishning ahamiyati va o'qish savodxonligi darslaridagi roli haqida umumiy tushunchalar beriladi. Bundan tashqari, dars jarayonida qo'llaniladigan metodika va strategiyalar, o'quvchilarning nutqiy salohiyatini oshirishda innovatsion yondashuvlar, shuningdek, o'qituvchilar va ota-onalarning ushbu jarayondagi roli va hamkorligi ham yoritiladi.

Qo'llanma nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Har bir bo'limda turli mashqlar, misollar va interaktiv topshiriqlar keltirilgan bo'lib, ular o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu orqali, o'quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki o'z fikrlarini erkin ifoda etish, yangi g'oyalarni shakllantirish va atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Umuman olganda, o'qituvchilarga va tarbiyachilarga nutq o'stirish jarayonini yanada samarali tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish va ularni kelajakdagi muvaffaqiyatga tayyorlashda qo'l keluvchi dolzarb manba sifatida xizmat qiladi.

I MODUL. BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NUTQ O‘STIRISHNING AHAMIYATI

1-MAVZU. BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA NUTQ USTIDA ISHLASHNING MAQSAD VA VAZIFALARI, AMALIY AHAMIYATI.

Tayanch so‘zlar: savodxonlik, o‘qish va yozish, boshlang‘ich ta‘lim, nutq madaniyati, o‘qish texnikasi, talaffuz, ovoz chiqarib o‘qish, ichdan o‘qish, o‘qib tushunish, matn ustida ishlash, o‘qishga qiziqtirish, dunyoqarashni kengaytirish, axloqiy tarbiya, o‘qitish usullari, ko‘rgazmalilik, didaktik o‘yinlar, interfaol metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil o‘qish, ijodiy fikrlash, estetik tarbiya, kitobga mehr uyg‘otish.

1.1 Boshlang‘ich ta‘limda nutq ustida ishlashning maqsadi, vazifalari, amaliy ahamiyati

O‘zbek tili dunyoning eng qadimiy va boy tillaridan biri bo‘lib, xalqimizning milliy o‘zligi, mustaqil davlatchiligi ramzi va bebaho ma‘naviy merosidir. Bugungi kunda mamlakatimiz yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘yar ekan, ta‘lim-tarbiya tizimiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim jamiyatimiz kelajagini belgilovchi ijodkor shaxslarni tarbiyalashda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu bosqichda ta‘lim jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘qish va o‘qish savodxonligi darslari muhim o‘rin tutadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” asarida: *“Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g‘ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko‘zlangan maqsadga albatta yetamiz”*, deb ta‘kidlaganlar. Shu sababli mamlakatimizda ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarimizning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilib, ilg‘or mamlakatlarning ta‘lim tizimlari o‘rganilib, ularni milliy tizimimizga tatbiq etish choralari ko‘rilmoqda.

Xususan, Finlandiya ta‘lim tizimi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu tizimda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bunda turli lug‘atlarning o‘rni katta ahamiyat kasb etadi. Lug‘atshunoslik tildagi so‘zlar, ularning tarixi, ma‘nosi, imlosi kabi muhim jihatlarni o‘rganadi. Lug‘atlar qadimdan yaratilgan bo‘lib, bunga

Mahmud Qoshg'ariyning XI asrda yozgan "Devonu lug'atit-turk", shuningdek, XVI asrda Usmonli turk tilida yaratilgan "Abushqa" lug'ati misol bo'la oladi.

O'quvchilar o'zaro muloqot jarayonida ham turli so'z va iboralarni o'rganib, ularni o'z nutqida qo'llaydi. Shuningdek, har bir fan bo'yicha dars davomida ko'plab atama va terminlarni o'zlashtirib boradi. Bu esa ularning nafaqat lingvistik savodxonligini oshirishga, balki mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

O'quvchining yana bir o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud, bu - boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandlik, «emotsional muloqotga ehtiyojmandlik»dir (K.Obuxovskiy). Aynan shu ehtiyoj tufayli dastlab til paydo bo'lgan. Muloqotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so'zlashni o'rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to'g'ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nitnalar deyishayotganliklarini tushunishi va o'zi ham so'zlashi lozim. Bu o'rinda tilning uch sifati (tajribani jamlash va sintez qilish - fikrga jamlash - muloqotni amalga oshirish) haqida so'z yuritish mumkin (V.A.Zveginsev). Tilni tadqiq qilish mustaqil, umumilmiy qiziqishdan tashqari ko'plab dolzarb amaliy vazifalarni hal etishda ulkan ahamiyatga egadir.

Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi - Boshlang'ich ta'limdabobalalarda og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari, unga qo'yilgan talablar, usullari, shakllari, nutqni rivojlantirish muammolari, barkamol avlod tarbiyasida nutqni to'g'ri shakllantirish yo'llari va ish samaradorligi. Zamonaviy pedagogik texnologiya. Ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, va uning tamoyillari, qonuniyatlari. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish ishiga tayyorlashdan iboratdir.

Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fanining vazifalari

- Boshlang'ich ta'limdabobalalarda turli yosh bosqichlaridagi nutq rivojini ko'ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish;

- bola nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'lini to'g'ri tanlash va bolaning nafaqat yoshini, balki uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zaro birgalikda harakat qilish hamda olingan natijani tahlil qilish;

- bolalar nutqining turli jihatlarini rivojlantirish, aniq uslublari va usullari haqidagi bilimlar o'zlashtirilishini hamda ularning didaktik nutq muloqotlari paytida qo'llay olinishini ta'minlash;

- uslubiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilgan holda maktabgacha yoshda bo'lgan bola nutqiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos usullari va uslublarni yaratishga intilishni rag'batlantirish.

Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni - bolalarda og'zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy muloqoti ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Nutqni rivojlantirish metodikasi quyidagi asosiy savollarga javob topish imkonini beradi: nimani o‘qitish (bolalarda qanday nutqiy ko‘nikmalarni tarbiyalash), qanday o‘qitish (bolalar nutqini shakllantirishda qanday sharoitlarda qaysi metod va usullardan foydalanish lozim), nega endi aynan shunday o‘qitish zarur (nutqni rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysi ma’lumotlariga asoslanmoqda). Nutqni rivojlantirish metodikasi har qanday rivojlanishning umumiy shakllari, tomonlari va o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradigan dialektika qonunlari va toifalariga tayanadi.

Til - tarixiy va o‘zgaruvchan hodisadir. Har bir xalq, millat, elat va odamlar qabilasi o‘z tiliga egadir. Har bir xalqning tilida mazkur jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayoni, uning turmush sharoiti, ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar, ijtimoiy-mehnat fioliyatidagi yangi kashfiyotlar va erishilgan natijalari aks etgan.

Keyingi yillarda o‘qish savodxonligi ta’limi sohasida adabiy tilning boy imkoniyatlaridan keng foydalangan holda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri, savodli qilib shakllantirishga e’tibor kuchaydi. Boshlang‘ich ta’limda lug‘at ustida ishlashning umumiy yo‘l-yo‘riqlari, yo‘nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo‘lmaydi. Lug‘at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o‘rganishda, asosan, o‘qish savodxonligiga o‘qish darslarida darslik materiallarini o‘rgatish bilan bog‘liq holda olib boriladi. O‘qish va o‘qish savodxonligidarslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilar nutqini o‘stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so‘z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfдан boshlanadi va butun o‘quv jarayonida davom ettiriladi.

Lingvistika fani jamiyat taraqqiyotining, gullab-yashnashining eng muhim, eng asosiy, tengi yo‘q mezonlaridan biri til – aloqa quroli ekanligini tasdiqlash va isbotlash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, u ta’lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini ayni bir fikrni, narsa-hodisani yuzlab usullar bilan ifodalash yo‘llarini yetkazish bilan unda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga, ona tilida fikrlash va ona tili qurilishining o‘ziga xosligi, boshqa tillardan tubdan farq qilishi, olamni “o‘zicha” aks ettirishni singdirish bilan milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy g‘urur va mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligiga o‘qish savodxonligi ta’limining bosh vazifasi o‘quvchilar nutqini o‘stirish va uni bosqichma bosqich rivojlantirib borish hisoblanadi. O‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin, to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatish jamiyat uchun ham, psixologik va metodik jihatdan ham

juda muhim bo'lishi bilan bir qatorda ularni xatosiz yozish ko'nikmalariga ega qilish hozirgi kunning dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda.

Maktabda lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1.O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8—10ta yangi so'zni, shu jumladan, o'qish savodxonligidarslarida 4-6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2.O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) O'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish;

b) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish;

c) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish;

d) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3.Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4.Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi og'zaki va yozma nutqni takomillashtirishda bir qator lug'atlardan ham foydalaniladi. Bular imlo va izohli lug'atlardir. Adabiy til yozma shaklining me'yorlashuvi va takomillashuvida, shuningdek, og'zaki hamda yozma nutq orasidagi bog'liqlik va yaqinlikni mustahkamlashda imlo lug'atlari muhim rol o'ynaydi. Imlo lug'atlari nafaqat so'zlarning yozma shakli, balki og'zaki talaffuz shaklining ham me'yorlashuvi va uning muayyan turg'un, adabiy holatda bo'lishiga xizmat qiladi, chunki aksariyat so'zlar yozma shaklga asoslangan holda talaffuz

qilinadi. Imlo lug‘ati tilning lug‘aviy boyligini o‘zida jamlovchi va saqllovchi ishonchli manba hamdir. Chunki u boshqa tip lug‘atlarga kiritilmaydigan ba’zi so‘z va so‘z shakllarni ham qamrab oladi. Imlo lug‘atlari yozma nutq madaniyatining, imloviy savodxonlikning muhim qurolidir.

Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligiva o‘qish savodxonligi darsligida imloga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, har bir mavzuda matnlar ichida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar berilgan. Bu so‘zlarning ham yozilishiga ham ma’nosiga e’tibor berilishi zarurdir. Misol uchun 1-sinf darsligida quyidagi so‘zlar berilgan: Sustqadam, nozikta’b, organizm, qapishish, axloq, bakteriya. Har bir darsda yozilishi bir muncha murakkab bo‘lgan so‘zlar o‘quvchilarga o‘rgatilib, ular imlo lug‘atdan topilib, o‘quvchilar daftarlariga yozdiriladi. Ayniqsa, x va h tovushlarini farqlashda o‘quvchilar bir muncha qiyinchiliklarga duch keladi. Buni yengishning oson yo‘llaridan biri imlo lug‘atlaridan foydalanishdir.

Izohli lug‘atlarda esa so‘zning bosh va ko‘chma ma’nolari izohi beriladi, so‘zning ma’nolari tushuntiriladi. Barcha boshlang‘ich sinflar o‘qish savodxonligiva o‘qish savodxonligi darsliklarining so‘ngida izohli lug‘atlardan namunalar keltirilib o‘tilgan:

Kislorod – biz nafas oladigan toza havo tarkibidagi modda, ko‘zga ko‘rinmaydi.

Ko‘lmak – chuqur joyga to‘planib qolgan suv.

Kunbotar – quyoshning botish vaqti (tomoni).

Laqab – biror kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo‘shimcha nom yoki hayvonlarga qo‘yilgan nom.

Maktabda nutq o‘stirishning muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarning lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. O‘quvchilar izohli lug‘atlar orqali yangi so‘zlarni o‘rganib, so‘ngra bu so‘zlarni o‘z nutqida ishlata boshlashadi. Bir yangi so‘zni izohlash uchun bir qancha so‘z birikmalaridan foydalanilganligi sababli, o‘quvchilarda yanada so‘z boylikini oshirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. O‘quvchilar lug‘ati quyidagi manbalar asosida boyitiladi va takomillashtiriladi: Atrof-muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarning o‘yini va o‘qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish. Tabiat qo‘yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko‘pgina yangi nom va iboralarni o‘rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o‘tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi, ayrim so‘zlar ma’nosiga aniqlik kiritiladi.

Bolalar mustaqil o‘qishga o‘rganganidan so‘ng, ularning lug‘atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun sinfdan

tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik qilish, o'quvchilar lug'atini boyitish va nutqini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maxsus mashqlar orqali grammatika va imlo darslari ko'plab yangi so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq va tartibni ifodalovchi so'zlarni o'rganadilar. Bunday darslarda o'quvchilar lug'atlarini tizimli ravishda kengaytirib, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlaydilar. So'z tarkibi, so'z yasalishi va so'zlarning o'zgarishlarini o'rganish orqali lug'atga aniqlik kiritiladi. Natijada, o'quvchilar o'rgangan so'zlaridan nutqlarida samarali foydalanishga o'rganadilar va bu ularning lug'atlarini faol holatga keltiradi. Maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida o'quvchilar lug'atlarini yanada boyitib, tartibga soladilar.

1.2 Nutqning axborot (kommunikativ) manba ekanligi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish masalalari – Ta'lim to'g'risidagi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, 2022—2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishlash, ularni barkamol avlod sifatida shakllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo'lmoqda. Jumladan,—Ta'lim to'g'risidagi qonunning 9-moddasida Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan deb alohida ta'kidlangan[1]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirishda avvalo kommunikativlik, kommunikativ madaniyat tushunchalariga izoh berib o'tish lozim. Kommunikativlik—shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lishi, suhbatdoshini tinglash va eshitish qobiliyatini, muomalaga kirisha olish va aloqa o'rnatish, axborot to'plash, turli ijtimoiy munosabatlar o'rnatish, va noverbal xulq-atvorining ko'rinishi. Kommunikativ madaniyat — kommunikativ nutq madaniyati kishilar bilan erkin muloqot qilish imkonini beradi. U jamiyat tashqarisida yashashga qodir emas, chunki u bir ijtimoiy borliqdir. Kommunikativ madaniyat asosiy xususiyatlarni va xususiyatlarni o'z ichiga oladi - ochiqlik darajasi; - muloqot qilishda motivatsiya mavjudligi; - umumiy madaniyat; - nutq va til rivojlanishi; Bola maktab yoshigacha boshqa odamlarning o'z nuqtai nazaridan farqli bo'lishi mumkinligini bilishi va bu haqiqatni ma'lum darajada hisobga olishi kerak. Biroq, boshlang'ich sinflarda ta'lim va do'stlik munosabatlarini shakllantirish

orqali yuzaga keladigan ijtimoiy tajribaning bosqichma-bosqich to'planishi uni turli odamlarni turli nuqtai nazarga olib keladigan sabablarni tushunishga undaydi, oldindan bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Suhbatdoshning boshqa ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan qarashlardagi mumkin bo'lgan farqlar mavjud bo'ladi. O'zining va boshqa odamlarning fikrlarini taqqoslab, bola ham o'z pozitsiyasida bahslashishni, uni asoslashni o'rganadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinfni tugatgandan so'ng, mulohazalar va baholashlarning nisbiyligini anglash yaqinlashishiga olib keladi, ular boshqa odamlarning intilishlari va istaklariga nisbatan sezgir bo'lib qoladilar hamda ular yaxshilana boshlaydi va boshqalarning his-tuyg'ularini va fikrlarini tushunish, ularning ichki dunyosini tushunish shakllanadi. Muloqot, hamkorlik sifatida, hamkorlik va o'zaro ta'sirni o'rnatish va amalga oshirishga qaratilgan kommunikativ ta'lim harakatlari guruhini o'z ichiga oladi. Ushbu harakatlarning mohiyati umumiy maqsadga erishishda sa'yharakatlarni birlashtirishdan iborat bo'lib, buning uchun suhbatdoshga e'tibor qaratish kerak. Boshlang'ich maktab yoshi tengdoshlarga alohida qiziqishni anglatadi. Bu vaqtda do'stlik faol shakllanadi, guruh faoliyatida ishtirok etish istagi juda yuqori bo'ladi. O'qituvchi bundan foydalanishi kerak. Jamoaviy o'yinlar, musobaqalar (shu jumladan sport), tanaffuslarda birgalikdagi ishlarni tashkil etish, shuningdek, dars davomida maxsus tashkil etilgan o'quv hamkorligi kommunikativ ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi va boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini ta'minlashga yordam beradi. Ushbu kommunikativ ta'lim harakatlari guruhini shakllantirish ko'rsatkichlari quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- muzokaralar olib borish qobiliyati;
- mulohaza yuritish, suhbatdoshni ishontirish orqali o'z pozitsiyasini himoya qilish;
- agar kerak bo'lsa, suhbatdoshga bo'ysunish qobiliyati;
- ziddiyatli vaziyatda ham do'stona munosabatlarni saqlab qolish qobiliyati;
- savollar berish orqali kerakli ma'lumotlarni topish qobiliyati;
- tashabbus ko'rsatish qobiliyati, shuningdek, birgalikdagi harakatlar jarayonida nazorat va o'zaro yordamni amalga oshirish.

Kommunikativ yo'nalishning universal ta'lim harakatlari o'quvchilarning o'zo'zini rivojlantirish uchun shaxsiy qobiliyatini shakllantirish va o'z-o'zini takomillashtirish, bag'rikenglik, tayyorlik saboqlarini faol o'rganish, dunyoni bilish, o'rganish, hamkorlik, o'zo'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorlaydi.

Bunga universal ta'lim faoliyatining quyidagi funktsiyalari yordam beradi:

- kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun ta'lim muhiti, sharoitlar yaratish;

- har qanday fan yo'nalishi bo'yicha bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga erishish yo'llarini hamda zarur, zamonaviy interfaol vositalarni o'zlashtirish va ulardan foydalanishga tayyorligi asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- o'quvchilarning mustaqil ravishda o'quv maqsadlarini belgilash, ko'nikmalarni rivojlantirish, ularni amalga oshirishning zarur usullarini izlash qobiliyatini ta'minlash. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehr-oqibat, shaxsga hurmatni barcha fanlar vositasida tarbiyalashni sifatlar ierarxiyasida ustuvor deb bilamiz. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish jarayonida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida ularda g'alaba qozonish qobiliyati, hazil qilish va hazilni tushunish qobiliyati, tabassum qilish, muloqotda suhbatdoshga qarash xislatlarini rivojlantirish hamda o'z-o'zidan ochko'zlik, xafagarchilik, manfaatdorlik, hasad kabi xislatlar bilan kurashish kerakligini o'rgatishimiz lozim. Bu xislatlar muvaffaqiyatga xalaqit berishi mumkin. Haqiqiy do'stlar, sevimli oila va boshqalar bolalarga vazminlikni, xotirjamlikni va ishonchni rivojlantirishni, his-tuyg'ularni boshqarish (me'yorida, yoshga qarab)ni o'rgatishlari kerak bo'ladi. O'quv faoliyati jarayonida, amaliy faoliyatda biz o'quvchilarga tarbiyaviy bilimlarni singdiramiz. Bundan tashqari, muloqot qobiliyatlari ularning muvaffaqiyatli professional faoliyati va farovon shaxsiy hayotining kalitidir.

1.3 Boshlang'ich ta'lim jarayonida nutq o'stirishning ahamiyati.

Nutqning rivojlanishi bolaning o'z fikrini va his-tuyg'ularini aniq va to'g'ri ifodalashiga yordam beradi. Bu o'z navbatida, uning o'qish, yozish, va muloqot ko'nikmalarining mustahkamlanishiga olib keladi.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l – yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, xususiyl metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutugi asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda quruq yod olish metodida o'rganilagan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga,

mazmunini tushuntirishga, oqilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, katta e'tibor berilgan. Shuning uchun, hozir maktablarda o'qish izohli o'qish olib borilyapti. O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati: ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri talaffuz bilan matn ma'nosini puxta sintez

qilishda qiynaladilar. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur.

O'qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra chiqadi:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta talaffuz qilishga harakat qiladi. va ma'nosini e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'zlar ko'p bo'ginli (murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni o'qishda), ya'ni sozning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadilar.

3. To'g'ri o'qish yorug'likka, matn shriftiga, bolaning ko'ruv sezgisiga ham

bog'liq.

To'g'ri o'qishni ta'minlash uchun o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Matnni o'qishdan oldin undagi o'qilishi qiyin, tuzilishi murakkab so'zlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.

2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlashi.

3. Matnning yaxsh, orta, yomono'qiydigan o'quvchilarga o'qitiladigan qismini oldindan belgilab chiqishi.

4. O'qituvchi yoki sinf o'quvchilarining nazorati ostida o'qishni doimiy mashq qildirishi.

O'qituvchi o'qish davonida o'quvchilar xato qilishi mumkin bo'lgan o'rinni belgilab olishi lozim. Xato o'qishni bartaraf etish uchun:

1. Tuzilishi murakkab so'zlarni xat taxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozish, oldino'quvchilarga ularni bo'g'inlab, so'ng sidi'rg'a o'qishni mashq qildirishi.

2. So'z ma'nolarining sinonimi, antonimini keltirib, yoki gap ichida qo'llab tushuntirishi.

3. Xat cho'pdan foydalanish. Xat cho'p diqqati tarqoq bolaga, ko'ruv sezgisi

past o'quvchida juda foydali.

4. Xato o'qishi mumkin bo'lgan o'rindan o'quvchini ham ogohlantirish.

5. Kesma harf va kesma bo'g'inlardan foydalanish.

6. To'g'ri o'qish uchun sharoit yaratish.

7. Shivirlab va ichda o'qishdan foydalanish.

O'quvchilar yo'l qo'yadigan xatolar 2 xil:

1. So'z ma'nosini noto'g'ri anglashga olib keluvchi xatolar. (urg'uni noto'g'ri qo'yib o'qish tuifayli)

2. So'zlarni o'qib olishga halal beradigan xatolar.

Ongli o'qish asar mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, timsollarini, badiiy vositalarni ro'lini tushunib o'qish ongli o'qish deyiladi.

Bola asarda tasvirlangan voqea hodisalarga munosabat bildirsa, ongli o'zlashtirgan bo'ladi.

Ongli o'qish quyidagi metodik shartlarga bo'g'liq:

1. O'quvchining hayotiy tajribasiga.

2. So'zlarning lug'aviy ma'nosini tushunishiga.

3. Gapda so'zlarning tushunishiga.

Ongli o'qish 2 xil ma'noda qo'llaniladi: O'qish texnikasi, O'qish sifati.

Asar qurilishini tushunish ongli o'qishdir. O'quvchining ongli o'zlashtirib o'qigani, uning ifodali o'qiganidan, asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniqlaniladi. Ongli o'qish bilan ifodali o'qish biri – ikkinchisini taqazo etadi. Ifodali o'qish. Asranni uning g'oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda o'qish, asar jozibasini ifodalab, ravon, aniq, to'g'ri o'qish ifodali o'qish deyiladi.

Ijtimoiy muloqot: Nutqni rivojlantirish orqali bolalar o'zaro muloqotda bo'lishni o'rganadilar. Bu, o'z fikrlarini boshqalarga tushuntirish va boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilish qobiliyatini oshiradi.

Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti-nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud.

Bular:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

1) so'z ustida ishlash;

2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;

3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib, leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

O'rganish jarayoni: Nutqning rivojlanishi bolaga yangi bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi. So'z boyligi kengaygan sayin, u yangi tushunchalarni osonroq tushunadi va o'zlashtiradi.

Ijtimoiy adaptatsiya: Yaxshi rivojlangan nutq bolaning ijtimoiy muhitga tezroq moslashishiga yordam beradi, chunki u o'zini boshqalar bilan tushunadigan va tushuniladigan tarzda ifodalaydi.

Emotsional rivojlanish: Nutq bolada o'z his-tuyg'ularini anglash va ularni boshqalar bilan to'g'ri tarzda bo'lishni o'rgatadi, bu esa emotsional intellektni rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Nutq ustida ishlashning maqsadi nima va u boshlang'ich ta'lim jarayonida qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Boshlang'ich sinflarda nutqni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan asosiy usul va metodlarni sanab o'ting.
3. Bolalarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishda o'qituvchining roli qanday?
4. Nutq ustida ishlash jarayonida qanday psixologik va pedagogik omillarni hisobga olish lozim?
5. Boshlang'ich ta'limda nutq ustida ishlashning amaliy ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Nega boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq o'stirishiga alohida e'tibor qaratish kerak?
7. O'qish savodxonligi darslarida qaysi mashqlar o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga yordam beradi?
8. Muloqot qobiliyatini oshirish uchun o'qituvchi qanday metodlardan foydalanishi kerak?
9. Nutq o'stirishga ta'sir etuvchi omillarni sanab bering.
10. "Mening sevimli kitobim" mavzusida kichik hikoya yozing.
11. Hikoyada tasviriy ifodalar, maqollar yoki ta'riflardan foydalaning.
12. "Odobli bola" deganda nimani tushunasiz? O'z fikringizni yozing.
13. Guruh bo'lib "Do'stlik" mavzusida kichik sahna ko'rinishi tayyorlang va ijro eting.
14. Berilgan so'zlardan ibora va jumlar tuzing: kitob, bilim, o'rganish, o'qituvchi, maktab.

Mavzuga doir testlar

- 1) Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirishning asosiy maqsadi nima?
 - a) Faqatgina o'qish tezligini oshirish
 - b) O'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirish
 - c) Yangi so'zlarni o'rgatish bilan cheklanish
 - d) Harflarni to'g'ri talaffuz qilish
- 2) Nutq o'stirishga yordam beradigan asosiy vositalardan biri qaysi?
 - a) O'yinlar va mashqlar
 - b) Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari

- c) Matematik masalalar yechish
- d) Tarixiy ma'lumotlarni o'qish
- 3) Qaysi usul nutq o'stirishda eng samarali hisoblanadi?
 - a) O'quvchilarga faqat darslikdagi matnlarni o'qitish
 - b) Ularning mustaqil fikrlarini ifodalashiga imkon yaratish
 - c) Faqat diktant yozdirish
 - d) Faqat grammatik qoidalarga e'tibor qaratish
- 4) Nutq o'stirish mashg'ulotlari qanday natijaga olib keladi?
 - a) O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi
 - b) Faqat yozma nutqi shakllanadi
 - c) So'z yodlash qobiliyati ortadi
 - d) Faqat rasm chizish qobiliyati oshadi

2-MAVZU. NUTQ O'STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI, UNING TARKIBIY QISMLARI.

Tayanch so'zlar: tovush, leksema, fonema, morfema, nutq munosabatlari, gap, predikativlik va intonatsiya, til birligi, modallik, yozma nutq, nutq o'stirish, erkin fikrlash, so'z, so'z boyligi, so'zlarning talaffuzi, Nutqiy kompetenciya, lug'at, faol va nafaol lug'at, sinonim, antonim, mashq, so'z boyligini, lingvistika, nazariy bilim, integratsiya, lug'at bilan ishlash metodikasi.

2.1 Nutq. Nutq – tilning eng katta birligi

Nutq – tilning fikrni ifodalash va almashish jarayonida ishlashining amaliy ko'rinishi, shuningdek, tilning ijtimoiy faoliyatning muayyan shakli sifatidagi bir turi. Nutqning tarkibida og'zaki (ovozli) va yozma shakllarda namoyon bo'lishi tushuniladi. Ya'ni, nutq – so'zlash jarayoni va uning natijasi bo'lib, u xotirada saqlangan yoki yozma shaklda qayd etilgan fikrlar, asarlar sifatida namoyon bo'ladi.

Nutqning eng kichik bo'lagi tovush sanaladi. Tovush tilning eng kichik (minimal) birligi fonema, nutqning eng kichik (minimal) birligi tovush hisoblanadi. Negaki, tovush fonemaning nutqdagi aniq namoyon bo'lishi, muayyan ko'rinishi, harakatidir. Fonema fonologik birlik sifatida fonetik birlik bo'lgan tovush bilan uzviy aloqada – munosabatda bo'ladi. Bu mutlaqo tabiiy va mantiqiydir. Nutq birligi bo'lgan tovushlar xususiylik sifatida tilning ashyosi, moddiy materiali bo'lib, fizik, akustik, fiziologik hamda lingvistik (lisoniy) kabi

qator belgilarga egaligi bilan o'ziga xosdir. Anig'i, tovushning talaffuzi, ta'sir qilishi, sezgi uyg'otishi, balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi, aniqligi kabi qator xususiyatlari borki, bular fonetikaning fizik – akustik, anatomik – fiziologik, pertseptiv va lingvistik – funksional aspektlari deb qaraladi.

Tovushning til sistemasidagi eng muhim xususiyati uning til (nutq) birliklarining: morfema, leksema, so'z (so'z formasi) kabilarning moddiy qiyofasini, ifoda tomonini, shaklini qurishdir, shakllantirishdir. Demak, tovush til sistemasining eng asosiy, eng dastlabki qurilish materiali, moddiy asosidir. Boshqacha aytganda, masalan, so'zning moddiy tomoni uning tovush qobig'ini tashkil qiladi. Tovush qobig'i esa muayyan narsa, predmet, xususiyat bilan bog'lanib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Tovush o'zi yaratgan, "qurgan" so'zni tovush jihatdan farqlash, demak, ma'no jihatdan farqlash, fonetik-semantik differensiasiya qilish uchun xizmat qilsa, u fonema – til birligining ko'rinishi, voqelanishi sifatida baholanadi. Fonemaning tovushga, tovushning fonemaga o'tishi mantiqiy – zaruriy jarayon bo'lib, til va nutq dialektikasining fonema va tovush orqali voqelanishidir. Fonema va tovush nisbiy butunlik, nisbiy yaxlitlik sifatida til va nutqda, aytilganidek, ijtimoiy vazifa bajaradi.

Ma'lumki, tarixiy – etimologik jihatdan tovush birlamchi. Chunki u talaffuz qilinish va eshitilish jarayoni bilan bog'liq, ya'nidastlab nutq - nutq tovushlari paydo bo'lgan, nutq yuzaga kelgan. Tovushning fonema sifatida baholanishi esa ikkilamchi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining – til (nutq) taraqqiyotining muayyan davrida, keying bosqichlarida yuzaga kelgan, "yaratilgan".

Xullas, tovush nutq birligi sifatida nutqiy faoliyatni, nutqiy jarayonni ta'minlovchi moddiy birlikdir, shunday qilib:

1. Tovush – nutq birligi, fonemaning nutqdagi voqelanishi, harakati, uning moddiy asosi.
2. Tovush - xususiylik sifatida fizik, akustik, fiziologik va lisoniy (lingvistik) belgilarga ega.
3. Tovush – til (nutq) birliklarining (morfema, leksema, so'zlarning) moddiy qobig'i, ifoda tomoni sifatida muayyan predmet bilan bog'lanadi.
4. Tovush fonemaning voqelanishi sifatida muayyan birliklarni fonetiksemantik jihatdan farqlaydi, ijtimoiy vazifa bajaradi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi.

5. Har bir tovush fonema bo'lish qobiliyatiga ega. Tovush fonemaga, fonema tovushga o'tib turadi.

6. Tovush tarixiy – etimologik – kelib chiqishi, paydo bo'lishi jihatidan birlamchi, fonema-ikkilamchi.

2. So'z . Nutq birligi bo'lgan so'z (so'z formasi) nutq faoliyati bilan bevosita bog'lanadi, nutq jarayonida voqelanadi. Shunga ko'ra u nutq birligi, nutq "boyliqi" hisoblanadi. Aslida so'z (so'z formasi) nutq birligi bo'lgan tovushdan – tovush kompleksidan iborat ijtimoiy belgidir. So'z (so'z formasi) real birlik, xususiylik, aniqlik sifatida mavjud bo'ladi. Boshqacha aytganda, Leksema – til birligi tayyor va turlicha imkoniyatlar majmuasi bo'lsa, so'z uning voqelanishi, ro'yobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy ko'rinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan so'z sifatida namoyon bo'ladi. Demak, leksema va so'z umumiylik va xususiylik dialektikasi bilan bog'langan bo'lib, so'z xususiylik sifatida umumiylikning – leksemaning amaldagi ko'rinishi, harakati, muayyan vazifa bajarishidir.

Shunday qilib, til birliklari bo'lgan leksemalarning nutqda voqelashgan aniq shakl, mazmun va vazifaga ega ko'rinishiga so'z deyiladi, leksema va so'z munosabati aslida til va nutq bog'liqligining, o'zaro aloqadorligining muayyan birliklardagi aniq ko'rinishi, tasdig'idir.

Nutq birligi bo'lgan so'z, aytilganidek, tovushdan tashkil topgan ijtimoiy – individual belgi bo'lib, shunga ko'ra u moddiylik bilan – dastavval tovush tomoni (perseptiv vazifasi) bilan ajralib turadi.

So'zning nutq faoliyatidagi asosiy vazifasi atama-nominativ vazifa bo'lib, u ob'ektiv borliqdagi turlicha muayyan narsa-predmetlar, voqea-hodisalar, harakatholatlar, belgi-xususiyatlar bilan bog'lanadi, ularni ifoda etadi, anglatadi, ular haqida muayyan ma'no, tushuncha beradi. Ayni vaqtda so'z jamiyat a'zolari xotirasida muhrlanib, ular tomonidan bir xilda qabul qilinadi, bir xilda tushuniladi. Shunga ko'ra u gapda, matnda qayd etilib, kuzatishda beriladi.

Shunday qilib, so'z tovush tomoniga (perseptiv vazifasi), atamalik xususiyatiga (nominativ vazifasi) hamda ma'no, tushuncha ifodalashiga (signifikativ vazifasi) ko'ra nutq birligi sifatida mukammalligi, fonema (tovush) va morfema kabi til birliklarini o'z tarkibiga olishi, kommunikativ jarayonda yetakchilik qilishi bilan ajralib turadi, muhim sanaladi.

So'z har qanday so'z birikmasi, gap va matn kabi sintaktik butunliklarning asosi, birlamchi material sanaladi. Fikr almashish jarayoni aslida so'zlardan, ularning semantik-sintaktik bog'lanishidan – valentlik munosabatiga kirishuvidan sodir bo'ladi. Shunga ko'ra so'z o'zining asosiy nominativ

vazifasini nutq jarayonida bajaradi. Shu jarayonda u ma'no aniqligiga, pozision mustaqillikka ega bo'ladi, muayyan sintaktik vazifada namoyon bo'ladi.

Demak, so'z semantik-morfologik jihatdan shakllanganligi bilan, sintaktik birlik bo'lish imkoniga egaligi bilan o'ziga xosdir.

1. So'z nutq jarayonida voqelashishiga ko'ra nutq birligi hisoblanadi.

2. So'z leksemaning-til birligining nutqda muayyan shakl va mazmunda namoyon bo'lishidir, amaldagi harakati, nutqiy ko'rinishidir.

3. So'z va leksema o'zaro umumiylik va xususiylik dialektikasi bilan bog'langan bo'lib, so'z xususiylik sifatida voqelashadi. So'z xususiyligi nutq xususiyligining mantiqiy davomidir.

4. So'z va leksema munosabati asosida til va nutq munosabati, bog'liqligi yotadi.

5. So'z pereseptiv, nominativ va signifikativ vazifalariga ko'ra ajralib turadi.

6. So'z nutqda gapning vazifasi bo'lgan fikr ifodalashni ham bajaradi. So'z gap bo'lib kela oladi.

7. So'z o'zaro bog'liq bo'lgan fonetik, grammatik va semantik jihatlarning jamidir.

3. So'z birikmasi. So'z birikmasi mustaqil ma'noli so'zlarning (leksemalarning) o'zaro bog'lanishidan yuzaga kelib, gap bilan so'z orasidagi oraliq nutqiy birlik – nutq mahsuli sifatida baholanadi. U gap uchun qurilish material bo'lib xizmat qiladi. Ayni vaqtda so'z birikmasi so'zga nisbatan ham shaklan – miqdoran, ham mazmunansifat jihatdan boyligi, kengligi, mukammalligi va aniqligi bilan ustun turadi.

So'z birikmasining yaratilishida so'zlar xizmat qiladi, gaplarning yaratilishida esa so'z birikmalari xizmat qiladi. So'z birikmasi muayyan mazmun jihatiga ega bo'lib, ushbu mazmun jhati birikma tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga asoslanadi. Shunga ko'ra so'z birikmasi semantikasi so'z semantikasiga ko'ra aniqroq, chuqurroq, murakkabroq va to'laroq bo'ladi. Negaki, u bir nechta so'z ma'nosining o'zaro "qorishuvidan", ichki munosabatidan, zanjirli bog'lanishidan yuzaga keladi.

So'z birikmasi ham, aslida so'z kabi, atash vazifasini – nominativ vazifani bajaradi. Anig'i, so'z birikmasidagi atash vazifasi bir nechta so'zlarning (leksemalarning) o'zaro erkin sintaktik aloqaga, munosabatga kirishuviga ko'ra amalga oshadi.

So'z birikmasi ham, aytilganidek, ifoda va mazmun, moddiy va ma'noviy jihatlarga egaligiga ko'ra morfema, leksema va so'z kabi til (nutq) birliklari bilan umumiylikni hosil qiladi. So'z birikmasining o'ziga xosligi yana shundaki,

u sintaktik birlik sifatida soʻzdan farq qilsa, boshqa sintaktik birlik boʻlgan gap bilan umumiylikka ega boʻladi. Ammo bu umumiylik asosida muayyan xususiyliklar, farqli jihatlar yotadi, yaʼni soʻz birikmasi fikr ifodalamaydi. Shunga koʻra u gapga xos fikriy tugallik intonatsiyasiga ega emas.

Shunday qilib, soʻzlarning birikib, soʻz birikmasini hosil qilishi, dastavval, birikma tarkibidagi soʻzlarning maʼno imkoniyatiga koʻra amalga oshadi. Soʻzlar orasidagi semantik munosabat esa bevosita sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi. Shunga koʻra birikma konstruksiyasi tuziladi

Soʻz birikmasi ham fonetik, leksik-grammatik va semantik jihatlarning birligidan tashkil topadi.

1. Soʻz birikmasi nutq mahsuli, nutq birligidir.

2. Soʻz birikmasi birdan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzlarning oʻzaro birikuvidan tashkil topib, nisbatan aniq maʼno ifodalaydi, nutqda nominativ vazifa bajaradi.

3. Soʻz birikmasi komponentlari oʻzaro tobe-hokim munosabatida boʻladi.

4. Soʻz birikmasi hokim komponentining qaysi soʻz turkumiga tegishligiga koʻra turlicha nomlanadi (oʻsha turkum nomi bilan ataladi).

5. Soʻz birikmalari tuzilishiga koʻra sodda va murakkab birikmalarga boʻlinadi.

6. Soʻz birikmasi asosida soʻz valentligi-soʻzning valentlik imkoniyati yotadi.

4. Gap. Gap ifoda va mazmun jihatlarga ega nominativ (alohida olinganda) va kommunikativ (matn ichida berilganda) birlik sifatida morfema, leksema, soʻz va soʻz birikmasi kabi til hamda nutq birliklari bilan umumiylikni hosil qiladi. Ammo gap nutq jarayoni sifatida qayd etilgan lisoniy birliklardan farqli jamiyatda kommunikativ vazifa bajaradi, kommunikasiya akti birligi hisoblanadi. Til aloqa quroli boʻlish vazifasini gap orqali amalga oshiradi. Chunki gap fikr ifodalash vositasi sifatida faqat oʻziga xosligi bilan, semantik-grammatik, prosodemik shakllanganligi bilan boshqa lisoniy birliklardan ajralib turadi. Anigʻi gap fikr ifodalash – axborot (xabar) berish va axborot (xabar) olish birligidir. Yuqorida qayd etilgan boshqa barcha birliklar gap uchun qurilish materiali boʻlib xizmat qiladi.

Gap mazmun jihatida obʼektiv borliq aniq holda emas, balki umumlashtirilgan holda ifodalanadi. Shuningdek, gap mazmunida obʼektiv borliqdan tashqari kishining mazkur borliqqa boʻlgan munosabati – modallik-kommunikativ modallik ham mavjud boʻladi. Modallik esa predikativlikning muayyan koʻrinishi, tarkibiy qismi sifatida voqelashadi. Boshqacha aytganda,

gapning grammatik asosini predikativlik – muayyan narsa-predmetning muayyan belgi-xususiyatini tasdiqlash yoki inkor qilish tashkil qiladi.

Xullas, gap predikativlik ifodasiga ega bo‘lib, bu uning grammatik belgisi sifatida zamon, shaxs, modallik, mayl kabi grammatik sistemalarni-kategoriyalarni o‘z ichiga oladi. Ayni vaqtda gapning predikativlikka ega bo‘lishining o‘zi bu birlikning o‘ziga xos fonetik shakllanishini ham taqozo qiladi: predikativlik mavjud bo‘lgan joyda, albatta, intonasion shakllanish ham bo‘ladi. Chunki intonasiya gapning tashqi shaklidir. U gapning boshlanish va tugash chegaralarini ko‘rsatadi, jumladan, delimitativ (chegaralash, ajratish) funksiyani bajaradi. Kishilarning o‘zaro aloqa qilishlari gap orqali amalga oshirilgani uchun intonasiya ham predikativlik kabi kommunikativ vazifani bajaruvchi vosita bo‘lib, u gapning uchinchi muhim belgisidir.

Shunday qilib, gap ob’ektiv borliqni kishining unga munosabati orqali ifodalaydigan leksik-grammatik va intonatsion butunlikdan iborat bo‘lgan alohida nutqiy formadir, nutq faoliyatidir – ***London is the capital of Great Britain.***

Ushbu gapda tasdiq, munosabat, intonatsion tugallik mavjud. Demak, gapni gap qiluvchi muhim jihatlar predikativlik va intonatsiyadir.

Gap nutq birligi-sintaktik birlik sifatida ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko‘ra muayyan turlarga ajraladi. Gap mazmun tomoni orqali darak, so‘roq, buyruq kabi xabarlar voqelashadi. Ushbu jarayonlar gap mantiqiy tomonining asosini tashkil qiladi.

1. Gap ifoda va mazmun jihatlariga ega nutq birligidir.
2. Gap kommunikativ jarayon – fikr ifodalash birligi bo‘lib, semantik, grammatik va prosodemik shakllangandir.
3. Gapning grammatik asosini predikativlik tashkil qiladi.
4. Gap intonasion shakllanganligi bilan ham o‘ziga xosdir.
5. Gap ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko‘ra muayyan turlarga ajraladi.
6. Til birligi sifatida gap qurilish modellari (qoliplar) nutqda nominativ birliklar va grammatik vositalar bilan to‘ldiriladi.

Umumiy xulosa shuki, til va nutq birliklari tilni-kommunikativ jarayonni harakatlantiruvchi, moddiy asos bilan ta’minlovchi, ijtimoiy-amaliy vazifa bajarishi uchun xizmat qiluvchi kuchdir.

2.2 Nutqning ta’rifi. Nutqning sintaktik butunlik ekanligi.

Nutq - tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilinadigan, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli hisoblanadi. Nutq deganda uning ogʻzaki va yozma ravishda namoyon boʻlishidagi jarayonlar, yaʼni soʻzlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan boʻlib, mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy hayotning eng harakterli koʻrinishlaridan boʻlgan aniq, bir qadar umumiyroq til tushunchasiga qaramaqarshi qoʻyiladi. Boshqa odamlar xulq-atvori va faoliyatiga taʼsir koʻrsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), yaʼni gapirish, til belgilarining eshitish aʼzolari tomonidan idrok qilinadigan artikulyatsiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi. Nutq aloqa-aralashuv vazifasidan tashqari yana boshqa vazifalar, chunonchi, poetik vazifa ham bajarishi mumkin. Nutqning alohida koʻrinishi oʻqishdir.

Matn (lotincha-birikma) - maʼlum moddiy tashuvchiga bogʻlangan inson fikri; belgilarning umumiy izchil va toʻliq ketma-ketligi hisoblanadi. „Matn“ tushunchasining ikkita asosiy talqini mavjud: immanent (kengaytirilgan, falsafiy qarashlarga yoʻgʻrilgan) va reprezentativ (asosan, xususiy munosabat aks etgan). Immanent yondashuv matnda voqelikka xolis munosabat bildirib, uning ichki tuzilishini uchinchi shaxs tomonidan yoritishga eʼtibor qaratishni nazarda tutadi. Reprezentativ yondoshuv esa, matnni tashqi voqelik haqidagi maʼlumotni taqdim etishning maxsus shakli sifatida koʻrib chiqishni anglatadi. Tilshunoslikda „matn“ atamasi keng doirada, jumladan, ogʻzaki nutq namunalarida ham qoʻllaniladi. Matnni idrok etish matn lingvistikasi va psixolingvistika doirasida oʻrganiladi. Matn bu nutq koʻrinishi hisoblanadi, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikka ega. Matn soʻz birikmasi va gapdan farqlanadi, chunki matning ham oʻz kategoriyasi va qonuniyatlari mavjud.

Boshlangʻich sinflarda nutq va matn tushunchalari 1-sinf (1-qism), 3-sinf (4-qism) larda berilgan. Bilamizki nutq soʻzlashuv jarayonida katta ahamiyatga ega shu boisdan ushbu mavzular boshlangʻich sinflar uchun katta dars soatlari ajratilgan.

Masalan: 1-sinf 1-qism 8-sahifa

Matn gaplardan tuziladi. Mazmunan bogʻlangan ikki yoki undan ortiq gap Matn deyiladi
Har bir gap biror tugallangan fikrni ifodalaydi. Gapdagi soʻzlar maʼno jihatdan bir biriga bogʻlanadi

Shu bilan birga mavzuga doir kreativ mashqlar ham berilgan 9-sahifa 2-mashq



O'zingizni sinang!

1. Matn _____lardan iborat.
2. gap _____lardan iborat.
3. Gap _____fikrni ifodalaydi.
4. Gapdagi so'zlar bir biri bilan _____.

Javoblar:

1-gaplardan; 2-so'zlardan; 3-tugallangan; 4-bog'lanadi;

Nutq o'z o'rnida ikki turga bo'lindi: og'zaki va yozma nutq. Birinchi sinf o'quvchilari uchun bu mavzu quyidagicha ma'lumot berilgan.

11-sahifa

Og'zaki nutq - bu biz eshitayotgan yoki talaffuz qilayotgan nutq. "Og'zaki" so'zi "og'iz" degan so'zdan olingan bo'lib, og'iz orqali ifoda etiladigan nutq hisoblanadi.

Yozma nutq - bu biz o'qiydigan yoki yozadigan nutq. Yozishda biz harflar va yozma belgilardan foydalanamiz Yangilangan o'qish savodxonligidarsliklarida 3-sinf o'quvchilarning ilk mavzulari nutq va matn tushunchalari hisoblanadi bunda o'quvchilar uchun quyidagicha ma'lumot keltirilgan:

3-sinf 1-qism 7-sahifa

Nutq gaplar orqali bildirilgan fikrdir. Nutq gaplardan gaplar esa so'zlardan tashkil topadi

12-sahifa

Matn nutqning yozma shaklidir matn gaplardan tuziladi. Matndagi gaplar mazmun jihatdan o'zaro bog'lanadi

O'quvchilar uchun shu bilan birga mavzuga doir ko'plab mashqlar berilgan. Asosan yangi darslikda bola yoshiga mos tarzda mashqlar tanlangan. Bularga misol qilib yangilik asosida yaratilgan kreativ ham rasm ham so'zlardan iborat matnli metodlarni keltirib o'tish mumkin. Bu albatta bolalarni guruh bilan ishlash, dars jarayonini qiziq tarzda olib borilishiga va o'quvchilarni izlanuvchanlikka olib keladi.

Mavzudan kelib chiqadiki, dars asosan matnlardan iborat bo'ladi. Bu holat o'zi bilan birga bola nutqini ham rivojlantiradi. Shunday ekan bejizga matn va nutq mavzulari bolalarga birdek tushuntirilib, mavzu sifatida darslikda keltirilgan. Bu jarayonda o'qituvchi har bir o'quvchini darsga jalb qila olishi uchun ham nutq bilan bog'liq harakatli metodlarni qo'llashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki nutq o'quvchilar uchun eng muhim jarayon hisoblanadi.

Bola nutqini asosan amaliy jihatdan yondashgan holda rivojlantirish yuqori samara beradi. Maqolada ham matn va nutq mavzularini tashkillash borasida bir nechta metodlar yuzasidan fikr va tavsiyalar keltirib o'tildi. Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'qish savodxonligidarsliklarini mavzuga doir mashqlar tahlili va qoidalarni ham uchratishingiz mumkin.

2.3 Nutqning ifoda qobig'i, mazmuni (semantikasi), grammatikasi.

Yan Komenskiyning pedagogik merosi ulkan va ko'p qirralidir. Olimning chop etilgan falsafiy va pedagogik asarlari uning tarixiy ahamiyatini belgilab berdi.

Komenskiy tabiiy iqtidorni ilk yoshdan boshlab har tomonlama rivojlantirish g'oyasidan kelib chiqqan holda onalar maktabi oldiga qiyin vazifalarni, ya'ni: bolalarga bilish (bilimga ehtiyojmandlikni tarbiyalash, bilimga chanqoqlik)ni, harakat qilish (mehnatkash bo'lish, o'zini boshqara olish va yaxshi amallar qilish)ni va gapirish (nutq va fikrlashni rivojlantirish)ni o'rgatish vazifalarini qo'yadi. Shu munosabat bilan u aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiyalash, nutq va fikrlashni rivojlantirish bo'yicha aniq maslahatlar beradi.

„Onalar maktabi“ dagi alohida bir bob qanday qilib bolalarga nutqni mashq qildirish lozimligiga bag'ishlangan. Komenskiy aql va nutqni rivojlantirish uchun bir xil harakat qilish zarur deb hisoblagan. U aql va nutqqa organik birikma sifatida qaragan. Bu tasodifiy emas, zero, bola nutq tufayli o'z fikrlarini ifoda- laydi va atrofdagi odamlar bilan muloqotga kirishadi, nutqni egallash orqali u atrofni o'rab turgan olamni anglaydi. Bolada nutq va fikrlash rivojlanadi.

U sensor rivojlantirish va tarbiyalashga alohida e'tibor bergan, chunki usiz aql va nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirib bo'lmaydi. Buyuk pedagogning mazkur qoidaga rioya qilishni „didaktikaning oltin qoidasi“ deb atagani ham bejiz emas.

Nutqqa taalluqli bo'lgan boshqa bir g'oyani Komenskiy ona tilini o'qitish, ona tilida o'rgatishni talab qilish shaklida ifodalagan. Maktabgacha yoshda ona tilini o'rgatish, Komenskiy xulosasiga ko'ra, – bu eng avvalo bola hayotining birinchi yilidan boshlab nutqni rivojlantirish, bo'g'inlar va so'zlarni aniq talaffuz qilish, gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, narsalar-ning nomini to'g'ri aytish va mos fikr bildirishdan iborat. Ushbu maqsadda Komenskiy ota-onalarga bolalar bilan muloqot qilishda narsalar nomlarini va so'zlarni buzmasdan, to'g'ri aytish, bolalarga talaffuzi qiyin bo'lgan va nisbatan uzun so'zlarni aytishni mashq qildirish va buning uchun o'yin uslubidan foydalanishni maslahat beradi. Komenskiyning xizmati shundan iboratki, u pedagoglar ichidan birinchilardan bo'lib bola nutqini rivojlantirishda, uning ona tilini butun go'zalligi va milliy xususiyatlari bilan birgalikda o'zlashtirib olishida she'riyat, ertaklar, maqollar va matallar, tez aytishlarning tutgan o'rniga birinchi bo'lib e'tiborni qaratdi. Gapirishni boshlayotgan bolalar kattalar nutqini tushunishlari uchun ular so'zlovchining yuzini va uning qo'l harakatlarini ko'rishlari, uning savollarini tushunishlari va to'g'ri javob berishlari darkor, deb yozgan edi Komenskiy. Ona tabassumi va bola tomonga cho'zilgan qo'llar, imlash, hoshni qimirlatib qo'yish, qayg'uli yuz va barmoq bilan do'q urish – bularning barchasi so'zlovchining kayfiyatini ifodalaydi, buni bola qabul qilib oladi va u aytilgan fikrni tushunishga yordam beradi. Bu ritorik harakatlar muloqotda juda asqotadi, nutqni va fikrlashni rivojlantiradi.

Ya.A.Komenskiyning „Onalar maktabi“ asari G'arbda va Rossiyada oilaviy tarbiyaning keyingi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Pestalotssi va Frebel, K.D.Ushinskiy va Ye.N.Vodovozova birlamchi oilaviy tarbiyaga shaxsni shakllantirish tizimidagi o'ta zarur bosqich sifatida qaraganlar. Bularsiz o'sib kelayotgan avlodni muvaffaqiyatli tarbiyalash borasidagi barcha harakatlarimiz zoye ketadi.

Ularning barcha asarlarida o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy kamol toptirish, ideal jamiyat talablari va vazifalariga javob bera oladigan, yuqori afzalliklarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish masalasi asosiy o'rin tutadi.

Keng qamrovli shaxsni shakllantirish faqat ta'lim va tarbiya orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

Tarbiyaning barcha murakkabligi va qiyinchiliklarini tushungan holda Sharq olimlari tarbiya va ta'lim mazmunini belgilab berishga intilganlar (Ibn Sino).

Tarbiya – ota-onalarning qanday mavqeyiga egaligidan qat'i nazar, ularning asosiy vazifasidir.

Olimlarning bola shaxsini hurmat qilish, uning qiziqishlarini o'rganish, tabiiy qobiliyatini hisobga olish haqidagi fikrlari (Ibn Sino, D.Dovoni, Alisher Navoiy) juda qimmatlidir.

Biz o'qituvchilar o'quvchilar nutqini o'stirish maqsadida turli mavzularda ular bilan erkin muloqot qilishimiz lozim .

Masalan, „**Do'stlik va uning ahamiyati**“ - O'quvchilarga do'stlik haqida gapirib, bir-biriga yordam berish va birgalikda ishlashni qanday muhimligini tushuntirish bilan birga ularni fikrlarini ham so'rashimiz kerak.

Aziz o'quvchilar!

Bugun biz juda muhim bir mavzu – **do'stlik** haqida gaplashamiz. Do'stlik – bu odamlar o'rtasidagi eng go'zal va muhim rishtadir. Har birimizni do'stlarimiz bilan yanada baxtliroq qilish mumkin, chunki do'stlik bizni o'zaro mehr, tushuncha va yordam bilan bog'laydi.

Do'stlik, birinchidan, **bir-birini hurmat qilish** demakdir. Do'stlaringizni sevish va ularni qadrlash, ular bilan birga vaqt o'tkazish, bir-biriga yordam berish – bularning barchasi do'stlikning ajralmas qismlaridir. Agar do'stimiz baxtsiz bo'lsa, biz uni quvontirishga harakat qilishimiz kerak. Agar do'stimiz muammolarga duch kelsa, uni tinglash va yordam berish juda muhimdir.

Ikkinchidan, **do'stlikni samimiylilik** tashkil etadi. Yaxshi do'stlar bir-biriga chin dildan yordam berishadi. Agar sizga biror narsa kerak bo'lsa, do'stlaringiz har doim yoningizda bo'ladi. Ularga ishonish va ularga o'z his-tuyg'ularingizni ifoda etish mumkin. Do'stlikda **yolg'onchilik va xiyonat yo'q**.

Shuningdek, do'stlik bizni o'zimizni yaxshi anglashga va rivojlanishga yordam beradi. Do'stlarimizdan ko'p narsalarni o'rganishimiz mumkin. Biz ularning tajribalarini, fikrlarini tinglab, hayotda qanday qilib yanada yaxshi inson bo'lishni o'rganamiz.

Do'stlik har doim bir-birini qo'llab-quvvatlash, birga kulish va birgalikda o'sishdir. Biz do'stlarimiz bilan xushnud bo'lishimiz, ularning yordami bilan ko'p qiyinchiliklarni engib o'tamiz. Shuning uchun do'stlaringizni qadrlang va ularning hayotida yaxshi do'st bo'lishga harakat qiling.

Do'stlik – bu o'zaro ishonch, hurmat va sevgi. Do'stlarimizni qadrlash, ularni baxtli qilish bizni ham baxtli qiladi.

Rahmat!

Ushbu nutq bolalarga do'stlikning ahamiyatini tushuntirishga yordam beradi va ularni bir-birini hurmat qilishga undaydi. Yana qanday mavzular bo'yicha yordam kerak?

O'qish savodxonligi darslarida "**Kitob o'qishning foydalari**" -mavzusida suhbat o'tkazib o'quvchilarni erkin fikrlashini rivojlantirish bilan birga lug'at boyligini ham oshiramiz.

Bugun biz juda muhim bir mavzu – kitob o'qish haqida gaplashamiz.

Kitoblar – bu haqiqatan ham sehrli narsalar. Ular bizga yangi dunyolarni ochadi, bilimlarni beradi va bizni o'zgacha his-tuyg'ular bilan to'ldiradi.

Birinchidan, kitob o'qish bilimlarni oshiradi.

Har bir kitobda yangi narsalar bor. Masalan, tarix kitoblarini o'qib, biz o'tgan zamonlarni bilib olamiz. Ilmiy kitoblar esa bizga tabiat, hayvonlar yoki koinot haqida yangi bilimlar beradi. Agar siz kitob o'qisangiz, ko'proq bilasiz va aqlingizni o'stirasiz.

Ikkinchidan, kitob o'qish fikrlashni rivojlantiradi.

Kitoblar orqali biz qahramonlarning hayotiga qarab, qanday qilib muammolarni hal qilishni o'rganamiz. O'qish, bizni yanada aqlli va yaxshi fikr yuritishga o'rgatadi. Kitobni o'qish orqali biz o'zimizni yaxshiroq tushuna boshlaymiz.

Uchinchidan, kitob o'qish so'z boyligini oshiradi.

Har bir kitobda yangi so'zlar, yangi iboralar mavjud. O'qib borar ekanmiz, yangi so'zlarni o'rganamiz va o'z nutqimizni yanada chiroyli va aniq qilishni o'rganamiz. O'quvchilar, sizningcha, so'z boyligini oshirish qanday foydalidir?

To'rtinchidan, kitob o'qish tasavvurni rivojlantiradi.

Kitobda o'qigan voqealar va tasvirlangan joylar bizning tasavvurimizni ishlatishga yordam beradi. Biz ularni ko'z oldimizga keltirib, yangi dunyolarni yaratamiz. Kitoblar bizga hayolotimizni o'stirishga yordam beradi!

Va nihoyat, kitob o'qish kayfiyatni ko'targan va tinchlantiradi.

Ba'zan kitob o'qish bizni xotirjam qiladi, ba'zan esa quvontiradi. Yaxshi bir hikoyani o'qish, qiziqarli voqealarni kuzatish bizni baxtli qiladi va yomon kayfiyatni yo'q qiladi.

Shunday qilib, kitob o'qish bizga nafaqat bilim beradi, balki bizni yaxshi odam qilib tarbiyalaydi.

Har doim kitob o'qishga vaqt ajrating, chunki kitoblar bizning eng yaxshi do'stimiz bo'lishi mumkin.

O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og'zaki nutqqa qaraganda

ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o'quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to'g'rijumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. O'qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko'pincha o'quvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish masalasi hozirgi uslubiy adabiyotlarda til, lug'at boyligi va nutq madaniyati haqida bilimlarga turlicha yondashuvlar asosida hal qilinadi. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligidasturiga kiritilgan lingvistik tushunchalardan kelib chiqib, mashqlarni fonetik, leksik, so'z yasalishi, morfemik (so'z tarkibi), grafik, orfografik, orfoepik, grammatik mashqlarga ajratish mumkin. Mazkur mashqlar asosida amalga oshiriladigan tahlil o'quvchilarning nazariy tushunchalarni o'zlashtirishlariga yordam berishi, lug'atini boyitishi, bog'lanishli nutqini o'stirishi jihatidan keng qamrovli bo'lib, o'quvchilarning tilni har tomonlama O'zlashtirishlarini ta'minlashini nazarda tutadi. Ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf O'qish savodxonligi darsliklaridagi mashq matnlarining tilini, ular yuzasidan ishlab chiqilgan savoltopshiriqlarni tahlil qilish, ularning o'quvchilar nutqini tadrijiy ravishda o'stirib borish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatdi.

O'qish savodxonligi darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersa-da, o'quvchilar lug'atini boyitish, nutqini o'stirish, tilni amaliy egallashlariga zamin, asos bo'la olmaydi. Mashqlarning bir tizim sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma'lumot berishga mo'ljallangan terma to'qima gaplardan tuzilgani, shubhasiz, mashqlarning bog'lanishli nutqni egallashga ijobiy ta'siri kam. Oddiy so'zlashuv nutqi shaklidagi qashshoq matn o'quvchi nutqini boyitish uchun manba bo'la olmaydi. O'quvchilarning o'zbek adabiy tilini egallashlari mashq matnlarining badiiyligiga, til komponentlariga boyligiga bog'liq. Darslarni

didaktik o'yinlar vositasida olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi.

Yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Pedagogik kitoblarda berilgan ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2 yoshli bolalar 30 dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so'zni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilardagi so'z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qaramaqarshi ma'noligi bilan almashtira olmaslik, ma'lum bir sohaga qarashli so'zlar lug'atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o'quvchilarning so'z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri o'quvchilarning uyda, ko'chada yoki sinfdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg'iz yoki boshqa (sheva) tilda so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishidir. Etnografik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda ko'p tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar yashaydi.

Xullas, o'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi. Bizga ma'lumki, o'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiraman. "Hikoya" O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafosat, yomg'ir, soat va adabiyot kabi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. "O'zaro bog'liqlik" O'quvchilarga rasmlı kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi buyum haqida gapirib beradi. Masalan: "Bu olma daraxti. Olma bog'da o'sadi va mevalarga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi". Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi buyum haqida gapiradi va o'zidagi buyum bilan birinchi o'quvchidagi buyumini o'zaro bog'liqligini aytishi kerak bo'ladi. Masalan: "Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o'quvchilar yaxshi ko'rishadi. Quyosh isitib tursa, olma va boshqa mevalar pishadi". Keyin uchinchi o'quvchi o'zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi

boladagi predmet bilan o'zidagi predmet orasidagi bog'liqlikni topishi kerak. O'yin shu tartibda davom etadi. "Umumiylikni izlash" O'quvchilar aylana bo'lib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul... To'pni tutib olgan o'quvchi so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi. "Safar" O'quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lini tasvirlash topshirig'i beriladi. O'quvchilar bir necha kun davomida "obyekt"ni mustaqilkuzatadilar va uni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, chor-atrofga e'tiborli bo'lish hislarini tarbiyalash mumkin.

2.3 Nutq g'oyasi. Nutq o'stirish metodikasi.

Nutq g'oyasi va nutq o'stirish metodikasi haqida so'z yuritganda, quyidagi nuqtalar muhimdir:

Nutq g'oyasi - bu nutqning asosiy mazmuni va maqsadi bo'lib, u auditoriyani o'ziga jalb qilish, biror mavzuda ma'lumot berish, o'ylashga undash yoki biror ishni bajarishga ilhomlantirishga qaratilgan bo'ladi. Nutq g'oyasi nutqni yozishdan oldin, nutqchi aniqlashi lozim bo'lgan asosiy nuqtadir.

Nutq g'oyasini shakllantirishda quyidagi aspektlarga e'tibor qaratish muhim:

Maqsadli auditoriya: Kim uchun gapirayotganingizni aniqlang. Ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda nutq g'oyasini shakllantiring. **Matnni o'qishdan foydalanish:** O'qish savodxonligi yuqori bo'lgan auditoriya uchun matnni o'qib chiqish, tushunish va tahlil qilishni o'z ichiga olgan materiallarni taqdim etish mumkin. Bunda nutqchi matnni to'liq yoki qisqacha o'qib chiqishi, undan keyin muhokama yoki tushuntirishlar bilan auditoriyani jalb qilishi mumkin.

Yozma materiallar bilan ishlash: Nutqchi yozma materiallar (kitoblar, maqolalar, prezentatsiyalar) bilan o'z auditoriyasini ta'minlashi va ularni matn orqali tahlil qilishga yordam berishi mumkin. Bu o'qish savodxonligini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Mavzu tanlash: Nutqning asosiy mavzusi aniq bo'lishi kerak. Bu mavzu auditoriyaga qiziqarli, yangi yoki muhim bo'lishi zarur.

Nutqning maqsadi: Nutqni ma'lum bir maqsad uchun yozasizmi? Masalan, odamlarni ilhomlantirish, ma'lum bir fikrni isbotlash yoki auditoriyani xabardor qilish.

2. Nutq o'stirish metodikasi

Nutq o'stirish metodikasi - bu nutqni yaxshilash, nutqning samaradorligini oshirish va auditoriyani ta'sirli ravishda ta'sir qilish uchun qo'llanadigan usullar va metodlar tizimidir. Nutq o'stirishda quyidagi metodlar ishlatiladi:

a) Reja tuzish

Nutqni o'stirishda birinchi qadam sifatida reja tuzish kerak. Reja orqali nutqning asosiy g'oyasi, struktura va tahlili belgilanadi. Rejaning asosiy qismlari:

Kirish qismi: Mavzu haqida qisqacha ma'lumot berish va auditoriyani jalb qilish.

Asosiy qism: Mavzuni batafsil yoritish va fikrlarni asoslash.

Xulosa: Natijalar chiqarish va auditoriyani amalga undash.

b) Tajriba va mashqlar

Nutq o'stirishda davomli mashqlar va tajribalar o'tkazish zarur. Nutqchi har doim nutqini takrorlash, yangi texnikalarni o'zlashtirish va samarali ifodalash usullarini o'rganishi lozim.

Lug'at boyligini oshirish: Yangi so'zlarni o'rganish va ularni kontekstga mos ravishda qo'llash.

So'zlash texnikasi: To'g'ri ovoz balandligini, pauzalarini va intonatsiyani ishlatish.

c) Maqsadga muvofiq so'zlash

Nutq o'stirish metodikasida, nutqchi auditoriyaning qiziqishlariga va ehtiyojlariga mos ravishda so'zlash usulini tanlash zarur. Bu usulni aniq, lo'nda va tushunarli qilish uchun qadamlar qo'yiladi. Shuningdek, ko'rgazmali vositalar (grafikalar, slaydlar)dan foydalanish ham natijali bo'ladi.

d) Aksent va intonatsiya ishlatish

Nutqda aksent, intonatsiya va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish auditoriyani o'ziga jalb qilish va tushunish darajasini oshiradi. Nutqchi o'z nutqida ovoz balandligi, pauzalar va tinchlanishni ishlatish orqali auditoriyani qiziqtirishi kerak.

e) Tinglash va tahlil qilish

Nutq o'stirishda boshqa nutqchilarni tinglash, tahlil qilish va o'rganish ham juda muhim. Bu metod orqali nutqchi o'ziga xos nutq shakllarini va texnikalarini o'zlashtirishi mumkin.

f) Jamoaviy mashqlar

Jamoaviy mashqlarni o'tkazish nutqchini yanada samarali qilish uchun foydalidir. Jamoadagi fikrlar va munozaralar nutqchining ko'nikmalarini oshiradi va uni tezroq o'stirishga yordam beradi.

Nutq o'stirish metodikasi — doimiy mashq qilish, yangi texnikalarni o'zlashtirish va nutqni doimiy ravishda takomillashtirish jarayonidir. Nutq g'oyasi va metodikasi to'g'ri shakllantirilsa, har bir nutqchi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nutq o'stirish nazariyasining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
2. Nutq o'stirish metodikasining tarkibiy qismlarini va ularning vazifalarini tushuntiring.
3. Nutq o'stirishda o'qish, yozish, tinglash va suhbatlashish metodikalarining o'zaro farqlari nimada?
4. Nutq o'stirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar qanday rol o'ynaydi?
5. Zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlarning nutq o'stirishdagi ahamiyati haqida fikr bildiring.

Mavzuni mustahkamlash uchun testlar

1. Nutq o'stirish nazariyasi nimani o'rganadi?
 - A) Tilning grammatik qoidalarini
 - B) Nutqiy faoliyat va uning rivojlanish jarayonlarini
 - C) Yozma nutq shakllarini o'rgatish metodikasini
 - D) Faqat og'zaki nutqni o'stirish yo'llarini**To'g'ri javob:** B) Nutqiy faoliyat va uning rivojlanish jarayonlarini
2. Nutq o'stirish metodikasi qaysi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi?
 - A) Faqat fonetika va leksika
 - B) Grammatik me'yorlarni o'rgatish
 - C) Leksik, grammatik, fonetik va stilistik jihatlar
 - D) Yozma nutq shakllarini o'rgatish**To'g'ri javob:** C) Leksik, grammatik, fonetik va stilistik jihatlar

3. Nutq o‘stirish jarayonida leksik boylikni rivojlantirishning eng samarali usuli qaysi?

- A) Matnlarni o‘qib eshitish
- B) Yangi so‘z va iboralarni mantiqiy bog‘liq holda o‘rgatish
- C) Faqat yozma mashqlar bajarish
- D) Faqat og‘zaki mashqlar bajarish

To‘g‘ri javob: B) Yangi so‘z va iboralarni mantiqiy bog‘liq holda o‘rgatish

4. Nutq madaniyatini shakllantirishda qanday metodik yondashuvlar qo‘llaniladi?

- A) Induktiv va deduktiv yondashuv
- B) Tarjimaga asoslangan yondashuv
- C) Faqat tajriba usuli
- D) Faqat grammatik tahlil

To‘g‘ri javob: A) Induktiv va deduktiv yondashuv

5. Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish o‘rtasidagi asosiy farq nima?

- A) Og‘zaki nutq faqat muloqot vositasi, yozma nutq esa fikr ifodalash vositasi hisoblanadi
- B) Og‘zaki nutq grammatik qoidalarga bo‘ysunmaydi
- C) Yozma nutqni o‘rganish og‘zaki nutqdan avval amalga oshiriladi
- D) Og‘zaki nutq faqat talaffuzga asoslanadi

To‘g‘ri javob: A) Og‘zaki nutq faqat muloqot vositasi, yozma nutq esa fikr ifodalash vositasi hisoblanadi

3-MAVZU. KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHNING XUSUSIYATLARI, VAZIFALARI, METODLARI VA VOSITALARI

Tayanch so‘zlar: ijodiy fikrlash, matn, tasviriy matn, muhokama matni, matn yaratish, matn ustida ishlash. metod, talaffuz, intonatsiya, matn, maqol, tafakkur, fikr, ta’lim metodlari, bayon qilish metodi, suhbat metodi, analizsintez metodi, deduksiya metodi, induksiya metodi.

3.1 Turli muloqot vositalari, ya'ni so'z, yuz ifodasi (imo-ishora)dan muayyan vaziyatni hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan holda foydalanishni o'rgatish

Matn nutqiy hodisa bo'lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmuniy birikishidir. O'z tuzilishiga ko'ra gap xat boshi, bo'lim qism, boblardan tashkil topadi. O'quvchilari tomonidan yaratilgan matnlar asosan gap, xat boshi va qismdan iborat bo'ladi. Bahor dalalarda ish qizg'in shaklidagi to'rtgina so'zning mazmun birikishidan tortib, butun boshli hikoyalar, ertaklar, badiiy asarlar hammasi matn hisoblanadi. Matn narsa va hodisalarni tasvirlaydi, so'zlovchining munosabatini aniqlaydi. O'quvchilar rivoyat va hikoyalash, muhokama qilish usullaridan ko'proq foydalaniladi. Bu xislatlar o'rtasida, aniq chegara bo'lmasada, ularning har qaysisi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Tasviriy matnda voqealarda ishtirok etadigan shaxslar bo'lmaydi. Unda asosan tabiat manzarasi voqea - hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi. Rivoyalash va hikoyalash matnni tasviriy matndan, voqeaning izchillikda berilganligi, undagi ishtirok etuvchi shaxslarning borligi, dialogik nutqdan foydalanish kabilar bilan ajralib turadi. Matnning bu turida dalillar va ularning tafsilotiga alohida o'rin ajratiladi, voqealar hikoya tarzida tasvirlanadi

Matnlar ustida ishlash orqali o'quvchilarini ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ular ongi va tafukkurini rivojlanishiga asos bo'ladi. Matnlar orqali o'quvchilarni ijodiy tafukkurini shakllantirish mumkin. O'quvchilar qanchalik ko'p matn o'qisa shunchalik nutqi rivojlanadi, matnning ma'nosini tushunish orqali dunyoqarashi va fikrlashi o'zgaradi. O'quvchilarini ijodiy fikrlashga yo'naltirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi

O'quvchilarida ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, tushunarli va ta'sirchan, chiroyli so'zlash, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga qarab to'g'ri, o'rinli va samarali foydalanish malaka va ko'nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'alarimiz ruhida tarbiyalashda ona tilining tutgan o'рни va imkoniyatlari benihoya kattadir. Darhaqiqat, o'qish savodxonligiorqali o'quvchilarida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsuli og'zaki va yozma shakllarda tog'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

Mashg'ulotlarida asosiy e'tibor o'quvchilarga tilning grammatik qurilishini emas, balki ularning so'z boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, fikrini sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko'nikmalarini kengaytirishga qaratishimiz zarur. A.Hamroyev ta'kidlaganidek, o'qish savodxonligi ta'limiga kognitiv pragmatik usul elementlarini kiritish o'quvchilar

tafakkuri va mustaqil fikrlash layoqatlarini o‘stirish, ta’lim jarayoni samaradorligi bolalar o‘zlashtirishining sifatini yaxshilashga olib keladi.

So‘zlarning ma’nolarini o‘quvchilarga tushunarli tarzda yetkazib berish orqali ularni ijodiy fikrlashi rivojlanadi. Bolaning nutqi maktab ta’limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqatga kirishib kishilarning fikrini uqib olish va to‘g‘ri idrok qilish darajasida shakllanib boradi. U eshitgan va ko‘rganlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tushuna oladi. O‘zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila oladi. Shunday qilib unda fikrlash bosqichi paydo bo‘ladi.

Umuman olganda, o‘qish savodxonligi darsliklari so‘zga ehtiyoj hosil qiladigan, so‘z boyligini oshiradigan o‘quv-topshiriqlariga, matnlarga boy bo‘lishi, leksikologiya har bir til sathining tarkibiy qismiga aylantirilishi lozim va zarurdir, har bir dars matn tahlili bilan boshlanib, matn yaratish bilan tugallansagina, o‘qish savodxonligita’minining bosh maqsadga erishgan, o‘quvchilarning nutqiy taraqqiyotini ta’minlagan, ularni nutq sharoitiga mos ravishda go‘zal ixcham va ravon so‘zlashga o‘rgatgan, so‘z san’ati ilmiy bilan tanishtirgan bo‘lamiz. Matn ustida ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishning eng ma’qul usullaridan biri hisoblanadi. Buning uchun ularning og‘zaki va yozma nutqlarini baravar rivojlantirib borish kerak.

Biror asar matn ustida ishlashda ham bu talablarni unutmaslik lozim. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash va ijodiy matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid tashkiliy-metodik ishlarni asosan o‘tilgan darsni mustahkamlash jarayonida, shuningdek, uy vazifalari bajarishga yo‘llanma berish davrida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Matn yaratishga o‘rgatish orqali o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikma va malakalarini oshirish o‘qish savodxonligimashg‘ulotlarida ko‘zlanadigan bosh maqsad bo‘lib, u so‘z ustida ishlash, gap ustida ishlash va matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi. Ona tilidan istalgan bir mavzuni o‘tishda o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatib, fikrni og‘zaki va yozma shakllarda bayon qilish ustida ishlashni tashkil eta olishi lozim. O‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatishda matnlar ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Matnlarni ifodali tarzda o‘qiy olish, uning ma’nosini o‘rganish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nutqi va ijodiy fikrlashi rivojlanadi. Har bir o‘quvchi o‘z matnni o‘qigandan so‘ng, o‘z fikrini bayon qilsa, uning nutqi rivojlanib ijodiy fikrlashi shakllanib boradi.

3.2 Sonor tovushlar tempi, ovoz kuchi, intonatsion ifoda, fonematik eshitish, tovush madaniyati kabi elementlardan to'g'ri foydalanish.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l – yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, xususiyl metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutugi asosida shakllanib boradi. Masalan, eski maktablarda quruq yod olish metodida o'rganilagan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi.

Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, oqilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, katta e'tibor berilgan. Shuning uchun, hozir maktablarda o'qish izohli o'qish olib borilyapti.

O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar hayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati: ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar.

Sinfda o'qish darslari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshi, to'g'ri o'qish sifatlari: to'g'ri tez, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.
2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga o'rgatish, ya'ni kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonalarini yetishtirish.
3. O'quvchilarni tevarak – atrof, borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning nutqini va tafakkurini o'stirish.
6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Bu vazifalarni bajarishning aniq yo'li, yaxshi o'qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo'llaridir. Yaxshi o'qish malakalarining sifatlari to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi va ular o'qish darslarida o'zaro bog'liq holda takomillashtiriladi, bu to'rt o'qish sifati bir – biri bilan uzviy bog'liq.

Ongli o'qish yaxshi o'qish malakalarining asosiysi hisoblanadi, chunki o'quvchi tez qisqa – o'qiganini anglamasa, bunday o'qish talabga javob bermaydi, o'qiganinitushunmaslikka olib keladi. To'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. Tez, to'g'ri, ongli o'qish ifodali o'qishning asosi hisoblanadi. Yaxshi o'qish sifatlarini egallash maktabda barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning sharti hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'g'ri talaffuz bilan matn ma'nosini puxta sintez qilishda qiynaladilar. O'qish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o'qitish bilan birga amalga oshirish zarur.

O'qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra chiqadi:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta talaffuz qilishga harakat qiladi. va ma'nosini e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'zlar ko'p bo'ginli (murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni o'qishda), ya'ni sozning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadilar.

3. To'g'ri o'qish yorug'likka, matn shriftiga, bolaning ko'ruv sezgisiga ham

bog'liq.

To'g'ri o'qisni ta'minlash uchun o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Matnni o'qishdan oldin undagi o'qilishi qiyin, tuzilishi murakkab so'zlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.

2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni aniqlashi.

3. Matnning yaxsh, orta, yomono'qiydigan o'quchilarga o'qitiladigan qismini oldindan belgilab chiqishi.

4. O'qituvchi yoki sinf o'quvchilarining nazorati ostida o'qishni doimiy mashq qildirishi.

O'qituvchi o'qish davonida o'quvchilar xato qilishi mumkin bo'lgan o'rinni belgilab olishi lozim. Xato o'qishni bartaraf etish uchun:

1. Tuzilishi murakkab so'zlarni xat taxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozish, oldino'quvchilarga ularni bo'g'inlab, so'ng sidirg'a o'qishni mashq qildirishi.

2. So'z ma'nolarining sinonimi, antonimini keltirib, yoki gap ichida qo'llab tushuntirishi.

3. Xat cho'pdan foydalanish. Xat cho'p diqqati tarqoq bolaga, ko'ruv sezgisi past o'quvchida juda foydali.

4. Xato o'qishi mumkin bo'lgan o'rindan o'quvchini ham ogohlantirish.

5. Kesma harf va kesma bo‘g‘inlardan foydalanish.

6. To‘g‘ri o‘qish uchun sharoit yaratish.

7. Shivirlab va ichda o‘qishdan foydalanish.

O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan xatolar 2 xil:

1. So‘z ma’nosini noto‘g‘ri anglashga olib keluvchi xatolar. (urg‘uni noto‘g‘ri qo‘yib o‘qish tuifayli)

2. So‘zlarni o‘qib olishga halal beradigan xatolar.

Ongli o‘qish asar mazmunini, asarning g‘oyaviy yo‘nalishini, timsollarini, badiiy vositalarni ro‘lini tushunib o‘qish ongli o‘qish deyiladi.

Bola asarda tasvirlangan voqea hodisalarga munosabat bildirsa, ongli o‘zlashtirgan bo‘ladi.

Ongli o‘qish quyidagi metodik shartlarga bo‘g‘liq:

1. O‘quvchining hayotiy tajribasiga.

2. So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini tushunishiga.

3. Gapda so‘zlarning tushunishiga.

Ongli o‘qish 2 xil ma’noda qo‘llaniladi: **O‘qish texnikasi, O‘qish sifati.**

Asar qurilishini tushunish ongli o‘qishdir. O‘quvchining ongli o‘zlashtirib o‘qigani, uning ifodali o‘qiganidan, asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniqlaniladi. Ongli o‘qish bilan ifodali o‘qish biri – ikkinchisini taqazo etadi. Ifodali o‘qish. Asarni uning g‘oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda o‘qish, asar jozibasini ifodalab, ravon, aniq, to‘g‘ri o‘qish ifodali o‘qish deyiladi.

Ifodali o‘qish adabiyotni aniq va ko‘rgazmali o‘qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O‘qituvchi, ifodali o‘qish orqali asar mazmunini va emotsionalgini o‘quvchilarga ko‘rgazmali ravishda yetkazadi.

Intonatsiya – urg‘u, temp, ritm, to‘xtam, ovozning baland – pastligining yig‘indisi. Bular og‘zaki nutq elementlaridir. Bu orqali qahramonlarning turli kayfiyatlari, ichki kechinmalri ifoda etiladi.

Ifodali o‘qishni egallashning asosiy shartlari:

1. Nafasni to‘g‘ri olish va to‘g‘ri sarflash.

2. Tovushlarni aniq talaffuz qilish, burro gapirish.

3. Adabiy talaffuz normalarini egallash. Bular ifodali nutqqa ham taaluqli.

Ifodali o‘qish shartlaridan yana biri ovozning baland – pastligi, yoqimlilik, tinish o‘rnini asar mazmuniga mos holda o‘zgartira olishlik.

Ifodali o‘qishga tayyorlanish shartli ravishda 3 bosqichga bo‘linadi:

1. Qahramonlarning xatti –harakatini tahlil qilish, g‘oyasini belgilash, badiiy vositalarning vazifasini tushunish. Demak, asar tahlili ifodali o‘qishni ta’minlaydi.

2. Pauzaning, urgʻuning oʻrnini, nutq tempini belgilab olish.

3. Oʻqishni mashq qilish.

Avvalo, oʻqituvchiifodali oʻqish namunasini koʻrsatishi zarur. Ifodalilik koʻrgazmalilik demakdir. Oʻqish darslari oʻquvchilar fikrini va nutqini oʻstirish, hamda oʻquvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlar bilan boshqa oʻquv predmetlari orasida alohida oʻrin tutadi. Oʻqish darslari jarayonida oʻquvchilarning oʻqish malakalari nakomillashib, toʻgʻri, ongli vaifodali oʻqish, badiiy asar gʻoyasini tushunish qobiliyatlari oʻsib boradi.

“Oʻqish kitobi”dagi turli janrlarga xos boʻlgan badiiy asarlarni oʻqish va ular ustida ishlash orqali oʻquvchilarning borliq, voqelik haqidagi tasavvur – tushunchalari kengayadi.

1-sinfda oʻquvchilar ongli, turli va bir meʼyorda boʻgʻinlab oʻqish malakasini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi.

Oʻquvchilar oʻqigan matnlarning mazmunini oʻqituvchining yordamchi savollari asosida hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib, soʻzlab berishga oʻrganib boradilar.

2-sinfda oʻquvchilarda soʻzni butunicha oʻqish malakalari shakllanadi va ongli, toʻgʻri, ifodali oʻqishga intilish yaqqol seziladi. Oʻqish tezligi ortadi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay mustaqil oʻqiy boshlaydilar. Oʻqituvchi rahbarligida oʻqilgan matndagi asosiy fikrni aniqlaydilar, undagi ayrim voqea – hodisalarni soʻz bilan tasvirlashga oʻrganadilar.

Oʻqish va matnni savollar asosida hikoyalashda oʻquvchilar nutqining toʻgʻri va aniq boʻlishiga, nutqda soʻzlardan oʻrinli foydalanishlarga eʼtibor beriladi.

3-sinfda oʻquvchilar soʻzlarni butunicha oʻqish malakalarini toʻla egallab, ongli va ifodali oʻqishga koʻproq eʼtibor beradilar. Oʻqilgan matn mazmunini mulohaza qilish, voqealar yoʻnalishini aniqlash qobiliyatiga ega boʻladilar. Bu sinfda oʻqilgan asarning badiiy – tasviriy xususiyatlari ustida ishlash davom ettiriladi.

3– sinf oʻquvchilariga oʻzaro fikr olishuv jarayonida xalq maqollari va obrazli ifodalardan oʻrinli foydalanish, adabiy talaffuz normalariga rioya qilishga oʻrgatiladi.

4–sinfda oʻquvchilar matndagi soʻzlarni butunicha maʼnosiga tushunib toʻgʻri oʻqish malakalarini toʻla egallaydilar. Oʻqiganlari mazmunini qayta hikoyalash, matnni qismlarga boʻlish va soda reja tuzish vazifalarini bajara oladilar.

O'qish va gapirish jarayonida o'quvchilarning abadiy normalariga rioya qilishlari talab qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yuqorida belgilangan talablar asosida o'z ishlarini natijasini nazorat qilib borishi kerak. O'qish darslarida darsning asosiy qismini o'quvchilarning o'qishiga ajratish lozim. O'quvchilar turli xildagi aniq topshiriqlar asosida bir necha marta o'qitiladi va o'qish mas'uliyatlari orttiriladi.

Boshlang'ich o'qish malakalarini (to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishni takomillashtirish) bolalarni o'qigan asarlarining adabiy – estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularni tasvirlangan voqea – hodisalar mag'zini chaqish, muayyan xulosalar chiqarishga tayyorlash;

Bolalarda yuksak axloqiy sifatlarni va nafosat tuyg'usini tarbiyalash;

O'quvchilarni matn ustida ishlash o'rgatish;

O'quvchilarning atrof – muhit haqidagi bilimlarini boyitish.

Bu vazifalar dasturda berilgan badiiy, ilmiy – ommabop asarlar, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida amalga oshiriladi. Har bir sinf o'qish dasturi quyidagi bilimlarni o'z ichiga oladi;

Matn ustida ishlashning eng ko'p qo'llaniladigan usullaridan biri o'quvchilarning ichida o'qishidir.

U yoki bu adabiy asar namunasi yoki ilmiy – ommabop maqolalar o'quvchilarga ichida o'qish uchun topshirishda o'qituvchi matnni o'qitishdan ko'zlangan maqsadga qarab quyidagi topshiriqlarni berishi mumkin. Ifodali o'qishni;

1. O'qituvchi tomonidan topshirilgan badiiy asar namunasi yoki ilmiy – ommabop maqolalarni ichda o'qib, matn oxirida berilgan yoki oldindan tayyorlab doskada yozib qo'yilgan savollarga javob berish.

2. Matnni ichda o'qib, tushunilmaydigan o'rinlarni, so'z va iboralarni aniqlab chiqish va shular yuzasidan savollar berish.

3. O'qilganning mazmuni yuzasidan, qanday rasmlar chizish mumkinligini aniqlash maqsadida ichda o'qish.

4. O'qituvchining topshirig'i yoki savoliga javob topish maqsadida ichda o'qish.

Matn ustida ishlashga o'rgatishda: so'z ma'nolarini tushuntira olish, o'qilganda ishtirok etuvchilarni tasvirlashi uchun matndan obrazli so'zlarni topa bilish, o'qilgan asar namunasi qatnashuvchi shaxs haqida hikoya qilish uchun material tanlash kabi ishlar bajartiriladi.

O'qilgan matnni muhokama qilishda suhbat uchun ko'p vaqt sarf qilib, o'qilganining g'oyasidan bola fikrini uzoqlashtirib, chalg'itmaslik zarur.

Badiiy asar namunalarini o'qish orqaligina uni har tomonlama o'rganiladi. Shunga ko'ra, o'qish va nutq o'stirish darsining asosiy qismini berilgan matnni bolaga o'qitishni tashkil etishi lozim.

O'qish, berilgan matn mazmuni bilan tanishish va o'quvchining fikri, nutqi har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

Matn ustida ishlaganda uning hajmi va xarakteriga qaraladi. Hajmi kichik, tushunilishi oson matnlarni o'qishdan so'ng tahlil qilishga kirishiladi. Lekin hajmi katta bo'lsa, avval o'qilganining mazmunini o'zlashtirishga oid reja tuzish, qayta hikoya qilish lozim bo'ladi.

O'qilgan matn mazmunini tahlil qilishda o'qilganining mazmuni asosida savol tarzida reja tuzish va shu tuzilgan reja asosida qayta hikoya qilish ham o'qish va nutq o'stirish mashg'ulotlarining eng muhim etaplardan biri sanaladi.

Matn ustida ishlashda ko'zda tutilgan asosiy maqsad o'quvchilarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash, ularning axloqiy va estetik tuyg'ularini takomillashtirishdir.

Matn ustida ishlashda suhbat asosiy rol o'ynaydi. Suhbat o'qituvchi belgilab, kelgan savollar asosida o'tkaziladi.

Tabiiyki, to'g'ri o'qish malakasini hosil qilish uchun quyidagi ish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. Ko'p bo'g'inli va talaffuzi qiyin so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, so'ng o'qish.

2. Tanish matnlarni qayta o'qitish, o'qish sur'atini asta – sekin oshirib borishi orqali notanish matnlarni ham tutilmay o'qish iqtidoriga ega qilinadi.

3. To'g'ri o'qishni ta'minlashda tovush, bo'g'in va so'zlarni to'g'ri, aniq talaffuz etish katta ahamiyat kasb etadi. Aytishda "p" yozilishda "b" yoziladigan so'zlarni to'g'ri o'qishga o'rgatish (kitob, serob) r tovushini o'rniga ya, y deb (bayroq – bayloq, o'rtoq – o'ytoq) talaffuz etishlariga yo'l qo'ymasligi lozim.

4. Tez aytish usulidan foydalanish o'qish malakasini takomillashtirishning eng qulay vositalaridan biri hisoblanadi. Tez aytishda avval soz va jumlarlar sekin, aniq aytiladi, yod olinadi so'ng, asta – sekin talaffuz qilish sur'ati tezlashtiriladi, dastlab o'qituvchi tez aytishni bolalar bilan birgalikda bir – ikki marta aytadi. So'ng o'zlariga takrorlatadi.

5. To'g'ri o'qish malakasini hosil qilishda o'quvchilarning o'qishlariga aslo yo'l qo'ymaslik lozim. Aks holda, o'quvchi o'rtog'ining o'qiganlarini yodaki takrorlashga odatlanib, o'qilayotgan asar mazmunini tushunmay qoladi.

O'qish darslarida o'quvchilarni to'g'ri o'qish malakalarini rivojlantirishda guruhlarda ishlash katta samara beradi. Bunda biror matnni tanlab u yuzasidan har bir guruhga turli topshiriqlarni turli fanlar bilan bog'lagan holda berish,

ya'ni integratsiyalash orqali o'quvchilarda to'g'ri ongli o'qish bilan birga, shu matn orqali boshqa fanlardan olgan bilimlari mustahkamlanib, o'quvchida fanlarni integratsiyalashga va ayniqsa, o'qish savodxonligimavzulari bilan o'qish fanini bo'g'kash katta qiziqish va ishtiyoq uyg'otadi.

Masalan; biror mavzu yuzasidan ijodiy mehnat usulini qo'llash, bunga ijodiy " 1- aprel kulgi kuni" mavzusini olamiz. Bu mavzu yuzasidan turli guruhchalarga turli topshiriqlar beramiz.

Bunday ijodiy mehnat usuli asosida bir mavzu bo'yicha

1-guruhchaning kichik hikoya yozishi bilan ona tilidagi;

2-guruhchaning rasm chzishi – tasviriy san'at, tabianshunoslik darsiga;

3- guruh applikasiya yasashi – mehnat darsiga;

4- guruhchaning qo'shiq kuylashi – musiqaga;

5- guruhchaning maqol, hadis, hikmatli so'zlar aytishi – odobnomaga;

6 – guruhcha sahna ko'rinishi namoyish etishi uni ijodkorlikka undashi asosida fanlar aro bog'liqlikni yuzaga keltiradi. O'qish savodxonligidarslarida "Son" mavzusi bilan bog'liq klaster usulini qo'llash asosida bola o'zi integratsiyani ko'rsatib o'tishi ham mumkin.

3.3 Matn ustida ishlash va nutq o'stirish

Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda.

XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish-bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar o'qish savodxonligi ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi.

Bayon qilish metodi o'qish savodxonligi darslarida qo'llangan asosiy metodlardan biri bo'lgan. Bunda o'qituvchi bayon qilishdan oldin o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o'quvchilarni o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo'lishga undagan. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan bayon qilib bergan. Bunda o'qituvchi zimmasiga o'rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o'rinlarini aniq, lo'nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan. Boshlang'ich sinflarda bayon qilish metodi o'quvchilarning yoshi va eslab qolish holatidan kelib chiqqan holda 3-5

daqiqaga mo'ljallangan. Bayon qilish metodini qo'llash holatlari hozir ham uchraydi.

Suhbat metodi boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi savol-javob metodi deb ham yuritilgan. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi.

Boshlang'ich sinflarda suhbat metodining muammoli o'qitish metodi sifatida qo'llanilishi ta'limda o'quvchilarni faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Muammoli o'qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894-yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarning bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi.

Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda muammoli o'qitish metodi yarim izlanishli muammoli metod deb ham yuritiladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksik-semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qo'llash mumkin. Bu metoddan 1-sinfdan boshlab foydalanish mumkin. Bu metod "Tovush va harf" mavzusini o'rganayotganda tovushning so'z ma'nosini farqlashdagi vazifasini tushuntirishda, "So'z ma'nosi", "Nutq va gap" mavzularini o'rganishda ham qo'llanadi. Masalan, "So'z ma'nosi" mavzusini o'rganish uchun xat taxtaga turli ma'nodagi, ya'ni turli so'z turkumiga kiradigan so'zlar aralash holda yozib qo'yiladi.

So'zlar: kitob, qurdi, shifokor, sakkiz, qizil, qalam, o'qidi, yashil, binokor, o'nta, o'qituvchi, sakkiz.

O'quvchilar bilan quyidagicha savol-javob tashkil qilinadi:

So'zlarni o'qing.

- Birinchi so'z nimani bildiriyapti? Narsanimi, shaxsnimi?

- Bu so'zga qanday so'roq beramiz?

Ikkinchi so'z harakatni bildiriyaptimi yoki narsanimi?

- Bu soʻzga qaysi soʻroqni beramiz?
- Qaysi soʻzlar sanoqni bildiriyapti?
- Bu soʻzlarga qaysi soʻroqni beramiz?

Qaysi soʻzlar rangni bildiriyapti?

- Bu soʻzga qaysi soʻroqni beramiz?

Soʻzlar ichidan shaxsni (kasb egasini) bildirayotgan soʻzlarni topib, bir ustun qilib yozing.

- Ikkinchi ustunga narsani bildirgan soʻzlarni topib yozing.
- Uchinchi ustunga harakatni bildirgan soʻzlarni topib yozing va hokazo.

Oʻquvchilar topshiriqni oʻqituvchi yordamida bajarib boʻlgach, muammoli savol oʻrtaga tashlanadi:

Yuqoridagi soʻzlar nimasiga koʻra farqlanyapti?

Oʻquvchilar “maʼnosiga koʻra” degan fikrni ayta olmasalar, oʻqituvchi bu muammoni hal qiladi:

Bu soʻzlar maʼnosiga koʻra va soʻroqlariga koʻra farq qiladi. Oʻylang, soʻzlarni qaysi xususiyatlariga koʻra guruhlariga ajratamiz? Soʻzlarni nechta guruhga ajratish mumkin?

Savol-javoblardan koʻrinib turibdiki, oʻquvchilar bilan suhbat rivojlantirilib borilyapti va oʻquvchilar suhbat davomida yangi-yangi maʼlumotlarni egallab bormoqdalar. 3-4-sinflarga oʻtganda bunday suhbatlar oxirida oʻquvchilarning oʻzlari xulosa chiqaradilar. Bunday suhbatlarda oʻquvchilarning yoshi, saviyasidan tashqari, vaqt ham hisobga olinadi. Suhbat uzoq davom etsa, oʻquvchilar charchab qoladilar, oʻzlashtirish darajasi ham susayadi.

Boshlangʻich sinf oʻqish savodxonligidarslarida mustaqil ish metodi asosan oʻrganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qoʻllaniladi. Oʻquvchilar oʻqituvchining topshirigʻi bilan mustaqil ishlarni ogʻzaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va koʻp vaqtni olmasligi, oʻquvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida tamjariishga moʻljallangan boʻlishi kerak. Mustaqil ishlash uchun topshiriq 1-sintdan boshlab beriladi va u asta-sekin marakkablashtirilib boriladi.

1-sinfda “Yozgan soʻzlaringizni lugʻatdan tekshiring “Rasmga qarab sabzavot nomlarini alifbo tartibida yozing”, “Rasmni kuzating” Unda tasvirlangan narsalarni aniqlang va ularning nomini yozing kabi topshiriqlar beriladi. Masalan, 88-mashqda “Oʻlkamda bahor” mavzusida sujetli rasm berilgan. Oʻquvchilar rasmni kuzatib narsa nomlarini yozadilar. Bunda bir oʻquvchi 5 ta, ikkinchi oʻquvchi Ota va hokazo soʻz yozishi mumkin. Aslida rasmda

Otadan ortiq narsa tasvirlangan: tog‘, osmon, bulut, qor, terak, tol, o‘rik, ko‘ylak shirt, tufli, lenta, soch, bosh, qir, dala, o‘t, gul, qo‘l, oyoq, quloq, burun, yuz, og‘iz, barmoq, bo‘yin, qorin, yubka, jemper daraxt va hokazo. Bu o‘quvchilarning e‘tibor bilan kuzatishga yatuvchanlikka o‘rgatadi.

Analiz-sintez metodi savod o‘rgatish darslariga rus-tuzem maktablari va tatar o‘qituvchilarining faoliyati orqali kirib kelgan. O‘qish savodxonligita’limi jarayoniga analiz - tahlil grammatik hodisaning muhim belgilarini aniqlash maqsadida, o‘rganilgan grammatik tushunchaning yangi qirralarini ochish va mustahkamlash maqsadida tatbiq etiladi. Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik tahlil shu metodning amalda namoyon bo‘lishidir. Sintez qismlarga bo‘lib o‘rganilgan grammatik materialni yaxlitlashdir. Masalan, ot, sifat, fe‘l, son kabi so‘z turkumlari o‘rganilayotganda ularga oid so‘zlar berilib, ular ishtirokida gap tuzish, aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish, aralash berilgan gaplarni voqealar rivoji asosida tartiblashtirib matn tuzish, mazmunan tahlil qilingan rasm asosida hikoyacha tuzish kabi ishlarda sintez metodi namoyon bo‘ladi. Analiz-sintez metodida ham o‘quvchilarni faollashtirish o‘qituvchining o‘quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga, ishni tashkil etish shakllariga bog‘liq bo‘ladi.

Induksiya metodida o‘quvchilar o‘qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta’riflar keltirib chiqaradi.

Deduksiya metodida o‘quvchi tayyor qoida - ta’rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi.

Bu metodlarning samarasi o‘qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo‘naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o‘quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug‘atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog‘liq bo‘ladi.

3.4 O‘qish savodxonligi darslarida nutq o‘stirish jarayonida matnlarning janriy xususiyatlarini hisobga olish.

O‘qish savodxonligi darslarida nutq o‘stirish jarayonida matnlarning janriy xususiyatlarini hisobga olish juda muhim. Matnlarning janriy xususiyatlarini tushunish va ulardan foydalanish, o‘quvchilarning matnlarni to‘g‘ri tushunishiga, ma’lumotni samarali qabul qilishiga va nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Har bir matn turi o‘ziga xos tuzilma, tili, maqsadi va auditoriyasiga ega bo‘lib, o‘qish savodxonligi va nutq o‘stirish jarayoniga ta’sir qiladi.

O‘qish savodxonligi darslarida matn janrlarini hisobga olish o‘quvchilarga matnni tushunishda yordam beradi va o‘z fikrlarini aniq, samarali va to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Har bir janrning o‘ziga xos qoidalari va tuzilmalari mavjud, shuning uchun o‘qish savodxonligini rivojlantirishda bu jihatlarni e‘tiborga olish zarur.

Matn janrlariga misollar va ularning nutq o‘stirishda roli

1. Narrativ (hikoya) matnlar

Hikoya yoki voqea bayoni, asosan vaqt ketma-ketligi va holatlar asosida tuzilgan bo‘ladi. Hikoyalar odatda boshidan oxirigacha davom etadigan voqealarni yoki personajlarni tasvirlaydi.

Nutq o‘stirishdagi roli: Hikoya matnlarida o‘quvchilarni mavzu bilan tanishtirish, personajlar va voqea rivojlanishini izohlash uchun samarali foydalanish mumkin. Bu o‘quvchilarga nutqni aniqlik bilan tashkil qilishni o‘rgatadi, chunki hikoya strukturasida (kirish, rivojlanish, xulosa) o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Tajriba: O‘quvchilarga hikoya yozishni yoki hikoya qilishni o‘rgatish, nutqni bayon qilish va voqealarni aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Informatsion matnlar. Bu turdagi matnlar ma‘lumotni taqdim etishga qaratilgan bo‘lib, faktlar, statistikalar, ma‘lumotlar va tushuntirishlar kiritilgan bo‘ladi.

Nutq o‘stirishdagi roli: O‘quvchilarga aniq va aniq ma‘lumotlarni taqdim etish, asosli fikrlarni shakllantirish va o‘z fikrlarini tahlil qilishga yordam beradi. Informatsion matnlarni o‘qish va tushunish orqali nutqchi aniq va lo‘nda ifoda qilishni o‘rganadi.

Tajriba: O‘quvchilarga informatsion matnlar asosida ma‘lumotlar taqdim etish va ularni to‘g‘ri tahlil qilishni o‘rgatish, nutqni to‘g‘ri tuzish va maqsadli auditoriyaga ma‘lumot yetkazishda yordam beradi.

3. Argumantativ (daliliy) matnlar. Bu matnlar fikrni yoki nuqtai nazarni asoslash uchun dalillar, faktlar va argumentlarni keltiradi. Ular o‘zgarishlar va qarorlar qabul qilish uchun ishlatiladi.

Nutq o‘stirishdagi roli: Argumantativ matnlar orqali o‘quvchilarni fikrlarini asoslash, dalillarni taqdim etish va qarorlar qabul qilishga undash mumkin. Bu nutqchi uchun muhim san‘at — argumentlarni to‘g‘ri joylashtirish, mantiqiy va aniq fikrlar qurish.

Tajriba: O‘quvchilarga argumentlarni keltirish, dalil va qarorlarni asoslashni o‘rgatish, mantiqiy tahlil qilish va to‘g‘ri fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. Tasviriyl matnlar. Bu matnlar tabiiy va ijtimoiy holatlar, joylar, ob'ektlar yoki odamlarni tasvirlashga qaratilgan. Bunday matnlarda ta'sirchan, rang-barang tasvirlar mavjud.

Nutq o'stirishdagi roli: Tasviriyl matnlar nutqni boyitadi, ijodkorlikni rivojlantiradi va o'quvchilarga o'z fikrlarini rang-barang va tasviriyl tarzda ifodalash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, adabiy matnlarni o'qishda nutqni rivojlantirish uchun muhimdir.

Tajriba: O'quvchilarga tasviriyl matnlarni yozishni o'rgatish, ularni ijodiy fikr yuritishga undaydi va o'z tasavvurlarini ifodalashga yordam beradi.

5. Ko'rsatmalik (instruktsiya) matnlar. Bu matnlar biror jarayonni yoki ishni qanday bajarishni ko'rsatadi. Bunday matnlar ko'pincha qadam-baqadam yo'riqnomalar yoki amaliyot uchun mo'ljallangan.

Nutq o'stirishdagi roli: Ko'rsatmalik matnlar orqali o'quvchilarni aniq va lo'nda ifodali nutqni shakllantirishga o'rgatish mumkin. Bu matnlar o'quvchilarga nutqda aniq vazifalarni bajarishni, amaliyotdagi nutqni tuzish va tushunishni o'rgatadi.

Tajriba: O'quvchilarga amaliy ko'rsatmalarni yozishni o'rgatish, ular bilan ishlash orqali o'z nutqlarini to'g'ri va samarali tashkil qilishni o'rgatadi.

Matn janrlarining nutq o'stirishga ta'siri. Matn janrlarini hisobga olish orqali o'qish savodxonligi darslari yanada samarali bo'ladi. Har bir matn janri o'quvchilarga turli xil nutq shakllarini o'rganishga yordam beradi:

Narrativ matnlar o'quvchilarni voqealarni izohlash va bayon qilishda yordam beradi. hikoya, lat. narrare "aytib bermoq, hikoya qilmoq") o'quvchi yoki tinglovchiga so'zlar yoki obrazlar ketma-ketligi ko'rinishida taqdim etilgan, o'zaro bog'langan voqealarning ma'lum bir to'plami haqida mustaqil ravishda yaratilgan hikoyadir.

Informatsion matnlar o'quvchilarga ma'lumotlarni taqdim etishda va tahlil qilishda yordam beradi. Axborot matni uchinchi shaxs tomonidan yozilgan maqola bo'lib, unda muallif o'z nuqtai nazarini bildirmaydi, balki tasdiqlangan faktlarga asoslangan ma'lumotlarni taqdim etadi. Uni o'qib bo'lgach, o'quvchi qiziqtirgan masala bo'yicha aniq ma'lumot olishi kerak

Argumentativ matnlar o'quvchilarga o'z fikrlarini ishonchli asoslash va dalillar keltirishni o'rgatadi. Argumentativ matn bilimning aqliy maydoniga ishora qiladi va eski bilimdan yangi bilimga sakrashni ta'minlash uchun mo'ljallangan; argumentatsiya inson qaror qabul qilishi kerak bo'lgan holatda zarur, ya'ni mavjud imkoniyatlardan tanlash holatini nazarda tutadi

Tasviriyl matnlar o'quvchilarga ijodiy ifodalanishni va tasvirlashni o'rgatadi. Tasvirlovchimatnda shaxs, ob'ekt yoki hodisaning xususiyatlari

haqida soʻz boradi. Butun matn qaysi obʼekt degan savolga javob berganga oʻxshaydi. Tasvirlovchi matn statik rasm yoki fotosuratga oʻxshaydi. Natijada tasvirlovchi matnda ot va sifatlar ustunlik qiladi, feʼllar esa fonga oʻtadi.

Koʻrsatmalik matnlar oʻquvchilarga aniq va loʻnda nutqni shakllantirishni oʻrgatadi. Koʻrsatmalilik – didaktikaning oltin qoidasi, deyiladi. Har doim oʻqituvchi darsdan kamida bir kun avval koʻrsatmali materiallarni oʻtayotgan fani uchun ajratilgan xonaga hozirlab vidoproekda ekranga chiqarib, koʻrsatib qoʻyilishi yoki turli mavzuga oid harita, tarqatma materiallar, turli xil predmetlar, rasmlar, oʻyinchoqlar va boshqa materiallarni tayyorlash maqul. Koʻrsatmalilik taʼlim printsiplariga ham kiritilib, har bir predmet darsida oʻqituvchi tomonidan qoʻllaniladi. Bilimning birinchi pogʻonasi jonli mushohada, yaʼni tevarak atrofdagi narsalar va xodisalarni idrok etishdir. Koʻrsatmalilik prinsipi idrok etishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyot bilan bogʻlash imkonini beradi. Bu printsipt oʻrganilayotgan xodisalarga qiziqishni oshiradi, bilimlarni puxtarok egallashlariga koʻmaklashadi

Matnlarning janriy xususiyatlarini hisobga olish oʻqish savodxonligi va nutq oʻstirish jarayonida oʻquvchilarning nutqni aniq, loʻnda va samarali ifodalashlariga yordam beradi. Har bir matn turi oʻziga xos maqsad, tuzilma va ifodalash usullarini talab qiladi, bu esa oʻquvchilarga turli xil fikrlarni samarali tarzda ifodalashni oʻrgatadi.

Yoʻl-yoʻlakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi oʻquvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi. Soʻnggi yillar davomida taʼlim tizimiga anʼanaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan oʻqish savodxonligitaʼlimi jarayonida foydalanish boʻyicha yutuqlar qoʻlga kiritildi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Kichik yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishida eng muhim xususiyatlar nimalardan iborat?

2. Bolalar nutqini oʻstirishda qanday pedagogik vazifalar amalga oshiriladi?

3. Nutqni rivojlantirish uchun qanday metodlar samarali hisoblanadi?

4. Kichik yoshdagi bolalar uchun nutq oʻstirishda foydalaniladigan asosiy vositalar nimalar?

5. Nutqni rivojlantirish jarayonida oilaning roli qanday va ular qanday yordam koʻrsatishlari mumkin?

Mavzuni mustahkamlovchi testlar

1. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning asosiy xususiyati nimada?

- A) Bolalar nutqining grammatik jihatdan to‘g‘riligi ustuvor ahamiyat kasb etadi
- B) Nutq o‘stirish jarayoni asosan tabiiy va o‘yin shaklida olib boriladi
- C) Bolalar avval yozma nutqni o‘zlashtirishi kerak
- D) Nutq faqat o‘qituvchi tomonidan shakllantiriladi

To‘g‘ri javob: B) Nutq o‘stirish jarayoni asosan tabiiy va o‘yin shaklida olib boriladi

2. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning asosiy vazifalaridan biri nima?

- A) Bolalarni mustaqil ravishda grammatik analiz qilishga o‘rgatish
- B) Ularni kitob yozishga tayyorlash
- C) Lug‘at boyligini kengaytirish va to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish
- D) Faqat yozma nutqni shakllantirish

To‘g‘ri javob: C) Lug‘at boyligini kengaytirish va to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish

3. Quyidagilardan qaysi biri kichik yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali metodlaridan biri hisoblanadi?

- A) Matnlarni tarjima qilish
- B) O‘yin, muloqot va dramatizatsiya usullari
- C) Faol yozma diktant mashqlari
- D) Faqat yodlash

To‘g‘ri javob: B) O‘yin, muloqot va dramatizatsiya usullari

4. Kichik yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri nima?

- A) Shaxsiy daftar va yozma testlar
- B) Audio va vizual materiallar, badiiy adabiyot, multfilmlar
- C) Faqat ilmiy maqolalar
- D) Faqat grammatik qoidalar

To‘g‘ri javob: B) Audio va vizual materiallar, badiiy adabiyot, multfilmlar

5. Kichik yoshdagi bolalar bilan nutq mashg‘ulotlarini olib borishda eng muhim omil nima?

- A) Rasmiy va qat’iy qoidalar asosida mashg‘ulot o‘tkazish
- B) Bolalar bilan jonli muloqot, doimiy rag‘batlantirish va o‘yinga asoslangan yondashuv

C) Faqat nutqiy xatolarni to'g'rilash

D) O'zlashtirish darajasidan qat'i nazar, barcha bolalarga bir xil yondashish

To'g'ri javob: B) Bolalar bilan jonli muloqot, doimiy rag'batlantirish va o'yinga asoslangan yondashuv

4-MAVZU. NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARINING TARBIYAVIY VA EMOTSIONAL XUSUSIYATI.

Tayanch so'zlar: *nutq, nutq o'stirish, metod va usullar, so'z boyligini oshirish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, bola tarbiyasi, hissiy intellekt, pedagogik usullar, bolalar psixologiyasi, oila roli, o'qituvchi va ota-onalar bola, sog'lom, shakllanishi, o'qish, intilish hissi.*

4.1. Nutq faoliyatining mazmuni, tilning tuzilishi, shuningdek, mashg'ulotlarni tashkil etish usullarining bolalar tarbiyasiga ta'siri.

Bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, psixologik jihatdan muhim bir jarayon bo'lib, har bir bola o'z atrofidagi odamlar bilan munosabatlar o'rnatishni, o'z hissiyotlarini to'g'ri ifodalashni va boshqalar hissiyotlarini tushunishni o'rganishi lozim. Bu rivojlanish, bolaning o'zligini anglashga, ichki dunyosini boshqarishga va dunyoga nisbatan chuqurroq va hissiyroq munosabatda bo'lishiga yordam beradi. Shu bilan birga, empatiya – boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga nisbatan mehr-muhabbat ko'rsatish ko'nikmalari rivojlanadi.

Bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi faqat uning o'z hissiyotlarini anglashdan iborat emas, balki boshqalar bilan muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini sezish va ularga moslashish kabi muhim fazalarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon bolaning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan hurmatni kuchaytiradi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanishning har bir bosqichi, bolaning psixologik farovonligini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning kelajakda o'zini aniqroq anglashiga, boshqalarga qarshi mehribon bo'lishiga va muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi. Tarbiyachilar, o'qituvchilar va ota-onalar, bolalarning bu rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun o'zaro hurmat va tushunishga asoslangan samarali metodlarni qo'llashlari lozim. Faqat shunda, bolaning ijtimoiy-emotsional dunyosi to'liq ravishda shakllanadi,

va ular nafaqat o'zligini anglashda, balki jamiyat bilan uyg'un yashashda ham muvaffaqiyatga erishadilar.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, imonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo o'qituvchi va o'qituvchimurabbiylar zimmasiga sharafligi va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Bolalarning lug'at boyligi, mashg'ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug'atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Qurilishga oid o'yinlarni tashkil etish jarayonida o'qituvchibolalar uchun qiyin bo'lgan so'zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi.

Muloqot vositalari. Boshlang'ich ta'limdabolalar nutqini rivojlantirish murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir. Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-muhit bilan tanishtirish, balki uni umumiy ruhiy rivojlantirish uchun ham zarur. Oilada bola nutqini o'stirishdan maqsad og'zaki nutqni adabiy til me'yorlariga muvofiq holda egallashi, faol nutqqa kirishishini ta'minlashdan iborat. Farzand nutqini shakllantirish va rivojlantirishda ota-ona o'zi oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygani ma'qul: — farzandida so'zlashish odobini tarbiyalash;

- lug'at boyligini shakllantirish, boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;
- nutqni grammatik jihatdan shakllantirish va rivojlantirish;
- ravon nutqni takomillashtirish;
- badiiy asarlar bilan tanishtirish;
- savod o'rganishga tayyorlash.

Muloqot, til va nutq tahlili va rivojlanish asoslari. Tilning rivojlanishi bolalar hayotining har bir jabhasida va ta'limiy muvaffaqiyatlarida eng muhim omildir. 2-5 yoshdagi bolalarning tahminan 6 % til rivojlanishi bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Tilning yetarlicha shakllanmaganligi bolalarning butun hayoti davomida o'z ta'sirini ko'rsatadi va ular bilish, savodxonlik, ijtimoiy munosabat, diqqat va o'qitish hamda o'rganishga tayyorgarlikda qator

qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan muloqot.

Shuning uchun ham o'z shaxsini erta anglash juda muhim hisoblanadi. Bolalarning ijtimoiy tarbiyasida til o'rganish bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi va bunda bilish darajasi ko'pincha past bo'ladi. Irlandiyada ingliz tilini qo'shimcha til sifatida o'rganayotgan o'quvchilarda ham til va nutq tahlilida yetishmovchiliklar mavjud bo'ladi deb hisoblanadi. Bunday bolalarda tilning rivojlanishi bir-biridan farq qiladi va shuning uchun til tahlili qiyin bo'ladi. Tilning murakkabligi umumiy tahlilni qiyinlashtiradi. Bir qancha tahlil uslublari maktabgacha bo'lgan bolalarning muloqoti va tilini baholashda qulay bo'lishiga qaramay, bu metodlarning ko'pchiligi kelajakda til bilan bog'liq muammoga duch keladiganlarni bashorat qilishda yaxshi natija bermasligi mumkin.

Murakkab tahlil metodlari oddiy tahlil metodlariga qaraganda aniqroq deb hisoblanadi va ular bolalarning turli rivojlanish yo'nalishlariga ko'ra oddiy tahlildan afzalroqdir. Tahlil metodlari tilda ishlatiladigan murakkab uslublarni qisman ta'minlaydi va shu sababli, ayniqsa maktabgacha bo'lgan bolalarda til tahlili bo'yicha ko'proq izlanishni talab etadi.

Boshlang'ich ta'limdabolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda o'qituvchiva ota-onalarning roli benihoya kattadir. Bolalar nutqi ustida ishlash jarayonida:

- a) tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo'lishlariga;
- b) tabiiy ohangda gapirishlariga;
- c) so'zlashganda suhbatdoshining yuziga qarab turishlariga;
- d) qo'llarini bamaylixotir holatda tutib turishiga e'tibor bermoq zarur.

Bizga ma'lumki, til bilan tafakkur o'rtasida uzviy aloqa mavjud, ular bir-birisiz yashamaydi. Manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning so'z boyligini rejali, tarzda izchil kengaytirib borish zarur. Bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun:

a) nutq o'stirishga doir tevarak atrof obyektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish;

b) bolalarning eslab qolishi va to'g'ri talaffuz etishi, so'zlashganda tez-tez foydalanishi, ahamiyatini tushunishi, zarur bo'lgan so'zlarning taxminiy ro'yxatini tuzish lozim. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning faol lug'atini boyitishda ularni tevarak-atrof bilan tanishtirish muhim vosita sanaladi, tadqiqotchi A.M.Borodich shunday deb yozadi: "Bolalarni borliq bilan tanishtirishning ikkita yo'li bor":

1) hissiy organlar bilan tashqi olamni bevosita idrok etish – bolalar predmetlarni kuzatadilar, ushlab ko'radilar, eshitadilar, tatib ko'radilar, u bilan harakat qiladilar;

2) bolalar tevarak-atrofdagilar haqida bevosita ma'lumot oladilar; o'qituvchimehnat kishilari to'g'risida, tabiat bilan bog'liq 30 foiz hayot haqida gapirib beradi, bolalar kuzatgan hodisalarni tushuntiradi, kitob o'qib beradi, rasmlar, diafilmlar, kinofilmlar namoyish etadi. Nutqni o'stirish mashg'ulotlarida, shuningdek, mashg'ulotning boshqa turlarida bolalarga ta'lim berib boriladi. Nutq faoliyatining mazmuni, tilning tuzilishi, shuningdek, mashg'ulotni tashkil etish va uning qay tarzda o'tkazilishi bolalar tarbiyasiga ta'sir etadi. Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni materialning qiziqarli bo'lishi bilangina emas, balki mashg'ulotning ijobiy-emotsional tarzda tashkil etilishi o'stirib boriladi. O'rta guruh yoshidagi bolalar tashabbuskor bo'ladilar, tarbiyachining savollariga javob berishga juda shoshiladilar va buning natijasida xatoga yo'l qo'yadilar: agar o'qituvchibolani maqtasa, undan juda minnatdor bo'ladilar va aksincha, agarda o'qituvchibolaning xulqidan yoki savolga bergan javobidan xursand emasligini aytsa, 95 foizi qattiq xafa bo'ladilar. Bu shuni ko'rsatadiki, o'qituvchijuda sabrli va haqqoniy bo'lishi kerak. O'qituvchibolaning yaxshi javobidan qoniqqani va xursandligini bolalarga namoyon etishi kerak. Shundagina bolada ishtiyoq istagi uyg'onadi.

Nutq qudratli kuchdir; chunki u ishontiradi, da'vat qiladi, hatto majbur etadi. Nutq so'zlashdan maqsad kishini ishontirishdir. O'qituvchijumlalarni qisqa-qisqa tuzib so'zlashi, uzundan-uzoq gaplarni bayon etishdan tiyilishi; so'zlayotganda ovozning goh baland, goh past bo'lib tovlanishiga alohida e'tibor berishi kerak. Busiz jumla qanday ohangda, urg'u, talaffuzda aytilishiga qarab turlicha ma'noni anglatishi mumkin. Kishi o'z nutqining talaffuziga, nutq, so'zlash ohangiga muttasil va qat'iy talabchan bo'lmog'i lozim. Birinchidan, uning ovozi jarangdor, baland, toza, tiniq, yoqimli, yumshoq bo'lishi zarur; ikkinchidan, tomoqni asrash; xastalikning, jumladan, shamollashning oldini olish lozim. Albatta, bularni maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlash muhim ahamiyatga ega. Demak, odamlar o'zining turli-tuman faoliyatlarida – fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatishda nutq orqali aloqada bo'ladilar. Bundan tashqari, nutq orqali aloqaga kirishish jarayonida har bir kishi o'z bilimlarining ko'p qismini boshqa kishilardan til vositasi yordamida oladi. Ta'lim jarayonida to'plangan tajriba va bilimlar til vositasi asosida amalga oshiriladi. Til yordami bilan fikr almashadilar, odamlar mehnat faoliyatlarini tashkil etadilar.

4.2. Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni materialning qiziqarli bo'lishi bilangina emas, balki mashg'ulotning ijobiy-emotsional tarzda tashkil etilishi orqali o'stirish.

Biz shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yashamoqdamiz. O'quvchilarning atrofida turli xil axborot mavjud. Shuning uchun o'quvchilarni darsga qiziqitira olish juda muhimdir. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning o'qishga qiziqishini so'ndirmasligi lozim. Afsuski, yosh mutaxassislar shu xatoga yo'l qo'yadi. O'quvchidagi qiziqishlar quyidagi hollarda so'nib boradi.

Bolada o'qishga qiziqish yo'qolishining sabablari: O'quv materialini o'zlashtirish qiyinligi. Bunga o'sishdan orqada qolish, dars berish saviyasining yomonligi, uy vazifasini bajarishda mavzuning yetarlicha ishlanmaganligi sabab bo'lishi mumkin.

Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish. Bunday qo'rquv o'quvchida uydagi (hadeb tanqid qilaverish, baqirib-chaqirish, jismoniy jazolash) yoki maktabdagi (o'qituvchining baqirib berishi, sinfdoshlarning masxara qilishi) salbiy tajriba tufayli paydo bo'ladi. Natijada, o'quvchining o'z-o'ziga beradigan bahosi pasayib ketadi, u o'zining yaxshi o'qib ketishiga ishonmay qo'yadi.

O'qishdan ongli ravishda bosh tortish. Bunga ota-ona bilan tortishib qolish (bola ota-onasiga qasd qilib o'qimaydi), uydagi yomon muhit (kattalar o'rtasidagi janjallar), uyda kun rejasi va intizom yo'qligi (bolalar o'yinga ko'p chalg'iydi), mustaqillik yetishmasligi (uy vazifasini kattalar bilan birga qilishga o'rganib qolish) sabab bo'lishi mumkin.

Oilada motivatsiya yo'qligi. Bunga yutuqlarning rag'batlantirilmasligi, yomon baholar uchun jazo yoki koyish yo'qligi sabab bo'ladi. Ko'pincha ota-onalar va pedagoglar bolaning yaxshi o'qib ketishiga ishonmasa ham, bola o'qishdan sovib, unga qiziqmay qo'yadi.

Shuningdek, o'qishga qiziqishning yo'qolishiga bolaning yoshi hali kichikligi, unga ortiqcha talab qo'yilishi, ota-ona tomonidan bosim o'tkazilishi, o'qituvchilar yoki o'quvchilar bilan janjallashuvlar ham sabab bo'lishi mumkin.

O'qituvchi yuqoridagi xatolarga yo'l qo'ymasligi zarurdir. O'quvchilarni darsga qiziqitirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirmoq zarurdir. O'quvchilarning o'quv motivatsiyasini quyidagicha oshirishlari mumkin:

- tanlash uchun qisman erkinlik berish;
- ta'limda o'quvchilarning talablari, qiziqish va intilishlarini hisobga olish, ya'ni individual va differensial yondashuv kerak;
- bolaning o'ziga, o'z kuchiga ishonchini oshirish ham ichki motivatsiyani kuchaytiradi;
- o'quvchining yutuqlarini e'tirof etish. Yutuqlarni baholash o'qishning davom etishiga yordam beradi. Masalan, yutuqlar ro'yxati bolaning mustaqil bo'lishida katta o'rin tutadi;

- muvaffaqiyatsizliklar uchun jazolamaslik. Muvaffaqiyatsizlikning o‘zi bir jazodir.

- Qo‘rquv va tanglik o‘quv jarayonini qiyinlashtirib yuboradi.

- Muvaffaqiyatsizliklar motivatsiyani pasaytirib qo‘yadi;

- o‘quvchilar uchun o‘qituvchining shaxsiyati nihoyatda muhimdir;

- o‘quv materialini qiziqarli bo‘lishi uchun uning mazmunini to‘g‘ri yetkazib bera olish;

- o‘qitishning usul va yo‘llarini o‘zgartirib, almashtirib turish;

- imkon qadar darsda har bir o‘quvchiga tez-tez murojaat qilishga intilib, doimiy ravishda — teskari aloqal (aks-sado, jonli muloqot) qilib turish, ya’ni mavzuning tushunarsiz yoki noto‘g‘ri tushunilgan joylarini isloh qilib borish;

- doimiy va maqsadli ravishda anglash qobiliyatini rivojlantirishning asosi bo‘lgan sifatlarni – bolaning reaksiyasini, xotirasini, diqqati va tasavvurini (xayolotini) o‘stirib borish.

Har bir o‘qituvchining asosiy vazifasi – o‘z fanining vositalari yordamida bolani faqat o‘qitish emas, balki uning fikrlashini rivojlantirishdir; barcha imkoniyatlarni ishga solgan holda o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtirish – darsni qiziqarli olib borish, axborotni yetkazib berishning qiziqarli usullarini qo‘llash, o‘z fanini qiziqarli qilish, bolani atrofdagi hayotga qiziqtirishning eng qudratli vositasi – bu o‘yin.

O‘yin orqali motivatsiyalash o‘rta maktab yoshida eng samarali bo‘ladi. Yosh bolalarni boshqarish, kattaroq o‘quvchilarni maqsadga yo‘naltirish osonroqdir. Turli yoshdagi bolalarga mutlaqo turlicha o‘yinlar mos keladi. Bu narsa inson ulg‘ayib borgan sari uning psixikasida shakllanayotgan yangiliklar bilan bog‘liqdir. Kichik yoshdagi bolalarning o‘yinlari chiziqli xarakterga ega bo‘lsa, o‘rta yoshdagi bolalarning o‘yinlari jamoaviy, katta yoshdagilarniki esa shaxsiy amallarda o‘zini yorqin namoyon qilishga qaratilgan bo‘ladi. Katta sinflarda notanish obrazlarni qayta yaratish, voqelikning qiziqarli va g‘ayrioddiy modellari muhim bo‘ladi. Har bir yoshdagi bola o‘yinda o‘z o‘rnini topadi. Umuman, o‘yin jarayoni inson shaxsiyatining, bilimlari va fikrlashining shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatadi;

- barcha o‘quvchilarning qo‘lidan keladigan vazifalarni bajarish orqali muvaffaqiyat vaziyatini yuzaga keltirish, yangi mavzularni avval o‘zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda o‘rganish;

- darsda do‘stona, ishonch va hamjihatlikka asoslangan muhit yaratish orqali, o‘qituvchining yorqin va emotsional nutqi orqali ijobiy emotsional kayfiyat hosil qilish;

- o'quvchining o'z-o'zini va boshqalarni baholashi, faoliyat natijasini baholash, ko'p variantli (masalan, —Bu mashq nima uchun qiyin bo'ldi?!, —Bu darsda nimani bildik, nimani o'rgandik? va hokazo) savollar orqali refleksiyaga erishish;

- muammolarni, ziddiyatlarni birgalikda hal qilish, evristik suhbat, o'quv munozaralari, jismlarning muhim belgilarini ajratish, tasniflash, umumlashtirish va modellash orqali darsda hamkorlikka erishish;

- baholar qo'yish, tashakkur aytish, og'zaki rag'batlantirish, eng yaxshi ishlar ko'rgazmasini tashkil qilish, o'qituvchi tomonidan kichik yordam ko'rsatish, vazifalarni murakkablashtirish orqali o'quvchilarning faoliyatini rag'batlantirish;

- entuziazm, optimizm muhitini yaratish, bolaning o'z qobiliyat va imkoniyatlariga ishonchini oshirish;

- yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish;

- har bir bolaning shaxsiyatini hurmat qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini oshirish uchun motivatsiya uyg'otish uchun ustozning tabassumi ham yetarlidir.

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko'maklashadi.

O'quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o'ziga xos uzoq yo'lga ega bo'lishi mumkin. Ayrim o'quv-harakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o'qishning etakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta'sir etadi.

Bilishga qiziqishning ijtimoiy motivlar bilan o'zaro aloqasi jiddiy bo'lib, ular orasida o'qituvchi va o'quvchilar bilan muloqot alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy motivlar keng, uzoqlashgan, istiqbolli, ularning lisoniy ifodasi boshlang'ich sinflardayoq paydo bo'ladi.

Axloqiy motivlar — juda muhim guruh, ularda Shaxs shakllanishining jiddiy jihatlari — avvalo odamlarga, faoliyatga, o'zining jamiyatdagi va jamoadagi o'rniga nisbatan axloqiy munosabatlari ifodasini topadi.

Muloqot motivlari — yana bir guruh. O'quvchilarni o'qishga real undaydi. Umuman maktabga ijobiy munosabat zahirida yotadi.

O‘quv motivlari – sof shaxsiy tuzilma, biroq ular predmetlar dunyosidan boshlanadi (A.N.Leontoev), shunchaki hosil bo‘lmaydi.

Bilish motivlari – tobora xarakterli guruh, zero u bilish – o‘quv predmetiga nisbatan munosabatni ifodalaydi. Bunda tobora ahamiyatlisi bilishga qiziqish va ehtiyojlar sanaladi. O‘quvchiga —yangi narsani bilish, —o‘zini bilimga ilgarilashni ko‘rish, —ilmga sho‘ng‘ish o‘zi qiziqqan fanning nazariy asoslarini tushunish juda qiziq.

Ta’limning bu motivlarining real ahamiyati ortiqcha baholash, qiyin aynan ular o‘quvchilar o‘zini o‘qish uchun —kashf etadil. Bilishga qiziqish o‘quvchining faolligi, ta’limda mustaqilligi asosida yotadi. Maktabga umuman muhabbatni shakllantiradi. Bilishga qiziqish rivojlanishning yanada yuqori bosqichida shaxsining barqaror qirrasi, sifati bo‘lib, ko‘pincha bilish faoliyatiga izchil intilish bilan xarakterlanadi. Bunday ayniqsa, o‘quv materiali mazmunidan kelib chiqadigan rag‘batlash va barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim mazmunining bilishga qiziqishni uyg‘otuvchi, rag‘batlashlariga quyidagilar kiradi: o‘quv materialining yangiligi, bilimlar mazmuniga tarixiy yondoshuv, chetlab o‘tish, zamonaviy fan yutuqlarini ko‘rsatish, bilimlarning amaliy roli, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va o‘qituvchi, o‘quvchilar munosabatlari va boshqalar.

Yuqori mulohazalardan kelib chiqib yosh mutaxassislar o‘z ustilarida ko‘p ishlashlarini tavsiya qilamiz.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarining tarbiyaviy ahamiyati nimada namoyon bo‘ladi?
2. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida emotsional omillar qanday rol o‘ynaydi?
3. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida qanday tarbiyaviy metodlardan foydalaniladi?
4. Emotsional muhitning nutq o‘stirishga ta’siri qanday bo‘ladi?
5. Tarbiyaviy va emotsional yondashuvlar yordamida bolalarda qanday nutqiy ko‘nikmalar shakllanadi?

Mavzuni mustahkamlovchi testlar

1. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarining tarbiyaviy ahamiyati nimada namoyon bo‘ladi?

- A) Faqat bolalarning grammatik bilimlarini oshirishda
- B) Ularni axloqiy qadriyatlar va madaniyatli muloqotga o‘rgatishda
- C) Faqat yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda
- D) Faqat adabiy nutqni rivojlantirishda

To‘g‘ri javob: B) Ularni axloqiy qadriyatlar va madaniyatli muloqotga o‘rgatishda

2. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarining asosiy emosional xususiyati nimada?

- A) Bolalarda ijobiy kayfiyat va muloqotga qiziqish uyg‘otish
- B) Faqat grammatik qoidalarni to‘g‘ri o‘rgatish
- C) Nutq jarayonida rasmiy muhit yaratish
- D) Faqat yozma nutq orqali his-tuyg‘ularni ifodalash

To‘g‘ri javob: A) Bolalarda ijobiy kayfiyat va muloqotga qiziqish uyg‘otish

3. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarning emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun qaysi metod samarali?

- A) Faqat nazariy tushuntirish usuli
- B) O‘yin, ijodiy topshiriqlar va rolli o‘yinlardan foydalanish
- C) Faqat yozma matnlarni yodlash
- D) Sinfda sukut saqlashga urg‘u berish

To‘g‘ri javob: B) O‘yin, ijodiy topshiriqlar va rolli o‘yinlardan foydalanish

4. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolaning shaxsiyati shakllanishiga qanday omillar ta’sir qiladi?

- A) Faqat grammatik qoidalarining mukammal o‘zlashtirilishi
- B) Emotsional muhit, erkin fikr bildirish va muloqotga kirishish imkoniyati
- C) Faqat o‘qituvchining nutqiy ko‘nikmalari
- D) Doimiy takrorlash va matnlarni qayta-qayta yodlash

To‘g‘ri javob: B) Emotsional muhit, erkin fikr bildirish va muloqotga kirishish imkoniyati

5. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolaning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish uchun nima muhim?

- A) Tayyor matnlarni yodlashni talab qilish
- B) Bolalarni erkin ifoda qilishga undash va bahs-munozaralar tashkil etish
- C) Faqat tinglash va eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish
- D) Faqat yozma mashqlar orqali bilim berish

To‘g‘ri javob: B) Bolalarni erkin ifoda qilishga undash va bahs-munozaralar tashkil etish

II MODUL. O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NUTQ O‘STIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA TA’LIMIY ASOSLARI

5-mavzu. O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA ULARNING YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH.

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘qish savodxonligidarslari, og‘zaki va yozma, nutq, psixolingvistika, monolog, dialog, bilingvizm, interferensiya rivojlantirish, kichik maktab yoshdagi bolalar, nutqiy savodxonlik, xususiyatlar, og‘zaki nutq, yozma nutq, audiomatn, lug‘at diktant, rasmlı diktant, darslik, milliy o‘quv dasturi.

5.1 Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan talablar.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish savodxonligidarslarida o‘quvchilarning nutqi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda grammatik mavzularni o‘rganish alohida o‘rin tutadi.

O‘quvchilarni grammatikaga oid til hodisalarini anglash, til elementlari va ularning shakllaridan ongli ravishda foydalanishga o‘rgatish orqali og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, o‘z nutqiga ongli munosabatda bo‘lish hamda nutqni to‘g‘ri shakllantirish ko‘nikmasi tarbiyalanadi. Ma’lumki, o‘qish savodxonligidarslarida o‘quvchilar so‘z bilan ifodalanadigan ko‘pgina tushunchalarni bilib olishga muhtojlik sezadilar. Shu bois tilning grammatik qurilishini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga so‘z ma’nosini tushuntirish, so‘zning ma’nosiga aniqlik kiritish, so‘zni o‘quvchining faol lug‘atiga aylantirishga qaratilgan lug‘at ishlari tashkil etiladi. So‘z ma’nolari gap va matnda aniqlanadi. O‘quvchilar matnni o‘qish jarayonida barcha so‘zlarning

ma'nosiga tushunadi deb bo'lmaydi. Bu holat o'quvchilar yozgan bayon va insholarda ko'zga ayon tashlanadi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligidasturida gap ustida ishlash markaziy planga chiqarilgan. Gap mazmun va grammatik jihatdan bog'langan so'zlardan tashkil topadi. So'zning ma'nosi esa nutq jarayonidagi gapda aniqlanadi. Bog'lanishli nutqqa oid mashqlarga qo'yiladigan talablar gapning qurilish materiali - so'z ustida ishlashga ham taalluqlidir.

O'qish savodxonligi darsliklarida gap ustida ishlash uchun yetarlicha material bor. Bu materiallar asosida o'quvchilar gapni to'g'ri tuzishga o'rgatilishi lozim. Gapning ifoda etilishiga ko'ra gap qurilishi ustida ishlash o'quvchilarning fikrlash, mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi, qobiliyatlarini o'stiradi.

Ma'lumki, o'zbek tili lug'atidagi ko'pgina so'zlar ko'p ma'nolidir. Ularning ma'nolari faqat gap tarkibida aniqlanadi. O'quvchi gapda so'zlarni ma'no jihatdan bog'lash jarayonida yaqin ma'noli va ma'nodosh so'zlarni taqqoslaydi, ulardan birini tanlaydi va aniq xulosaga kelgandan keyingina gapda qo'llaydi.

Gap ustida olib boriladigan mustaqil ishlar o'quvchini sintaktik tahlilga o'rgatadi. O'quvchi turli ma'nodagi so'zlarni muayyan tartibda joylashtirib butun bir gapni tuzadi. Bunda o'qituvchi, avvalo, so'z tanlashga, ularni muayyan tartibda joylashtirish ustida ishlashga e'tibor qaratishi, berilgan bir xil so'zlarning gapda turli o'ringa joylashtirilishi gap mazmuniga ta'sir qilishini o'quvchilarga anglatishi lozim.

Ta'lim jarayonida lug'at ishi matn va gap materiali asosida uyushtiriladi. O'z navbatida, lug'at ishi – so'z ustida ishlash o'quvchini grammatik mashg'ulotga ham tayyorlaydi. O'quvchilarning o'qish savodxonligixazinasidagi so'zlardan nutq faoliyatida foydalana olish, o'z nutqini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalash ko'nikmalarini egallashlari uchun ta'lim jarayoniga mazmunga mos o'qitish usullarini tatbiq etish o'qish savodxonligio'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Boshlang'ich sinflarda so'z ustida ishlash shu bilan xarakterlanadiki, o'quvchilar predmet va hodisalarni ko'proq kuzatishlari, ularning mavjud belgilarini taqqoslab o'xshash va farqli belgilarini aniqlashlari, kuzatgan narsa va hodisalarining nomini o'zlashtirib olishlari, ularni nutqda qo'llashlari uchun tabiatga ekskursiyalar uyushtirilishi, turli ko'rgazmalardan foydalangan holda so'zlarning ma'nosi har xil usullar yordamida tushuntirilishi, ularning yozma ishlarda qo'llanilishi o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, so'z bitta predmetning nomini bildirmaydi, u bir qancha predmetlar guruhini, tasavvur va hodisalarni o'zida umumlashtiradi. Lug'at ustidagi ishlar, o'z navbatida, tushunchalar ustida ishlash hisoblanganligi uchun tahlil, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash kabi aqliy faoliyat usullarini qo'llashni taqozo etadi. Shuning uchun ham so'zlar guruhini tuzish murakkab mantiqiy mashqlardan hisoblanadi.

1-2-sinflarda so'zlarni qaysi ma'noni bildirishi va belgisiga ko'ra guruhlash ishlari olib boriladi. O'quvchilarning lug'at ishidagi asosiy kamchilik shundan iboratki, ular so'zlarni guruhlashda ko'pincha narsa-predmetlarni ularning belgisini aniq bilmasdan o'zlarining taxminicha guruhlaydi. Bu yoshdagi o'quvchilarda tur va jins tushunchalari farqlanmaydi. Ular qushlar guruhini tuzishda qush, musicha so'zlarini, suvda suzuvchilarni guruhlashda baliq, sazan so'zlarini bir guruh deb biladilar. Chunki ular baliq ham, sazan ham suvda suzadi. Qush ham, musicha ham havoda uchadi deb mushohada yuritadi. Keyingi sinflarda uchraydigan bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun "o'zingiz ko'rgan va bilgan qush nomlarini ayting", "o'zingiz bilgan baliq nomlarini ayting", "har bir qushning ovozi ayting" kabi o'quvchilarni o'ylash va izlanishga, tabiatni kuzatishga undovchi suhbatlar tashkil qilinsagina, o'quvchilar so'zlarning ma'nosi gap tarkibida aniqlanishini fahmlay boradilar.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligidarsliklarida berilgan namuna asosida gap tuzish, gap tuzishga doir ijodiy va konstruktiv mashqlar so'zlarning o'rnini aniqlab, gapni shakllantirish o'quvchilarni o'ylashga majbur qiladi.

Alohida berilgan so'zlarni o'z o'rniga qo'yib, qo'shimchalar bilan biriktirib gap tuzdirish kabi konstruktiv mashqlarni bajartirish o'quvchilar nutqida kam qo'llanadigan, umuman qo'llanmaydigan so'zlarni ularning nutqiga kiritish, bu so'zlarning ma'nosiga diqqatni tortishi bilan ta'limiy ahamiyat kasb etadi. So'zlarni o'zaro bog'lab, o'z o'rniga qo'yib gap tuzdirish o'quvchilarni bayon va inshoda so'zlarni o'z o'rniga to'g'ri qo'yib fikrini bayon qilishga tayyorlaydi. O'quvchilarga bir xil so'zlardan tuzilgan gaplarning mazmunidagi farqlarni izohlashga o'rgatish gapda so'zlarning o'z o'rnini borligini, so'zlarning tartibini o'zgartirish aytilayotgan fikrning o'zgarishiga olib kelishini fahmlash ko'nikmasini o'stiradi.

Darslikning keyingi bo'limlarida gap, gap tarkibi va mazmuni ustida ishlash orqali nutq o'stirishga yo'naltirilgan topshiriqlar juda kam. Masalan, "tovushlar va harflar" bo'limida "so'z turkumlari" bo'limida bog'lanishli nutqqa doir mashqlardan tashqari 4 ta mashq berilgan. Aslida gapning mazmunini mukammallashtiradigan, tarkibini turli so'z turkumlariga oid so'zlar bilan

boyitadigan mashqlar berish maqsadga muvofiq. Lekin soʻz turkumlari oʻrganilganda chiziq oʻrniga soʻz topib qoʻyish gap tuzish mashqiga kirmaydi.

Oʻqituvchining vazifasi oʻquvchilar yoʻl qoʻygan xatolarni aniqlash va ularning diqqatini yoʻl qoʻyilgan xatolarga tortish, xatosini toʻgʻrilash, fikrning taʼsirchanligini yuzaga keltiruvchi soʻzlarni topa bilish qobiliyatini oʻstirishdir. Oʻqish savodxonligiva oʻqish darslari bu borada katta imkoniyatlarga ega. Oʻqituvchi oʻquvchilarning fikrini bayon qilishda chalkashishlaridan, noaniq javoblaridan, ayrim hodisalarni esdan chiqarishidan, taxminiy javoblaridan qoniqish hosil qilmasligi, aniq shakllantirilgan javob va tushuntirishlarini talab qilishi lozim.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilari narsa va hodisalarni toʻgʻri kuzatishlari va ulardan asosli xulosalar chiqarishi, nima haqda gapirsalar tushuntirish va asoslashni bilishlari talab etiladi.

Oʻqituvchi “nima uchun sen bunday deb oʻylayapsan? Bu nima ekanligini isbotlagin. Nima uchun shunday yozilishini asoslab ber” kabi savollarni har bir darsda qoʻllab turishi keyinchalik yaxshi samara beradi.

Oʻquvchilar grammatik tahlil va yozma ishlarida koʻpincha shoshilib xulosa chiqarishadi. Natijada oʻzlariga zarur boʻlgan tushunchaning mavjud belgilarini unutib xatoga yoʻl qoʻyadilar. Xususan, qaratqich va tushum, oʻrin-payt va chiqish kelishiklarini qoʻllashda yoʻl qoʻygan xatolarini bilimlari yetishmasligi tufayli ongli tarzda izohlab, asoslab bera olmaydilar. Tahlil tartibi oʻquvchilarni fikrini tartib bilan va asoslab berishga oʻrgatadi.

Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarning hayotiy tajribalari kam boʻlgani uchun koʻpincha rasmlardan, ekskursiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Oʻquvchilar rasmlar asosida fikrini izchil ifoda etishga oʻrgatiladi.

Oʻqituvchining savollari asosida oʻquvchilar hikoyaning asosiy qismining mazmunini aniqlashtiradi. Masalan, 4-sinf “ona tili” darsligidagi rasm asosida ertakni davom ettirish topshirigʻi berilgan.

Berilgan tavsiyalar ustidagi ish faoliyatida oʻquvchilar rasmlarni tahlil qilish, savollar tuzish, sarlavha topish orqali ertak syujeti epizodlarining oʻzaro bogʻlanishini, fikrini asoslashni, xulosa chiqarishni, mantiqiy fikrlashni oʻrganadilar. Bunda eng muhimi rasm va uning qismlariga tuzilgan rejaning asoslanganligida. Bu oʻquvchilarni oʻz fikrini dalillashga oʻrgatadi.

Oʻquvchilarning nutqiy savodxonligini yozma ifodalashlarida, birinchi navbatda, toʻgʻri yozish koʻnikmalari shakllantirilishi koʻzda tutiladi. Toʻgʻri yozuv avtomatlashadigan hodisa. Toʻgʻri yozuvga doir bilimlar sistematik mashqlar davomida koʻnikmaga, soʻng malakaga aylangan murakkab jarayon. Malaka til hodisalarini ongli egallash asosida oʻzlashtiriladi, rivojlantiriladi.

Ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun o'quvchilarning ma'lum darajada aqliy zo'riqlashlari, muayyan aqliy mehnat usullarini qo'llash talab etiladi. O'qituvchining to'g'ri va sistematik rahbarligi, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda o'qish savodxonligita'limining rolini tushunib harakat qilishi orqaligina ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

5.2 Nutq o'stirishda o'quvchilarning yosh va psixolingvistik xususiyatlarini hisobga olish.

Til millatning noyob xazinasi bo'lib, doimo og'zaki va yozma holda namoyon bo'lgan. Boy, yorqin, maroqli, nutq so'zlayotgan kim bo'lishidan qat'i nazar, uning nuri hisoblanadi. Tilni oliyjanob imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo'lmas ekan tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. So'z va g'azal mulkning sultoni A. Navoiy til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi. "Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa tilning ofatidir". Demak, til qanchalik zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qilarkan. Uning kuch qudrati nutq jarayonida namoyon bo'lar ekan. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati, kamonning qudratiga ham bog'liq.

Ta'lim mazmuni har qanday zamonda ham o'zgarmasligi mumkin, biroq har bir davr, har bir jamiyat ta'limga o'z talablarini qo'yadi va shu nuqtai nazardan ta'limning maqsadi va zaruriy vositalari davrlar o'tishi bilan takomillashib boraveradi. Har qanday til ta'limi lisoniy birliklarning kodlanishi va dekodlanishi ko'nikmalariga qaratilar ekan, mazkur jarayonni to'g'ri anglash va o'quvchilarning ko'rsatkichlarini mos ravishda baholash, shu orqali dars samaradorligini ta'minlash uchun psixolingvistik bilim zarur bo'ladi, psixolingvistikaga e'tibor qaratiladi. "Psixolingvistika" termini birinchi bo'lib N.Pronko 1946-yilda AQShda chop etilgan "Til va psixolingvistika" maqolasida keltirib o'tgan. Ammo ilmiy termin sifatida 1953-yildan boshlab J.Kerrol va Ch.Osgud tomonidan universitetlararo bo'lib o'tgan seminarida ishlatilgan. Ushbu seminarida "psixolingvistika"ni ilmiy yo'nalish sifatida qabul qilishgan. Undan so'ng 1954-yilda Ch.Osgud va T.Sebeok tomonidan "Psixolingvistika. Nazariya va tadqiqot muammolari" mavzusida yaratilgan qo'llanma ushbu sohani rivojlanishni boshlaganidan darak bergan. Ammo, N.Xomskiyning 1957-yilda yaratilgan "Sintaktik strukturalar" qo'llanmasi mavjud bo'lgan maqola va fikrlardan ko'ra kengroq ta'rif berilgani bilan ajralib turardi.

Psixolingvistika nisbatan yosh fanlardan biri bo'lib, nutqning hosil bo'lishi, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini til tizimi bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganadi. Unda psixologiya va lingvistika fanlari uyg'un holda sintezlashgan. U tekshirish manbaiga ko'ra lingvistikaga, ularni tekshirish metodiga ko'ra esa psixologiyaga yaqin turadi. Shu sababli og'zaki nuqni o'stirishda psixolingvistikaning o'rni alohida ajralib turadi. Og'zaki nutq ya'ni gapirish nutqiy faoliyatning murakkab, ko'p qirrali jarayonini o'z ichiga olgan turi bo'lib, uning vositasida og'zaki verbal muloqot amalga oshiriladi. Gapirishga o'rgatish va umuman og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish tilni o'rgatishda eng qiyin vazifalardan hisoblanadi. Bu o'quvchining o'zga til vositalari yordamida fikr va his-tuyg'ularini mustaqil tarzda ifodalashi bilan bog'liq.

Ongli ravishda nutq yaratish va til shakllarini tahlil qilish til o'rganishning dastlabki bosqichlariga xosdir. O'zbek tilini o'zga til va madaniyatlar vakillariga o'rgatish jarayonida gapirish nutqiy faoliyatning tinglab tushunish ko'nikmasi bilan bir vaqtda rivojlantiriladi. Ta'lim natijasi esa til va nutq materialini intuitiv tarzda egallashga olib kelishi kerak. Gapirish ko'nikmasi ikki turda, ya'ni monologik va dialogik nutqda namoyon bo'ladi. Bu turlar muloqot ishtirokchilarining nutqiy jarayondagi roliga qarab farqlanadi. Monologik nutqda muloqot ishtirokchilarining har biri muayyan vazifani – axborotni uzatish (nutq yaratish) yoki axborotni qabul qilish (retsepsiya) funksiyasini bajaradi. Dialogda muloqotning ikkala ishtirokchisina navbatma-navbat so'zlovchi va tinglovchi rolini bajaradi ya'ni **Charlz Osgud**ning fikricha, so'zlovchi niyating muayyan madaniyat kodida qabul qilingan signalga aylanishi va bu signallar tinglovchining interetatsiyasida qaytadan namoyon bo'lishida ko'rinadi. Monolog – bu bevosita gapirish, dialog esa gapirishning tinglab tushunish ya'ni kodlash va dekodlash bilan birga amalga oshiriladigan turidir. Monolog – bir shaxsning kimgadir qaratilgan nutqi bo'lib, unda fikrni aniq, to'liq, tushunarli tarzda ifodalash zarur.

Monologda so'zlovchi o'zining nutqini o'zi rejalashtiradi, kengaytiradi, til vositalarini tanlaydi. Monolog uzviy va mantiqli bo'lsa, dialog vaziyatga qarab tuziladi. Dialog nisbatan tez yuz beradigan nutq almashinuvi bo'lib, uning har bir bo'lagi replika (luqma) deyiladi va bir replika boshqasiga bog'liq bo'ladi. Bunday nutqda samaradorlik va ishonchlilik juda muhim. Bir o'lchovning ikkinchisidan oshib ketishi turli anglashmovchiliklarga olib keladi. Buni quyidagi gapmisolida yaqqol ko'rish mumkin.

O'zbek tili muallimi so'radi: -Men uxlayapman, sen uxlayapsan, u uxlayapti. Qaysi zamon?

O'quvchi:-Ayni tun! Shuning sababli o'zbek tili darslarida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmasini o'stirish borasida, faqatgina tilningyuza zamiri bilan chegaralanmasdan, psixolingvistik jihatlariga ham e'tibor berish lozim. Shu bilan birga, til o'rganish jarayonida qanday xatolar qilish mumkin ekanligi va ularga ahamiyat berish kerak ekanligi uzoq vaqt davomida shakllantirib kelindi.

Nutq jarayonida so‘zlar orasidagi nafas olish, havoning yangi zahirasini olish va kuchsizlanib borayotgan nafasni tiklash zarurati bilan yuzaga keladi. Nafas olish ifodali o‘qishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi va u ovoz va nutqni tinglovchiga yetkazishda asosiy o‘rinni egallaydi. To‘g‘ri nafas olish nafaqat inson hayoti uchun, balki ifodali o‘qish uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Nutq jarayonida nafas olish me‘yori buzilib, o‘rinsiz pauzalar qilinsa, o‘qilayotgan matnning mazmuni mantiqan o‘zgarib, muallifning maqsadi tinglovchiga tushunarsiz bo‘lib qoladi.

Bu haqda professor N. Mahmudov shunday yozadi: “O‘quvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya‘ni nutq hosil bo‘lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog‘liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo‘lga qo‘yilishi kerakki, nafas olish zo‘riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me‘yorda va davomliroq bo‘lishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo‘lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush va nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo‘ladi”

Nutq so‘zlash jarayoni, xususan, ifodali o‘qish san‘ati, nafas bilan chambarchas bog‘liqdir. Ijrochi - o‘quvchining nafas olishining to‘g‘riligi qancha yaxshi bo‘lsa, ovozi va nutqi ham shunchalik jarangdor va kuchli bo‘ladi.

Tibbiyotga doir adabiyotlarda nafas olishning quyidagi turlari alohida ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, ular bir-biridan farq qiladi.

1. Kiftdan nafas olish. Nafas ko‘rakning yuqori qismida olinib, kiftlar ko‘tariladi.

Bunday nafas olish zararli. U kishini tez charchatadi. Me‘yorda so‘zlashga imkon bermaydi.

2. Ko'krak-qorin orqali nafas olish. Bunday nafas olganda o'rta qovurg'alar, biqin harakatga keladi, ya'ni ular kengayadi.

3. Aralash nafas olish, ya'ni pastki qovurg'alar, diafiragma ishtirokida nafas olish. Bunda ko'krak qafasi va kiftlar ko'tarilmaydi. So'zlaganda ravon, hovliqmasdan tabiiy nafas olish, uni kerakli ohang talabiga ko'ra sarflash zarur.

S. Inomxodjaye va A. Zunnunovlarning "Ifodali o'qish asoslari" o'quv qo'llanmasida nafas faoliyatini yaxshilash uchun bir nechta mashqlar tavsiya etiladi. Quyida bu mashqlarning ba'zilar keltirilgan:

1. **Nazorat mashqi.** Bu mashq nafasning diafragmal-aralash usulda to'g'ri olinishini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Mashqni o'tkazishda tik va erkin turib, ikki qo'l bilan oxirgi qovurg'ani bosib, ohista chuqur nafas olish va asta-sekin nafas chiqarish kerak. Bunda ko'krak qafasi va yelka ko'tarilmasligi lozim. Chuqur nafas olishda qo'lni qovurg'aning ustiga qo'yib, yana ikki yonga ko'tarish kerak. Mashqni muntazam davom ettirib, yaxshi o'zlashtirilgunga qadar bajarish zarur.

2. **Qorinni tortish mashqi.** Bu mashq chuqur nafas olib, o'pka havo bilan to'ldirilgach, nafasni chiqarmasdan, "ushlab" turib, qorinni yuqoriga tortishdan iborat. Mashqni qorinni tortib turish ko'nikmasi hosil bo'lgunga qadar davom ettirish kerak.

3. **Sanash mashqi.** Diafragmal usulda nafas olib, erkin turgan holda, erkin ovoz bilan birdan beshgacha (1, 2, 3, 4, 5 deb) sanash mashqi bajariladi. Birdan beshgacha sanalgach, nafas olinadi va mashq yana davom ettiriladi. Keyin sanoqni 10, 15, 20, 25 largacha oshirib borish mumkin. Mashq davomida ovoz va gavda erkinligi saqlanishi lozim.

4. **Musajja' mashqi.** Bu mashq doston va ertaklardan olingan ravon, sodda va tasviriy xarakterdagi saj' matnlari asosida o'tkaziladi. Matn erkin talaffuz etilib, ikki-uch o'rinda nafas olib, keyin cho'zilgan nafas olinadi. Masalan: "Hasan shunday yigitdi: V husni to'lgan oydayin, ming qo'y sotgan boydayin..." kabi matnni o'qishda, "V" harfi qo'yilgan joyda nafas olinib, keyin talaffuzning tempi tezlashtirilib, matn bir yoki ikki nafasda o'qiladi. Mashq paytida talaffuzning aniqligiga va matnning mantiqiy izchilligiga e'tibor berish kerak.

5. **She'r o'qish mashqi.** Ushbu mashqda g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo'lgan uzun misrali she'rning oldin bir misrasi bir nafasda, keyin ikki misrasi bir nafasda va hokazo tarzda o'qiladi.

Ovoz. Ifodali o'qish san'atida ovozning ahamiyati beqiyosdir. Ovoz va nutq insonning Yaratguvchi Zot tomonidan berilgan ilohiy ne'mat hisoblanadi. Ovozning yoqimli yoki yoqimsizligi bizning ixtiyorimizda bo'lmagan hodisa.

Lekin ovozni shakllantirish, uni o'rniga qo'yish va uning sohibi bo'lish — bu insonning o'z ixtiyoridandir. Ovoz shakllantirish, maxsus mashqlar orqali muntazam shug'ullanish orqali amalga oshiriladi.

Ovoz insonning oliy asab tizimining mahsuli bo'lib, uning manbai tomoqda joylashgan tovush paychalaridir. Tovush paychalari sezgir, harakatchan shilliq pardalardan iborat bo'lib, gorizontal holda joylashgan ikkita yarim shardan tashkil topgan.

Ovoz yo'li. Ovoz yo'li tovush chiqadigan bo'shliq bo'lib, paychalardan iboratdir. Bu yo'l tomoqning tovush paychalaridan yuqori qismi, og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'idan tashkil topadi. Ovoz yo'lining toza va sog'lom bo'lishi ovozning ohangdor, jarangli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

Qaytarg'ichlar. Qaytarg'ichlar inson organizmidagi qattiq qismlardan iborat bo'lib, ular rezonatorlar deb ham ataladi. Inson vujudidagi qaytarg'ichlarga tish, jag', tog'ayning kemirchaklari, burun tog'aylari, bosh suyagi, ko'krak qafasi suyaklari va yelka kuraklari kiradi. Paychalarda bo'lgan tovush ovoz yo'li orqali o'tadi va o'tish paytida bu tovushlar yuqoridagi qattiq jismlarga urilib, jarangdorlik va turli rang-baranglik kasb etadi.

Ovoz turlari va tembr. Inson ovozi balandlik va pastlik, yo'g'onlik va ingichkalik jihatidan bir necha turga bo'linadi. Erkaklar ovozi tenor (baland va ingichka), bariton (o'rtacha) va bas (past va yo'g'on) ovozlarga, ayollar ovozi esa soprano (o'rtacha) va alt (past va yo'g'on) ovozlarga ajratiladi. Ovozning tembri — “chiroyli” yoki “xunuk” deb ta'riflanishi, aslida muayyan shaxsning ovozi sifatiga berilgan bahodir.

Modulyatsiya. Nutq jarayonida ovozning balandlashib va pasayib turishi modulyatsiya deb ataladi. So'z ijrochiligi san'atida ovoz modulyatsiyasining ahamiyati juda katta. Chunki bir xil ohangdagi monoton ovoz zerikarli bo'lsa, modulyatsiyaga boy ovoz o'zining ohangdorligi bilan tinglovchiga yoqadi. Ifodali o'qish san'atini egallashga kirishgan kishining ovozi tabiatan jarangdor, yoqimli va sog'lom bo'lishi zarur. Insonda quvonch yoki g'amginlik tuyg'ularini uyg'otishda, qalbini to'lqinlantirib, junbushga keltirishda ovozning ta'sirchanlik xususiyatlari alohida ahamiyatga ega.

Ovozning ta'siri. So'z ustasi tomonidan ovoz tovlanishlari orqali o'qilayotgan mazmundor she'r yoki qo'shiq, tinglovchining qalb torlarini chertib, hayajonga soladi yoki yoqimli hissiyotlar uyg'otadi. Xalq orasida yoqimli ovozning faqat inson hissiyotigagina emas, balki boshqa jonzotlarga ham ta'sir qilish xususiyati haqida ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud. Qadim rivoyatlarda aytilishicha, Dovud payg'ambar dunyodagi eng jozibador ovoz sohibi bo'lgan. U kishi Zabur oyatlarini tilovat qilganlarida, hatto osmondagi

qushlar ham uning boshining ustida gir-gir aylanishib, uning ovozlaridan sarxush bo‘lib uchib ketolmay qolgan.

“Qissai Rabg‘uziy”da esa shunday hikoya uchraydi: “Rum viloyatining odati bor, tevalari chaliqliq (sho‘x) burunduqlatmasalar, yangi tushgan kelinlarni keltirib un tuzub yirlyaturlar. Tevalar ularning ovozlariga xushlanib, o‘zlaridan kecharlar — ilikka ilinurlar.”

Qadimgi dunyoning mashhur notiqalaridan biri bo‘lgan Mark Tulliy Sitseron ovoz tovlanishlari va uning inson hissiyotlariga ta’siri haqida shunday deydi:

“Agar kimda-kim suxandonlikda birinchi bo‘lishni xohlasa, g‘azabli joylarda tarang, keskin, sokin joylarda esa muloyim ovozda gapirsin; past ovoz unga salmoqdorlik, titroq ovoz esa ko‘ngilni yumshatuvchi kuch baxsh etadi. Faqat uchtagina: past, yuqori va o‘zgaruvchan ohanglar yordamida taronalarda shunchalik rangin va shunchalik lazmatli barkamollikka erishadigan ovoz tabiati haqiqatan ham g‘aroyibdir”.

Boshqa bir o‘rinda esa, Sitseron inson ovozini musiqa asbobining torlariga o‘xshatadi:

“Inson ovozi har bir tegib ketishiga, baland yoki past, tez yoki asta, qattiq yoki sekin javob beradigan (tovush beradigan) torlarga o‘xshab sozlangan, har bir turning oraliq tovushlari haqida gapirmasa ham bo‘ladi; har bir tur o‘z navbatida tovushning rangin xillariga ega — mayin yoki qo‘pol, ezilgan yoki to‘la, cho‘zilgan yoki uziluvchan, bo‘g‘iq yoki keskin, uchib borayotgan yoki kuchayib borayotgan tovushlar. Va ushbu turlardan hech birini bilim va me‘yor tuyg‘usiz boshqarib bo‘lmaydi”.

Vaholanki, inson ovozi musiqa torlariga o‘xshar ekan, torlarni harakatga keltirish va undan mazmunli ohang taratish yo‘llarini o‘rganish uchun bilim va to‘xtovsiz mashq talab qilinadi.

Darhaqiqat, ovozni, nafasni, gavda harakatlarini va nihoyat tilni rivojlantiruvchi mashqlar har bir kishining ovoz imkoniyatlarini chiniqtirishga katta yordam beradi. Buning uchun esa ko‘proq badiiy asarlarni ovoz chiqarib o‘qish, nafaqat o‘qish, balki qayta-qayta mutolaa qilish lozim. Ayniqsa, nasriy yoki she‘riy asarlardagi ovoz o‘zgarishi bilan bog‘liq o‘rinlarga, asar qahramonlarining ruhiy holati bilan bog‘liq bo‘lgan dramatik lavhalarga alohida e’tibor qaratish va ovoz chiqarib o‘qish zarur. Masalan: Asarda qahramonning keskin tug‘yoni, g‘azabi ehtirosli, shiddatli, ba’zan uzuq-yuluq ovoz bilan ifodalanadi (o‘qiladi).

Masalan, Odil Yoqubovning *“Ulug‘bek xazinasi”* romanidan olingan quyidagi parcha asarni o‘qib ko‘raylik:

“O‘z qiblagohiga qilich ko‘targan senday razil xunrezni nechun yer yutmaydi? Nechun osmon og‘darilib boshlangan tushmaydi?” Abdulaziz, taqir boshini sarak-sarak qilib, ko‘zlari sovuq chaqnaib yaqinlashib kelardi. Abdullatif devorga suyanib, qilichini ko‘tarardi, lekin Abdulaziz to‘xtamadi, u hamon iyagi qaltirab, tishlari shaqillab yaqinlashib kelardi, - mehribon, buzrukvorim!... Ne qilding, mal‘um padarkush?...

Abdulazizning ko‘zlaridan tirqirab oqqan yosh tomchilari qorayib ketgan so‘lg‘in yuzini selday yuvib taralmay patak bo‘lib ketgan soqoliga quyilardi. Qo‘rqinch esa, ezilgan, dovdiragan va g‘amgin ovoz bilan ifodalanadi. Salohiddin zargar yuragi uvishib:

- Pirim, - dedi ovozi qaltirab. - Shu kecha Ko‘ksaroydan sipohlar kelib, yolg‘iz farzandim... mavlono Muhiddinni olib ketgan edilar. Qaytib kelmadi, pirim... Hazratning lablariga bilinar-bilinmas kulgi yugurdi.

- Qaytmasa... zurriyotingiz mavlono Muhiddin shahzodaga yoqib qolgandur?

- Pirim... - Beayb parvardigor... osiy banda... gunohini afv etgaysiz, pirim!

Dadillik – tarang, qat‘iy, jadallik va shafqatsizlikni bildiruvchi g‘azabnok ovozda ijro etiladi. Ali Qushchi omburday metin panjalari bilan shahzodaning bilaklaridan ushlab qattiq siqdi.

- Tort qo‘lingni, shahzoda! – dedi hansirab. – Tilasang shamshiringni olib chopib tashlarsan, tilasang, zindoningda chiritarsen! Ammo qo‘lingni tort yoqamdin! U shahzodaning qo‘llarini yoqasidan uzib, ko‘kragidan itarib yubordi. Mirzo Abdullatif gandarab borib taxt oldiga, zinaga qoqilib ketdi-yu, oltin kursini ushlab qoldi. U nima bo‘lgani tushunolmay, bir zum talmovsirab turdi, keyin ovozining boricha:

- Saroybon! Amir Jondor! Kim bor?! – deb baqirdi.

Asardagi quvonch tuyg‘usini ifodalagan o‘rinlar esa ochiq, yumshoq, nozik, shodon va yengil ovoz bilan o‘qiladi. Qalandar ko‘zlarini ochishga majoli yo‘q, o‘zicha jilmaydi:

- Aytmishlarkim, ravzai rizvonda husnda tengsiz hurliqolar bo‘lar emish. Bo‘lsa bordur. Va lekin faqirga o‘shal tengsiz jannatingni ato qilsang, husnda benazir hurliqolaringga qaramas edim.

- Nechun? – kuldi Bonu.

- So‘rab ne qilasiz? Faqir barcha hurliqoyu farishtalarni tark etib, Ollodan yolg‘iz sizni tilab olar edim.

Tushkunlik esa, bosiq, bo‘g‘iq va noxush, qattiq ovoz bilan ijro etiladi. Mirzo Ulug‘bek ko‘zlarini yumgancha sekin uf tortdi, peshonasidagi ajinlari quyuqlashib, so‘lg‘in chehrasida bo‘lakcha bir g‘amginlik aks etdi.

• Yo‘q! – Mirzo Ulug‘bek sekin bosh chayqadi. – Ali Qushchi yashirinmog‘i lozim. Uni qidirmishlar. Va lekin... kitoblar qayda? Men buni bilmog‘im darkor. Toki... musofir yurtga ketmoqdamen. O‘z elimga qaytmoq nasib bo‘lar mu, yo‘qmu – buni faqat Haq taolo biladur, darvesh...

Demak, ovoz o‘zgarishi asar voqealarining kechishi bilan, qahramonlar xarakteri va ruhiy holati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ifodali o‘qish jarayonida ovoz asta-sekin ko‘tarilsa maqsadga muvofiqdir, chunki dabdurustdan baqirib o‘qishdan boshlash – qo‘pollikdir. Ijroda ovozni asta-sekin ko‘tarish foydali, chunki ovoz bundan kuchayadi. Ammo ovozni ko‘tarishda chinqirib baqirishgacha yetib bormaydigan chegara bo‘lishi lozim.

8.2 Nutqiy jarayonda nafasni to‘g‘ri ishlatish.

Nutqiy jarayonda nafasni to‘g‘ri ishlatish nutqning aniq, ravon va samimiy bo‘lishini ta‘minlash uchun juda muhimdir. Nafasni to‘g‘ri boshqarish quyidagi jihatlarda yordam beradi:

Nutqdagi pauza nuqtalari va to‘g‘ri nafas olish samarali muloqotning ajralmas qismlaridan biridir. To‘g‘ri nafas olish va pauza qilish odatlari nutqni yanada tushunarli, ravon va ta‘sirli qiladi. Tinglovchida samarali taassurot qoldirish uchun nafas olishni nazorat qilish va pauza qilishga e‘tibor berish kerak.

Nafas olish va to‘xtash nuqtalarini aniqlash juda muhim, chunki bu nuqtalar so‘zlovchiga ham dam olish imkonini beradi, ham tinglovchiga so‘zlarni osonroq tushunishga yordam beradi. Agar so‘zlovchi uzluksiz va to‘xtovsiz gapirsa, uning nutqi tinglovchiga zerikarli ko‘rinishi mumkin, bu esa uning so‘zlarini to‘liq idrok etishni qiyinlashtiradi. To‘g‘ri to‘xtashlar esa nutqni ravon va tushunarli qilishda muhim omil hisoblanadi.

Qisqa va aniq jumalardan foydalanish nafas olishni osonlashtiradi. Uzoq jumlar esa nutqni qiyinlashtiradi. Masalan, “Biz o‘sha kuni parkka bordik va juda ko‘p qiziqarli narsalarni qildik” degan jumlani olaylik. Bu gapda “va” bog‘lovchisidan oldin nafas olish kerak. Agar shunday joylarda nafas olmasak, gapning qolgan qismi tor va tushunish qiyin bo‘ladi. Bog‘lovchilar, masalan “lekin”, “ammo”, “biroq” kabi so‘zlar esa nutqning ritmini belgilaydi. Ular oldidan va keyin to‘xtab turish nutqni mazmunli qiladi. Bunday nafas olish joylari, shuningdek, so‘zlovchiga gap ichida bo‘shashish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nafasni to‘g‘ri ishlatishini ta‘minlash uchun kichik maktab yoshida va bashlang‘ich ta‘limda tez aytishlar orqali yo‘lga qoysak maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Chunki bu o'sish davrida kichik yoshdagi bolalarning nutqi rivojlanadi. Eshitganlarini eslab qoladilar va shunday talaffuz qiladilar. Bolalarning nutqidagi kamchiliklarning kelib chiqishining yana bir sabablaridan biri bu otanonaning, ya'ni oila a'zolarining o'rnidir. Chunki farzandlarining endi tili chiqish jarayonida ko'p hollarda ularga tilini chuchuk qilib gapirish holatlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Chuchu obeyemi?" emas "Suv olib beraymi?" "Kaka yisimi?" emas "Qand yeysizmi?" tarzida murojaat qilmaslik oqibatida bolalarning nutqi to'liq bo'lmagan so'zlar bilan shakllanib boradi. Bu holatni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ham uchratishimiz mumkin. So'zlarni to'liq ayta olmaslik va tovushlarni to'g'ri talaffuzida qiyinchiliklarini bartaraf etishda biz tez aytish janri bilan ko'proq shug'ullantirishimiz kerak. Har bir tovushlarni o'rganish mobaynida tez aytishlardan foydalanib, so'zlarni to'g'ri va ravon aytishlari uchun ko'maklashishimiz lozim. Tez aytish orqali o'quvchilarning nutqini o'shtirishga xizmat qiluvchi juda ko'p mashq va metodlarni boshlang'ich sinf darsliklarida uchratishimiz mumkin. Misol uchun,

1-sinf o'quvchilarining eng sevimli kitobi "Alifbe" kitobida [T] – tovushiga oid mashq berilgan. Chunki bu kitob o'quvchilarga sehrli tovush va harflar olamini so'zlar dunyosini to'g'ri va ravon talaffuz qilishni o'rgatadi.

Turna tipratikanni turtdimi?

Tipratikan turnani turtdimi?

Berilgan tez aytishni o'quvchilar yod olishi va tez, to'g'ri aytishlari talab qilinadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha [T] tovushini [K] yoki [D] tarzida talaffuz qilishlari mumkin. [T] – tovushi qisqa aytiladi va tishlar bir-biriga yaqinlashishi orqali yuzaga keladi. Bu tovushga oid tez aytishning berilishi esa o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradi. Har bir so'zning boshidagi [T] tovushining takrorlanishi, bu tovushni to'liq talaffuz qilishlariga yordam beradi.

2-sinf uchun mo'jallangan "O'qish savodxonligiva o'qish savodxonligi" darsligida tez aytishga oid musobaqa berilgan. "Kim tez aytadi?" musobaqasi. Shartlari quyidagilar:

1. Tez aytishlarni yaxshilab o'qib chiqing.
 2. Ovoz chiqarmay aytib ko'ring.
 3. To'g'ri nafas oling.
 4. Tez aytishlarni bir nafasda ayting.
 5. Partadoshingiz bir nafasda aytgan tez aytishlaringizni hisoblab tursin.
- Qo'zichog'im qo'ng'ir,
oq, Qo'ng'iroqli qo'zichoq.
Qurilishga terak kerak,

Demak, ekmoq kerak terak!

To‘lqin topishmoqni to‘g‘ri topdi.

Bu kabi musobaqalarning dars davomida o‘tkazilishi o‘quvchilarning qiziqishlarini yanada oshiradi va tez aytish mashqlari bilan ko‘proq shug‘ullanishga undaydi.

Darslikda yana berilgan topshiriqlardan biri “Alifbodagi harflar ketma-ketligida tez aytish yozishni mashq qiling” topshirig‘i. Bu topshiriqda o‘quvchilar alifboning har bir harfiga oid tez aytishlarni bilishlari kerakligini bildiradi. Masalan,

Asalari asalini ayiqdan ayamadi.

Belbog‘ini belga bog‘lab,

Bog‘bon bobo bog‘ga bordi.

Tez aytishlar o‘qish savodxonligini rivojlantirishda muhim vositalardan biridir. Paxta va taxta, Sodiq momiqning paxta terishi kabi mavzularni o‘quvchilarga to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatishda foydali bo‘ladi. Bular faqatgina talaffuzni yaxshilashga yordam bermay, balki matnni tushunish va mazmuniga chuqurroq kirishish imkonini ham yaratadi.

“Kim ko‘p tez aytishni ayta oladi?” kabi o‘yinlar esa o‘quvchilarning o‘zaro raqobatini yaratib, tez aytishning o‘ziga xos san’ati bilan tanishtiradi. Bu o‘yinlarda jamoalar bir-birlariga qarshi turib, bir-biridan tezroq va to‘g‘riroq tez aytishlarni aytishga harakat qilishadi. O‘yin davomida jamoa a‘zolari tez aytishlarni aytishda bir-birlariga yordam berishadi, va shu tarzda to‘g‘ri talaffuzni o‘rgandilar. Masalan,

1-jamoaning

"Boqi qoqini Soqiga sotdimi,

Soqi qoqini Boqiga sotdimi?"

degan tez aytishi orqali o‘quvchilar nafaqat so‘zlarni tez va to‘g‘ri aytishni o‘rganadilar, balki bu matndagi qiyoslash va o‘xshashlikni ham tushunishlari mumkin. Bunday mashqlar o‘quvchilarning nutq ko‘nikmalarini mustahkamlashda va ertak mazmunini tushunishda muhim o‘rin tutadi.

2-jamoa:

Asalari asalini ayiqdan ayamadi.

3-jamoa:

Ergash Erkinga ergashdimi,

Erkin Ergashga ergashdimi? ...

Shu tarzda o‘yinni davom ettiradilar. “Bir nafasda tez ayting” o‘yini. Bu o‘yinda o‘quvchilar birma-bir doskaga chiqib, bir nafasda tez aytishlar aytadilar. Doskaga chiqqan o‘quvchi tez aytish aytishi mobaynida qolgan o‘quvchilar tez

aytishlar sonini sanab turadilar. Kim to‘g‘ri va ko‘p tez aytishni aytsa, shu o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

O‘quvchi:

Tolib to‘pni tepib toldi,

So‘ngra to‘pni sumkaga soldi.

“Tez aytishdagi tushirib qoldirilgan so‘zni toping va tez aytishni ayting?” o‘yini. Bu o‘yinda doskaga ixtiyoriy bitta tez aytish yoziladi va tarkibidagi bitta so‘z tushirib qoldiriladi. O‘quvchilar shu so‘zni topishi va tez aytishni aytishlari talab qilinadi. Misol uchun,

Bulut bulutga, burgut _____ga ergashadi.

Bu tez aytishda tushirib qoldirilgan so‘z “burgut” so‘zi bo‘lib, tez aytishning to‘liq ko‘rinishi – Bulut bulutga, burgut burgutga ergashadi.

Bir juft cho‘p ko‘pmi, qo‘sh juft _____ ko‘pmi? Tez aytishdagi tushirib qoldirilgan so‘z “cho‘p” so‘zi bo‘lib, uning to‘liq variant Bir juft cho‘p ko‘pmi, qo‘sh juft cho‘p ko‘pmi?

Shu tarzda so‘zni topadilar va tez aytishni to‘liq holda aytadilar. “So‘zlardan tez aytishni hosil qiling?” o‘yinida o‘quvchilarga har xil so‘zlar beriladi va bu so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirib tez aytishlarni hosil qilishlari talab etiladi. Masalan, “bog‘da, Sava, salqin, yayraydi, sayraydi, sahar” so‘zlari berilgan. So‘zlar yordamida tez aytish hosil qilamiz.

Sava sahar sayraydi,

Salqin bog‘da yayraydi.

“Qoqi, Boqi, qoq, qoqi, quritgan, quruq” berilgan so‘zlardan tez aytish hosil qiling, tez aytishni tez ayting.

Boqi quritgan qoqi qoq quruq qoqi.

Shu tarzda metodik o‘yinlar o‘tkazish o‘quvchilarning tez aytishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga va ularni ko‘proq tez aytishlar bilan mashq qilishga undashga yordam beradi. Tez aytishlar bilan muntazam mashqlar o‘tkazib borish o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, nutqiy kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarga ko‘zlangan maqsadga osonroq erishish imkonini yaratadi.

8.3 Ovoz va uning tembri bilan ishlash.

Ishonchli ovoz sohibining aytgan gaplariga hamma qo‘shilgisi keladi va agar kimdir chiyildoq ovoz bilan gapiradigan bo‘lsa, uning gaplari juda aqlli bo‘lishiga qaramasdan nimagadir uning gapiga qo‘shilgingiz kelmaydi. Bunday holat deyarli hammada kuzatilgan bo‘lsa kerak? Shuning uchun ovoz boshqalar

bilan muloqotda etakchi vositadir. Intonatsiyalardan foydalana olmaslik, tembrning yo'qligi, ovozning yomonligi natijasida barcha erishgan natijalaringiz chippakka chiqishi hech gap emas.

Sizning ovozingiz xuddi sizning tashqi ko'rinishingiz, o'zingizni tutishingiz va aytayotgan gaplaringizday muhimdir. Ovoz siz aytayotgan gaplarni suhbatdoshingizga yetkazib berish vositasidir. Suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlarini tushunishlari ovoz va so'zlaringizning ma'nosiga bog'liqdir. Ovoz eshituvchilarni siz tomonga jalb qilishi, ularni biror narsaga ishontirishi, ularning ishonchlari va ovozlari sizga berishlariga majbur qilishi mumkin. Siz ovoz yordamida odamlarni harakatga keltirishingiz yoki uxlatib qo'yishingiz, maftun qilishingiz yoki o'zingizdan qochirishingiz mumkin. Inson ovozi – bu qudratli quroldir. Ovozingiz sizning rivojlanishingizga xizmat qilishi kerak, orqaga ketishingizga emas.

Siz hech o'z ovozingizni eshitganmisiz? Ko'pchilik odamlar o'z ovozlari eshitib ko'rib, uni taniy olishmaydi. Chunki gapirgan paytingizda ovozingiz o'zingizga boshqacha eshitiladi.

Buni tekshirib ko'rish uchun diktofon yoki qo'l telefonidan foydalanishingiz mumkin. Uning yordamida har xil sharoitlarda odamlar bilan gaplashayotganingizda suhbatningizni yozib oling va keyin uni eshitib ko'ring. Shunda qaysi joyda noaniq, yoqimsiz va sohta ovoz bilan gapirganingizni o'zingiz sezasiz va buni to'g'rilashga harakat qilasiz.

Ovozning kuchi, balandligi va tembri odam haqida juda ko'p axborot beradi. Buni odamlar bilan ishlaydigan kishilar juda yaxshi bilishadi. Bularga tergovchilar, psixologlar, siyosatchilar va boshqalar kiradi. Odamning jismoniy holatida yoki uning hissiyotlarida yuz bergan har bir o'zgarish darhol uning ovozida o'z aksini topadi. Lekin ushbu odamning o'zi ko'pincha buni sezmaydi.

Tasavvur qiling, siz birov bilan gaplashyapsiz. Qandaydir muammo haqida gap boshlashingiz bilan hamsuhbatningizning tinch, bir tekis ovozi ko'tariladi va nozik va deyarli chiyildoq ovozga aylanadi. Buning ikkita sababi bo'lishi mumkin: yo siz uni qo'rqitdingiz, yoki uning jahlini chiqardingiz. Agar u hech narsa bo'lmaganini aytsa ham baribir siz unga ishonmaysiz.

Ko'pchilikning fikricha odamlar aldayotganida qizarishadi, tutliqishadi va ko'zlarini olib qochishadi. Odatda bu fikr ko'pchilik hayotiy hollarda to'g'ri keladi, chunki odamlar ko'pincha yolg'on gapirishayotganda stress holatga tushishadi. Bu esa o'z navbatida uning pulsining tezlashishiga, miyasiga qon quyilishiga va kaftlarining terlashiga olib keladi. Lekin ayrimlar aynan to'g'ri gapirayotganlarida qizarishadi va tutilishadi, yolg'on gapira boshlaganlarida esa ko'zingizga to'g'ri qarab gapiradigan notiqqa aylanishadi. Ularga ishonmaslik

juda qiyin bo'lsa ham birdan paydo bo'lgan gapga chechanlik shubha uyg'otmay qolmaydi.

Ko'tarinki ruh va ovozning yuqori tondaligi ko'pchilik holda sizning gapingizni xursandchilik bilan qabul qilinganligini bildiradi. Lekin ayrim hollarda sizning gapingizga ishonmayotganliklarini ham bildiradi.

Agar xursand, jonli ovoz birdaniga tinsa, tinch va zaif bo'lib qolsa, suhbatdoshingizni xafa qilganingiz yoki uning umidlarini so'ndirganligingizni bilavering. Yumshoq, past va har bitta frazaning oxirida yanada pasayib ketuvchi ovoz xafalik yoki charchoqdan darak beradi.

Odatda ishonadigan va yoqtiradigan odamlar bilan boshqalarga nisbatan pastroq ovoz bilan gaplashiladi. Boshqalar bilishi kerak bo'lmagan gapni aytayotganda ham past ovozda gapiriladi.

Ovoz insonning yoqimlilikiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Amerikalik psixologlar o'tkazgan tajribada chiroyli qiz bir guruh bilan gaplashganda chiroyli, past va intonatsiyalarga boy ovozdan foydalanadi. Ikkinchi guruhga bo'lsa manqa, bo'g'ilgan va monoton ovoz bilan murojaat qiladi. Keyin bu guruh a'zolaridan qizning chiroyliligini 10 balli shkala bo'yicha baholashni so'rashganda birinchi guruh a'zolari unga 10, ikkinchi guruhdagilar bo'lsa 2 qo'yishgan.

Z.Freydning zamondoshlari psixoanaliz seanslariga kelgan ko'pchilik ayollar uni ko'rmasdan turiboq Freydni yaxshi ko'rib qolganliklarini aytishgan. Freyd bu seanslarda o'zi ko'rinmasdan faqat gaplashgan.

Ulug' Vatan urushi yillarida sovet informbyurosida ishlagan Levitanning ovozi bo'lsa shu darajada yaxshi sozlangan ediki va shu darajada qudratli va shiddatli chiqardiki, uni eshitgan nemis askarlari qo'rquvga tushishgan, aksincha uni eshitgan sovet askarlari kuch-qudratga to'lganliklarini his qilib, yangi shijoat bilan jangga kirishgan.

Ovozning jaranglashi, uning balandligi, toni atrofdagilarning quyi ongiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi va uni boshqalar qanday qabul qilishlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Yuqori va jarangli ovoz odamlar tomonidan yoshlik bilan bog'lanadi. Bunday ovoz egasi hamisha yosh, chaqqon, kuchga to'la va shu bilan birga tajribasiz, etilmagan deb qaraladi. Bunday odamlarni juda kam hollardagina yuqori mansablarga tayinlashadi. Ovoz qancha baland bo'lsa, bu odamning mansabi shuncha past bo'lishi kuzatilgan. Nozik va chiyillagan ovoz egasi yugurdak rolga juda munosibdir. Bundan tashqari yuqori ovoz tezda diskomfort keltirib chiqaradi. Chunki quloqni teshadigan baland tovush tashvish va xavotir bilan assotsiatsiyalanadi. Bu esa noqulaylikka sabab bo'ladi. Juda baland va chinqiroq tovush quyi ong darajasida noqulaylik chaqiradi va bu ovoz

egasi bilan muloqot qilishga ishtiyoqni soʻndiradi va uning soʻzlariga ishonchni kamaytiradi. Shuning uchun nima deyish emas, buni qanday aytish juda muhimdir. Buni boshqalar bilan muloqot qiladigan va muzokaralar oʻtkazadigan kishilar bilishlari talab qilinadi.

Past ovoz intellekt va oʻziga ishonchni bildiradi. Past ovozli kishini atrofdagilar bilimdon va avtoriteti yuqori boʻlgan odam sifatida qabul qilishadi. Bunday ovozli erkak kishi ayollarda himoyachi, ishonchli va halol erkak obrazida namoyon boʻladi.

Past va koʻkrakdan chiqadigan ovoz bilan gapiradigan ayolni erkaklar yuqori seksuallikka ega deb bilishadi. Chunki past ovoz qonda erkaklik garmonlarining koʻpligidan darak beradi va bunday odamning temperamenti yuqori boʻladi. Albatta buni hamma erkaklar bilmaydi, lekin juda koʻpchilik buni his qiladi.

Ovoz hamma vaqt ham garmonlarga bogʻliq boʻlmaydi. Ovoz paylarining tuzilishi, nafas yoʻllarining oʻziga xosligi, psixologik holat va boshqa bir qancha narsalar ovozning jaranglashiga taʼsir qiladi. Lekin ozgina qunt qilinsa va ovozni mashq qildirilsa, u sizga kerakli darajada jaranglay boshlaydi. Ovozning kuchi va temбри nafas olishingizga bogʻliq boʻladi. Yaʼni toʻgʻri nafas olish ovozning chiroyli chiqishiga sabab boʻladi. Nafas olish engil va erkin boʻlishi kerak. Siz qancha boʻshashsangiz, shunchalik koʻproq havo olasiz va ovozingiz shunchalik jarangliroq boʻladi.

Agar biror soat davomida ovoz paylari yordamida gapirsangiz, ovozingiz oʻtirib qoladi va ancha paytgacha xirillab gapirishga majbur boʻlasiz. Chunki bunda ovoz paylari juda katta zoʻriqishga uchraydi. Uzoq vaqt davomida ovozni yoʻqotmasdan gapira olish uchun tovush chiqarishda nafas yoʻllaridan foydalanish kerak boʻladi. Nafas olish yoʻllari xuddi karnayga oʻxshab past tembrli, juda boy ovoz chiqarishga sabab boʻladi. Yosh bolalar xuddi ana shunday ovoz chiqarishadi. Shuning uchun ham ular xohlagancha uzoq vaqt davomida qichqirib yigʻlashlari mumkin va bunda ularning ovozlari oʻtirib qolmaydi. Biz ham xuddi ana shu yoshligimizda yoʻqotib qoʻygan ovozimizni tiklashimiz kerak.

Nafas olishni va ovozni kuchaytiruvchi eng yaxshi mashq – bu kuylashdir. Buning uchun maxsus kuylashni oʻrganishingizning keragi yoʻq. Shunchaki oʻzingiz yoqtiradigan qoʻshiqlarni kuylashingiz mumkin. Agar kuylashni amallay olmasangiz xavo sharlarini puflash ham yaxshi natija beradi. Ularni shishirish nafas tizimini kuchaytiradi. Kuchsiz tanada kuchli ovozning boʻlishi mumkin emas. Agar sizga kuchli ovoz kerak boʻlsa, sogʻligingizni mustahkamlash haqida bosh qotirishingiz kerak boʻladi. Xuddi shuningdek

ovozning yaxshi chiqishiga gavgani to'g'ri ushlash ham katta ta'sir qiladi. Gavda to'g'ri ushlanganda nafas olish a'zolari to'g'ri joylashadi va ovozning jaranglab chiqishiga sabab bo'ladi.

Ko'pchilik chekish ovozni pasayishiga sabab bo'ladi deb o'ylaydi, lekin chekish natijasida ovoz pasayishining sababi u bo'g'iladi. Bu esa boshqalarda yomon taasurol qolishiga olib keladi.

Monoton ovoz ham atrofda gilara yaxshi taasurol qoldirmaydi. Eng yaxshi holatda odamlar bunday ovoz ta'sirida uxlab qolishlari mumkin. Ovozda gimononlikdan qutulish uchun quyida gicha mashqni bajarishingiz mumkin. Birorta tekstni yoki she'rni olasiz va uni har xil hissiy, emotsional tonlarda o'qiysiz. Uni ko'tarinkilik bilan, istehzo bilan, zavq-shavq bilan, tushkunlik bilan, hayajon bilan va shunga o'xshash turlicha tarzda o'qing. Butun dunyoga mashhur teatr arbobi K.S.Stanislavskiy ha so'zini 400 xil ohangda ayta olgan. Har safar u ha deganda boshqa hisni anglatgan.

Sizning ovozingizning optimal jaranglashini aniqlash maqsadida birdan o'ngacha sanang. Bunda pog'onama-pog'ona ovozingizni oshirib boring. O'zingizga yoqqan jaranglashni eshitganingizda uni eslab qoling va shu ovozda so'zlashga harakat qiling.

Milan universitetida odamlarning ovozlarini tadqiq qilish natijasida ularning qanday ta'sir qilishi aniqlangan. Bunga ko'ra monotonlik, infantillik, ya'ni yosh bolalarga xos ovoz, intonatsiyaning kamligi, baland ovoz, keskinlik, yuqori tembr odamlarni muloqotda bir-biridan qochishlariga sabab bo'lar ekan. Aksincha ovozda g chuqur past tembr, to'yinganlik, intonatsiyalarga boylik, engil qo'shimcha nafas olish, ishonchlilik, umumiy qiziqishlar va tortinmaslik o'ziga tortar ekan.

Ovozdan to'g'ri foydalanishda gapirishga oyoqning uchidan boshning tepasiga bo'lgan barcha organlar ishtirok qiladi. Butun tanangiz ovoz yaratuvchi musiqa asbobiga aylanadi.

Do'stlaringiz bilan tinchgina gaplashganingizda faqat o'pkaning yuqorigi qismi bilan nafas olsangiz ham bo'ladi. Yoqimli, ko'krakdan chiqadigan va uzoqdan eshitiladigan ovozni hosil qilish uchun esa diafragma bilan nafas olish kerak bo'aldi. Diafragma havoning tomoq va lablar orasidan katta kuch bilan otilib chiqishini ta'minlaydi.

Tik turib gapirishda oyoqlar juda muhim rol o'ynaydi. U sizga tanangizni to'g'ri ushlashga yordam beradi. To'g'ri gavda tanada qon almashinishini yaxshilaydi va yurakning ishini osonlashtiradi.

Sizning gavgangizni to'g'ri ushlashingiz tovonlaringiz erga yopishib turishiga bog'liqdir. Tanangiz og'irligini oyoqlaringizga bir tekisda taqsimlang,

to'g'irlanib va boshingizni salgina orqaga tashlang. Shu holatda siz ovoz apparatini to'liq nazorat qilishingiz mumkin bo'ladi.

Ovozni hosil qilishda qaysi asosiy elementlar ishtirok etishini bilib olganingizdan keyin ovozni yaxshilash uchun o'z usullaringizni ishlab chiqishingiz mumkin bo'ladi. Chuqur diafragma orqali nafas olish bu jarayonni boshqaradi, hiqildoq havoni vibratorlar, rezonans beruvchi bo'shliqlar orasidan siqib chiqaradi, artikulyatorlar bo'lsa tovushlar va so'zlarni aytishga yordam beradi.

Ovozning sifati bir qancha parametrlarga bog'liq bo'ladi.

Rezonans. Ovoz chiroyli chiqishi uchun u rezonans berishi, ya'ni titrashi kerak. Rezonans –u havoning burun, halqum, hiqildoq va ko'krak qafasida tirashidir. Rezonans hosil bo'lishi uchun to'g'ri va chuqur nafas olish kerak.

Agar siz o'pkangizni to diafragmagacha havo bilan to'ldirsangiz va hiqildoqni yuqori titrash va rezonans hosil qilish uchun erkin qo'ysangiz, ovozingiz past va yoqimli bo'lishiga erishasiz. To'g'ri artikulyatsiya qilish uchun siz to'liq tinchlanishingiz kerak bo'ladi.

Agar siz “chux-chux” desangiz, burningizda titrash sodir bo'lmasligi kerak, aksincha ko'krak va tomoqda titrash bo'lishi kerak.

Endi chuqur nafas oling. Birpas nafasingizni ushlab turganingizdan keyin “Ura! Ura!” deng. Bunda ko'krakdagi rezonansni his qilasiz.

Bu oddiy mashqlar sizga ovozingizning o'ziga xosligi va rezonans manbalarini bilib olishingizga yordam beradi.

Ko'krakdagi rezonansni tekshirib ko'rish uchun yana bitta mashq bor. Barmoqlaringizning uchlarini ko'kragingizga bosib va baland ovozda”mumm-mumm-mumm” deng. Bunda ko'krakdagi titroqni sezasiz.

Rezonans sizning ovozingizga kuch va ishonch bag'ishlaydi. Hatto shovqinli joylarda ham rezonanslanuvchi ovoz yaxshi eshitiladi. Shovqinli xonada past ovozda gapirsangiz ham baribir sizni eshitishadi.

Ovoz turi. Tabiiy ovoz turlari odam ovoz paylari, gavdasining tuzilishi va boshqa parametrlarga bog'liq bo'ladi. Siz o'zingiz uchun tabiiy bo'lgan eng past ovoz turini aniqlashingiz kerak bo'ladi.

Ovozlarning quyidagi turlari farqlanadi: soprano – eng yuqori ayol ovozi, alt – eng past, metstso-soprano – o'rtacha. Tenor – eng yuqori erkak ovozi, bas – past, chuqur bas bo'lsa eng past tabiiy diapazondir.

Sizning tabiiy ovozingiz ushbu turlarning birortasiga kiradi. Tovningiz bilan erga tirilib, gavgani to'g'rilang, bunda sizning diafragmangiz egiladi va ovozingiz chuqurdan chiqqanday pasayadi.

Xuddi shuningdek ko'krakni to'ldirib nafas olsangiz va tomoqni ochiq qoldirsangiz, o'z diapazoningizni to'liq qamrab olishingiz mumkin va rezonansni ham yo'qotmaysiz.

Ton balandligi. Ton balandligi siz chiqarayotgan tovushlarning balandligini bildiradi va hiqildoqning titrash chastotasiga bog'liq bo'ladi. Yuqori ovozda chastota ham yuqori bo'ladi va past ovozning titrash chastotasi ham past bo'ladi.

Ovozingiz monoton chiqmasligi uchun u kamida bitta oktavani egallashi kerak. Ya'ni musiqachilarning tushunchasi bilan ta'riflaganda o'rtacha holatdan yuqorida to'rtta va pastda to'rtta notani ola bilishingiz kerak. Yuqori ovoz yoqimsiz bo'ladi. Past ovozlar bo'lsa hammaga yoqadi. Agar zo'riqsangiz ovozingiz ham ko'tariladi. Jahl qilsangiz ovozingiz keskin va chiyildoq bo'ladi. Charchaganingizda ovozingiz xirillay boshlaydi. Xafa bo'lsangiz diapazon va ovoz balandligi pasayadi.

Balandlik. Ovoz balandligig detsibellarda o'lchanadi. U o'pkadagi havo hajmiga bog'liq bo'ladi. Tovushning kuchi va energiyasini nazorat qilish yo'li bilan siz ovozingiz balandligini ham boshqarishingiz mumkin.

Yaxshi eshitmaydigan odam bilan gaplashganda baland ovozda gapirishning o'zi kamlik qiladi. U sizni eshitishi uchun rezonans ham kerak bo'aldi.

Tembr. Tembr turli xil ovozlarni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradi. Tembrni ovoz balandligi va boshqa xarakteristikalarini bilan yanglishtirish kerak emas. Masalan, siz taniqli xonandalarning ovozlarni yanglishmasdan ajrata olasiz.

Sizning ovozingizda ham boshqalarnikidan ajralib turadigan alohida ovozlari borki, bu orqali boshqalar sizning ovozingizni ajratib olishadi.

Ekspressiya. Gapirish ifodali chiqishi uchun siz nima haqida gapirayotganligingizni tasavvur qilishingiz kerak. Har bitta so'zingizga o'z hislaringizni ham qo'shib aytishingiz kerak. Ekspressiyani yuqorida keltirilgan magnitofonga ovozingizni yozib olish yo'li bilan tekshirib ko'rish va korrektsiyalash mumkin.

O'z ovozingizni eshitib ko'ring va u bundan keyin qanday jaranglashi kerakligini o'ylab ko'ring.

Atrofdagilarning, teleboshlovchilarning, diktorning qanday gapirishlarini eshiting va qanday nafas olishlariga e'tibor bering. Ular ovozlarni qanday boshqarishlariga e'tibor bering. Gapirayotganingizda "eee", "xmmm", "aaaa" kabi bog'lovchilardan foydalanmang. Ular suhbatdoshingizda siz haqingizda juda yomon taasurot qoldiradi.

Siz o'z ovozingizga o'rganib qolgansiz. U bo'lsa bir qancha faktorlar ta'sirida vujudga kelgan: millatingiz, tug'ilib-o'sgan joyingiz, yoshligingizdan o'rgangan so'zlaringiz va boshqalar.

Juda kam odamlargina o'z ovozlari, gapirish uslublarini o'zgartirish haqida o'ylashadi va hayotda juda ko'plagan imkoniyatlardan bebahra qolishadi. Ikkinchi tomondan ularni o'zgartirish siz tomoningizdan juda ko'p kuch va vaqt sarflashingizni talab qiladi. Bir-ikki haftada ovozni o'zgartirishning iloji yo'q. Buning uchun oylar kerak bo'ladi.

Ammo bajarib bo'lmaydigan ishning o'zi yo'q. Hatto yuqorida keltirilgan eng oddiy mashqlar ham sizning etarli darajada ovozingiz va so'zlash uslubingizni o'zgartirishingizga sabab bo'lishi mumkin.

8.4 Ovoz ustida to'g'ri ishlash metodikasi.

Insonlar bilan muloqotda bo'lish vaqtida har xil ovoz rejimlari tembrlari va intonatsiyalariga juda katta e'tibor beriladi. Bu jarayonda e'tiborning 40% qanday gapirayotganligi, 40% qanday ko'rinishi, 20% nima gapirayotganligiga qaratiladi. Muzokaralar vaqtida ovozingiz tembrini pasaytirish yo'li bilan suhbatdoshingizning ham o'z ovozini pasaytirishiga erishsangiz tashabbus siz tomoningizda bo'ladi. U sizning gaplaringizga qo'shila boshlaydi. Oddiy noverbal signallarni yo'llash yo'li bilan bir nechta reaksiyalarni chaqira olsangiz, keyingi harakatlaringiz yanada samaraliroq bo'ladi.

18 ta ovoz rejimlari mavjud bo'lib, ulardan 12 tasi etakchi rejimlar hisoblanadi. Ularning ichidan asosiylari 6 ta va ulardan sizning muvaffaqiyatli muzokaralar olib borishingiz uchun zarur bo'ladiganlari 3 ta.

Birinchi ovoz rejimi. Juda past va bir tekis gapiriladi. Sizning ovoz tembringiz juda past va balandligi shivirlashdan sal balandroqdir. Tekis va erkin gapirish bilan birgalikda gavdani to'g'ri tutishga ham ahamiyat berish kerak bo'ladi. Bunda effektni oshirish uchun suhbat davomida vaqti-vaqti bilan juda muhim gaplarni aytayotgan paytingizda suhbatdoshingiz tomonga ozgina egilib, bosh irg'ab qo'yishingiz uning ochilishiga va sizga tomon intilishiga sabab bo'ladi. Bu ovoz rejimi odamlar orasidagi psixologik to'siqlardan qutulish uchun ishlatiladi. Agar ovoz tembrini oshirib yuborsangiz u qo'llarini chalkashtirib, qo'lga biror narsani olib yoki boshqa narsalarga e'tiborini qaratib sizdan qocha boshlaydi. Shuning uchun ovoz tembrini bir tekisda ushlashga va erkin gapirishga alohida e'tibor berishingiz kerak bo'ladi.

Ikkinchi ovoz rejimi samarali psixologik bosim o'tkazishga mo'ljallangan. Ovoz tembri birinchi ovoz rejimidagidan balandroq va ovoz balandligi ham

oshadi. Bu xuddi “Mening aytganimni tushundingmi” degandagi ovoz rejimidir. Lekin juda bosiq ohangda qoʻllaniladi. Ovoz haddan tashqari koʻtarilmaydi. Bunda koʻproq bosim oʻtkazish ishoralaridan foydalaniladi va gavdani oldinga toʻgʻri egiladi. Masalan, koʻrsatkich barmoq bilan pastni koʻrsatish, qoʻlning kafti bilan bosayotganday harakat qilish shular jumlasidandir. Bunda xuddi siz oldingizdagi odamning ustiga bostirib borayotganday boʻlasiz. Lekin haddan oshirib yubormaslik va sizga nisbatan sovuqlik paydo boʻlmasligi uchun birozdan keyin birinchi ovoz rejimiga oʻtish kerak boʻladi. Bunday ovoz rejimlarini aralashtirib qoʻllash suhbatdoshingizning psixologik qarshiligini pasaytiradi.

Uchinchi ovoz rejimi biror fikrni aniq taʼkidlash uchun ishlatiladi. Bunda birinchi ovoz rejimida gapirayotib suhbatdoshingizning eʼtiborini tortish uchun birdaniga uchinchi ovoz rejimiga oʻtasiz. Bunda ovoz koʻtariladi va jaranglab chiqadi. Bu buyruq berish uchun moʻljallangan ovoz rejimidir. Harbiylarning buyruq beruvchi ovozini eshitgan boʻlsangiz bu xuddi shu ovoz rejimidir. Bunda eʼtiborni tortuvchi noverbal signallarni ham qoʻshishingiz katta samara beradi. Masalan, koʻrsatkich barmoqni koʻtarib qoʻlni oldinga choʻzish. Bu undov belgisiga oʻxshaydi va eʼtibor ber degan buyruqning noverbal koʻrinishidir. Uning eʼtiborini tortgandan keyin ikkinchi ovoz rejimiga oʻtasiz va maʼlum vaqtdan keyin birinchi ovoz rejimiga qaytishingiz mumkin boʻladi. Bu uchala ovoz rejimini aralashtirib qoʻllash natijasida suhbatdoshingizning psixikasiga bosim oʻtkazasiz va u maʼlum vaqtdan keyin sizning gaplaringiz donishmandlikning aynan oʻzi ekanligini his qila boshlaydi.

Bu ovoz rejimlarini tekstda aynan koʻrsatib berish qiyinligi sababli iloji boricha qisqaroq berishga harakat qildim. Treninglarda har bitta ovoz rejimi alohida koʻrib chiqiladi va mashq qilib, oʻrganiladi.

Oʻquvchilarga turli kitoblarni ovozli formatda taqdim etish. Bu nafaqat oʻqish savodxonligini oshiradi, balki tinglab tushunishni va talaffuzni rivojlantiradi. Ovozli kitoblar – kitoblarning ovoz orqali oʻqilishi yoki eshutilishi imkonini beruvchi formatlar boʻlib, ular oʻquvchilarni oʻqish savodxonligini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ovozli kitoblar nafaqat matnni eshitishni, balki talaffuzni, soʻzlarni aniqlik bilan aytishni, nutq va eshitish koʻnikmalarini ham rivojlantiradi. Bu esa oʻquvchilarga matnni tushunish va unga emotsional bogʻlanishni osonlashtiradi.

Ovozli kitoblar, oʻquvchilarga nafaqat matnni oʻqishda, balki soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishda ham yordam beradi. Har bir soʻzning qanday aytilishini tushunish, uning toʻgʻri talaffuzi va ishlatilishi bilan bogʻliq muhim oʻrganish jarayonidir. Oʻquvchi ovozli kitobni tinglash orqali eshitish va koʻrish

qobiliyatlarini birlashtiradi, bu esa soʻzlarning maʼnosini va tuzilishini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Ovozli kitoblar orqali oʻqish nafaqat talaffuzni, balki intonatsiyani ham rivojlantiradi. Ovoz balandligi, ohang va pauzalar matnning mazmunini toʻliq anglashda muhim rol oʻynaydi, chunki har bir intonatsiya matnni oʻqish jarayonida emotsional kontekstni yaratadi va oʻquvchining fikrini shakllantiradi.

Tushunish va eʼtibor – ovozli kitoblarning boshqa muhim xususiyati. Oʻquvchilar matnni oʻqish davomida faqat soʻzlarni talaffuz qilibgina qolmay, balki ularni bir-biriga qanday bogʻlashni ham oʻrganadilar. Ovozli kitoblarni tinglash jarayonida oʻquvchi nafaqat matnning yuzaki maʼnosini tushunadi, balki uning chuqur mazmuniga kirib boradi. Oʻquvchi har bir soʻzning oʻrnini, tuzilishini, va ifodalanish shaklini tinglab oʻrganadi, bu esa matnni yaxshiroq anglash va muhim tafsilotlarni eslab qolishga yordam beradi. Ovozli kitoblar yordamida matnni oʻqishning maqsadi faqat soʻzlarni oʻrganish emas, balki ularning mazmunini chuqurroq tushunishdir.

Soʻz boyligini oshirish – ovozli kitoblar orqali oʻquvchilar yangi soʻzlarni oʻrganishda juda samarali usulni qoʻllaydi. Oʻquvchilar yangi soʻzlarning talaffuzi, ularni qanday ishlatish va maʼnolarini qanday toʻgʻri anglashni oʻrganadilar. Ovozli kitoblar yordamida oʻquvchilar nafaqat soʻzlarni eshitib, balki ularni turli kontekstlarda qanday ishlatilishini ham tushunadilar. Bu, oʻz navbatida, oʻquvchilarni yangi soʻzlar bilan tanishtiradi va ularning soʻz boyligini kengaytiradi. Shuningdek, ovozli kitoblar oʻquvchilarga oʻrganilgan soʻzlarni faol ravishda hayotda ishlatish uchun imkon yaratadi, bu esa tilni oʻzlashtirish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Ovozli kitoblar nafaqat talaffuzni, balki soʻz boyligini, matnni tushunishni va intonatsiyani rivojlantirishda muhim vositadir. Ular oʻquvchilarga oʻqishning yangi usulini taqdim etadi va oʻqish savodxonligini yaxshilashga katta yordam beradi.

Bolalar uchun ovozli kitoblar yaratishda matnning dinamikligi, ritmi va yuqori tonlarda ifodalangan qiziqarli dialoglar alohida ahamiyatga ega. Ovozli kitoblar, oʻquvchilarga nafaqat oʻqish jarayonini qiziqarli va jonli qilish, balki ularning tasavvurlarini rivojlantirishda ham muhim rol oʻynaydi. Dinamik oʻqish usuli, oʻquvchilarga matnni hayotiy tarzda eshitishga yordam beradi, shu bilan birga, har bir soʻzning ohangi va ritmi orqali voqealarning rivojini sezish imkonini yaratadi. Ovozli kitoblarda keltirilgan yuqori tonlar va dramatik dialoglar, oʻquvchilarni har bir obrazga va voqeaga yanada yaqinlashtiradi.

Hayoliy obrazlar va voqealarni tasavvur qilishda ovozli kitoblar bolalarga katta yordam beradi. Ovozli kitoblar orqali bolalar har bir personajning ovozini,

xarakterini va ruhiyatini his qilishadi. O'quvchi matnni tinglash orqali obrazlarning xarakterini yaxshi tushunadi, ularni o'z tasavvurida jonlantiradi. Ovozli kitoblar, shuningdek, bolalarga matnni yanada jonli va rang-barang qabul qilishda yordam beradi, chunki ular ovoz va til yordamida har bir voqeani ko'z oldilarida tasavvur qilishadi.

Bu tarzda, ovozli kitoblar nafaqat bolalar adabiyotining kashfiyotiga, balki bolalar tasavvurlarini kengaytirishga ham yordam beradi. Dinamik ovozlar va ritmik o'qish, bolalarga matnni chuqurroq anglash imkoniyatini beradi va ular uchun o'qish jarayonini yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi.

Ovozli kitoblar, ayniqsa interaktiv formatda taqdim etilganda, o'quvchilarga nafaqat matnni o'qish, balki turli vizual materiallar bilan tanishish imkoniyatini ham beradi. Masalan, rasmlar va videolar orqali bolalar kitobdagi voqealarni yanada yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bu metod matnning mazmunini yanada osonroq anglashga yordam beradi, chunki o'quvchi nafaqat o'qiydi, balki ko'rish va eshitish orqali o'rganadi. Vizual materiallar matnni jonlantirib, uning tasavvurlarini kengaytiradi va o'quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa o'qish jarayonini yanada interaktiv va ta'sirchan qiladi.

Shuningdek, ovozli kitoblar matnni qayta-qayta tinglash imkoniyatini taqdim etadi, bu esa o'quvchilarga tushunishni mustahkamlaydi. O'quvchi matnni bir necha marta tinglab, so'zlarni yoki iboralarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi. Qayta tinglash jarayoni, ayniqsa, yangi so'zlar va ifodalarning to'g'ri ishlatilishini o'rganishda foydali bo'ladi. Bu metod o'quvchilarga nafaqat matnning ma'nosini tushunishda yordam beradi, balki ularning eshitish va tilni ishlatish ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi. Ovozli kitoblar orqali matnni bir necha bor tinglash, o'quvchining til o'rganish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

O'qishdagi emotsiyalarni ifodalash. O'quvchilarni o'qigan matnlarida emotsiyalarni ifodalash uchun ovoz balandligi, tonlama va pauzalarni ishlatishga o'rgatish. O'quvchilarga o'qish jarayonida emotsiyalarni ifodalashni o'rgatish, ularni nafaqat matnni to'g'ri o'qishga, balki undagi his-tuyg'ularni ham aks ettirishga undaydi. O'qishdagi emotsiyalarni ifodalash, o'quvchilarga matnning chuqur mazmunini tushunishga yordam beradi va ularni matn bilan bog'lanishga, uning ma'nosini sezishga o'rgatadi.

Quyidagi adabiy matn orqali o'qishdagi emotsiyalarni ifodalashni ko'rsatib berish mumkin:

Matn:

Bolalar bog'chasida bir kuni, yomg'ir yog'ayotgan paytda, kichik Hasan va

uning do'sti Dilarom o'ynashayotgan edi. Ularning yuzlarida quvonchning ifodasi bor edi. Dilarom chiroyli, rang-barang shlyapani kiyib olib, salomlashdi:

— "Qanday ajoyib kun! Yomg'ir ham endi tinchlanayotganga o'xshaydi!" — deb baxtiyorlik bilan qo'shildi.

Hasan uning gapiga javoban, g'amginlik bilan, lekin endi quvonch bilan yuzini yaltiratarak:

— "Hamma joy nam, lekin biz baribir o'ynayapmiz, chiroyli shlyapa ham bor!" — dedi va o'zining to'g'ri talaffuzi bilan, yuzida kulib, shlyapasini silay boshladi.

Emotsiyalarni ifodalash Quvonch va baxtiyorlik: Dilaromning quvonchi va baxtiyorligi uning ovozida va yuz ifodasida namoyon bo'ladi. U shlyapa kiyib olib, yomg'irni tinchlanayotganga o'xshatib, quvonch bilan gapiradi. Bu so'zlarning toni yuqori va jonli bo'ladi.—

G'amginlikdan quvonchga o'tish: Hasan dastlab g'amgin edi, lekin u do'sti bilan o'ynashda quvonchni his qiladi. Uning ovozidagi o'zgarish — birinchi g'amginlik, so'ngra quvonch va ishonch — o'qishdagi emotsiyalarni ifodalashga misol bo'ladi.

Bu matn orqali o'quvchilar, har bir personajning his-tuyg'ularini qanday aks ettirishni va ifodalashni o'rganishlari mumkin. O'quvchilar matnni o'qish davomida emotsional intonatsiyalarni ishlatib, ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

O'qish savodxonligi kitobida o'quvchilar uchun o'qish va ovozli dialoglar yaratish O'quvchilarni ovozli dialoglar orqali o'qish va suhbatlashishga undash. Ular turli xarakterlarni ovoz chiqarib ifodalash orqali o'qish va nutq savodxonligini oshiradilar.

O'quvchilarga matndagi personajlar o'rtasidagi muloqotlarni ovoz orqali ifodalash, o'zaro munosabatlarni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Quyida o'qish va ovozli dialoglar yaratishga yordam beradigan adabiy matnni keltiraman:

Matn:

Bir kuni, go'zal bahor kuni, Alisher va Zaynab bog'da sayr qilib yurgan edilar. Ular qushlarning kuylashini, gullarning rang-barangligini ko'rib, tabiatning go'zalligidan hayratda edilar.

Alisher (quvonch bilan):

— "Qara, Zaynab! Qushlar qanday chiroyli kuylashyapti. Bu o'zgacha bir zavq!"

Zaynab (hayajon bilan):

— „Ha, haqiqatan ham! Ularning ovozlari qanday tiniq va ohangdor. Ularni tinglashni hech qachon to‘xtatmasdim!”

Alisher (yumshoq ovozda, mehri bilan):

— "Tabiatning ovozlari haqiqatan ham ruhni tetiklashtiradi. Bu qanday go‘zal voqea!"

Zaynab bir oz jimib turdi va tabiatning tinchligini his qildi. Keyin, kichik bir kulgu bilan davom etdi:

Zaynab (yengil kulib):

— "Bilaman, Alisher! Lekin sening gaplaringni eshitish ham juda quvontiradi. O‘zing ham bir nechta qushlar kabi tinch va ahil gapirasan!"

Alisher (kulib):

— “Shundaymi? Xo‘sh, men ham tabiatning ajoyibligini his qilayotganimda, ichimdagi go‘zallikni boshqalarga yetkazishga harakat qilaman."

O‘qish savodxonligini rivojlantirishda audio va video materiallar yordamida hikoya va she’rlarni o‘quvchilarga yetkazish juda samarali metod hisoblanadi. Bu metod, o‘quvchilarning tinglash va ko‘rish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularni matnni yaxshiroq tushunishga undaydi. Quyida o‘quvchilarga hikoya va she’rni audio va video materiallar yordamida yetkazish uchun mos keladigan adabiy matn keltiraman:

Matn:

Hikoya: "Qushning orzusi"

Bir kuni, kichik bir qush o‘zining katta orzusini amalga oshirishni istadi. U juda baland uchishni, qudratli shamollarni qarshi olib uchishni orzu qilar edi. Lekin uning qanotlari juda kichik edi, va u juda ko‘p urinishlardan so‘ng ham baland uchishga qodir bo‘lmagligini tushundi. U chinakam orzusiga erishish uchun, o‘zining kichik qanotlarini qanday kuchaytirishni bilmas edi.

Bir kuni, qush o‘zining eng yaqin do‘sti bo‘lgan qushni uchirishga chaqirdi:

Qush (umidsizlik bilan):

— "Men baland ucholmayman, qanotlarim juda kichik."

Do‘sti (ilhomlantiruvchi ohangda):

— "Sizda kuch bor, siz faqat o‘zingizga ishonganingizda uchishingiz mumkin. Biz birga bo‘lsak, har qanday orzu amalga oshadi!"

Qush do‘stining so‘zlaridan ilhom oldi va o‘zining kichik qanotlarini kuchaytirishga qaror qildi. U har kuni kichik mashqlarni bajarib, qanotlarini

kuchaytirdi va oxir-oqibat, orzusiga erishdi. U baland uchdi va yomg'irli quyoshni, toza havo va yuqori shamollarni his qildi. Uning orzusi amalga oshdi.

3-sinf o'qish savodxonligi darsligining 3-qismining III-bo'limida Oila kichik vatan bolalar shoiri Miltiqboy Xonnazarovning "Keksalarni hurmat qil" she'ri berilgan. Bu sher'ni o'quvchilarda o'rgatish jarayonida o'quvchilarga yodlash uchun qulay bo'lishi uchun o'qituvchi emotsa bilan o'zi o'qib berishi yoki audiosini qoyishi kerak. Bunday mazmundagi sherlarni bolalarga his hayajon shaklda yetkazib berishimiz lozim.

Keksalarni hurmat qil
Miltiqboy Xonnazarov
Keksa kishilarni, bolam, hurmat qil
Ularni jon bolam, Farishta deb bil.
Duosi ularning tuganmas boylik,
Senga so'rab turar bir umr sog'liq.

Bu she'rni audio holda o'quvchilarga yetkazib berish uchun biz yuqoridagilarga e'tibor berishimiz lozim. Tovushni his qilish va ovozni tarbiyalash – bu fanda "foniya" yoki "foniya tarbiyasi" deb ataladi. Bu jarayon, asosan, nutqni aniq va to'g'ri ifodalash uchun ovozning sifatini yaxshilashga qaratilgan. Tovushni his qilish, odamning ovozni aniqligini, uning to'g'ri talaffuzini va ohangini his etishi bilan bog'liq bo'lsa, ovozni tarbiyalash esa shu ovozni shakllantirish va uni samarali ishlatish, ya'ni ifodalashda ovozning kuchi, balandligi, tonasi va ritmini boshqarishdir.

Foniya tarbiyasining asosiy elementlari:

1. Ovoz balandligini boshqarish – ovozning past va yuqori darajalarda ishlatilishini o'rganish, matnni maqsadga muvofiq tarzda o'qish.
2. Intonatsiya – o'qishdagi ohang va ovoz balandligini o'zgarishlari orqali matnning ma'nosini to'liq ifodalash.
3. Ovoz kuchi va aniqligi – so'zlarni aniq talaffuz qilish va ovozning kuchli va ravon bo'lishi.
4. Pauzalar – matnning ma'nosiga mos ravishda to'g'ri pauzalar qo'yish, bu orqali o'quvchining tushunishi va matnni qabul qilishini osonlashtirish.

Tovushni his qilish va ovozni tarbiyalash jarayonida o'quvchilar nafaqat matnni o'qish, balki uning hissiy jihatlarini, ma'nosini va mazmunini ham to'g'ri ifodalashni o'rganadilar. Bu esa nutq madaniyati va savodxonlikni oshirishda muhim o'rin tutadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

- 1."Har bir soʻzni tinglovchiga kuchli va toʻliq ovozda yetkaza olish, rolni ijro etishdek muhimdir", deb kim yozgan edi?
2. Tovush va soʻzlarning talaffuz etilishiga nima deyiladi?
3. Artikulyatsiya nima?
4. Tovushni his qilish va ovozni tarbiyalash fanda nima deyiladi?
- 5.Pozitsion rezonator tovushni his qilishda kuzatiladigan sonar undoshlar qaysilar?

Mavzuni mustahkamlovchi testlar

1. Nutqiy toʻgʻri nafas olish nima uchun muhim?

- A) Nutqning ifodali va ravon chiqishini taʼminlash uchun
- B) Faqat tez gapirishga yordam berish uchun
- C) Nafas olishni boshqarishning nutqqa taʼsiri yoʻq
- D) Faqat sport mashqlari uchun kerak

Toʻgʻri javob:A) Nutqning ifodali va ravon chiqishini taʼminlash uchun

2. Toʻgʻri nutqiy nafas olish qanday amalga oshiriladi?

- A) Faqat ogʻiz orqali nafas olish
- B) Burun orqali chuqur nafas olib, diafragma orqali boshqarish
- C) Nafas olishga eʼtibor qaratmaslik
- D) Faqat ogʻiz orqali chuqur nafas olib, tez chiqarish

Toʻgʻri javob:B) Burun orqali chuqur nafas olib, diafragma orqali boshqarish

3. Ovoz ustida ishlash amaliyotining asosiy maqsadi nima?

- A) Ovozni yanada baland qilish
- B) Ovozni yanada ifodali, taʼsirchan va aniq qilish
- C) Ovozni pastlatish
- D) Faqat tez gapirishni oʻrganish

Toʻgʻri javob:B) Ovozni yanada ifodali, taʼsirchan va aniq qilish

4. Nutqiy nafas olishda eng koʻp ishlatiladigan texnika qaysi?

- A) Ogʻizni katta ochib nafas olish
- B) Diafragma orqali nafas olish va asta chiqarish
- C) Juda tez va qisqa nafas olish
- D) Faqat burun orqali tez nafas olish

Toʻgʻri javob:B) Diafragma orqali nafas olish va asta chiqarish

5. Ovozning sifatini yaxshilash uchun qanday mashqlar bajarish tavsiya etiladi?

A) Ovozli harflarni cho‘zib talaffuz qilish va artikulyatsion mashqlar bajarish

B) Faqat baland ovozda gapirish

C) Har kuni faqat tez gapirishni mashq qilish

D) Ovozni kuchaytirish uchun baland qichqirish

To‘g‘ri javob: A) Ovozli harflarni cho‘zib talaffuz qilish va artikulyatsion mashqlar bajarish

9-MAVZU. O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BOLALARBOP BADIY ADABIYOT NAMUNALARI YORDAMIDA NUTQ O‘STIRISH.

Tayanch so‘zlar: bolalar adabiyoti namunalari, ifodali o‘qish, intonatsiya, mantiqiy urg‘u, pauza, temp, ifoda vositalari, Tizim, ta’lim, mantiq, mantiqiy o‘qish, she’riy asar, g‘oya, mazmun, tushuncha, xususiyat. badiiy tasvir vositalari, so‘z tartibi, badiiy-estetik ta’sir, mantiq, badiiy tasvir, voqelik, xayolot.

9.1 Bolalar adabiyoti namunalari yordamida nutq o‘stirish.

Davlatimiz rahbari yosh avlod ta’limi va tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb etish zarurligini ta’kidlaganlar. Yosh avlodning to‘g‘ri tarbiyasini amalga oshirish uchun go‘daklikdan boshlab, fikr va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirish, kelajakda yuksak bilim, ma’naviyat va axloqqa ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim, chunki bu tizim yoshlarning rivojlanishida asosiy bo‘g‘in hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini adabi nutqini o‘stirishni 1-sinf dan boshlab xalq og‘zaki ijodi yordamida shakllantirmog‘immiz lozim. Bu ishni amalga oshirishimizga ertaklarni so‘zlab berish, o‘qib berish, rollarga bo‘lib ijro ettirsak o‘quvchilar o‘z o‘zidan adabiyotga qiziqadi shu bilan birga adabiy nutqi ham shakllanib boradi.

Ertak xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlaridan biri bo‘lib, unda to‘qima va uydirma asosida sehrli sarguzashtlar yoki maishiy xarakterdagi epik badiiy asarlar keltiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklarni aytish, o‘qish yoki

hikoya qilib berishning asosiy maqsadi bolalarni insoniy fazilatlar asosida tarbiyalashdan iborat. Bu nafaqat bolalarni dunyoqarashini shakllantirishga, balki ularning nutqini rivojlantirishga, diqqat va xotira kabi aqliy ko'nikmalarini oshirishga ham yordam beradi. Ertaklar bolalar uchun tasavvur va motivlarni shakllantiruvchi muhim vositadir.

Maqol esa xalq og'zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Boshlang'ich ta'limda maqollardan foydalanish bolalar nutqining rivojlanishiga, ularning hayotiy tushunchalarini boyitishga yordam beradi. Eng muhimi, har bir maqol mazmunida insoniy fazilatlar – vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzat, do'stlik, rostgo'ylik, halollikka o'rgatish, shuningdek, yomon illatlardan holi bo'lishga chaqirish aks etadi. Bular Boshlang'ich ta'limdatarbiyalanuvchilarga o'rgatiladigan muhim qadriyatlardir.

Boshlang'ich ta'limda nutqiy vazifalarni hal qilish uchun mos sharoitlar yaratish zarur. Bunday sharoitlar bolalarda gapirish, atrofdagilarni nomlash va nutqiy muomalaga kirishish istagini uyg'otadi. Nutqiy faollikni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalashni o'rgatadi va ularni so'z boyligini kengaytirishga, muloqotda samarali ishtirok etishga tayyorlaydi.

Hikoya qilish (monologik nutqqa) o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim jarayon hisoblanadi. Monologik nutqni egallash, bolalarni maktabga tayyorlashda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Maktabda esa bu fazilat yanada mustahkamlanadi, chunki bog'lanishli nutq tafakkurning shakllanishiga, uning turli xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Hikoya qilish bolalarga o'z fikrlarini aniq va mantiqan ifodalashni o'rgatadi. Bu jarayon, shuningdek, bolalar so'z boyligini oshiradi, jummalarni to'g'ri tuzish va mazmunni kompozitsiyaga joylashtirishni o'rganishlariga yordam beradi. Hikoya qilishda bolalar, ko'rgazmali bo'lmagan og'zaki hikoyalarni tinglash va tushunish ko'nikmasini rivojlantiradilar. Ular, shuningdek, tinglagan hikoyalarini o'zlariga qayta hikoya qilib berish orqali o'z fikrlarini aniq ifodalashni va o'ziga xos tafakkur tarzini shakllantiradilar.

Shu bilan birga, 1-sinf o'quvchilari ham oddiy hikoyalar tuzish, ularga o'z fikrlarini izchil ravishda ifodalashni o'rganadilar. Bu jarayon ular uchun muloqot qilish va atrofdagi dunyoni tushunishning eng yaxshi usuli bo'ladi. Bolalar uchun hikoya qilish, faqatgina so'z boyligini oshirish emas, balki o'zini ifodalashda, mantiqiy fikrlashda, va ijodiy tasavvurda ham yordam beradi.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish – boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun juda muhim jarayondir. O'qituvchi bolalarni bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari bilan tanishtiradi va ularda adabiy tushunchalarni shakllantirishga

yordam beradi. Bu jarayon davomida tarbiyachi bolalarda ayrim oddiy ko'nikmalarni rivojlantiradi, masalan, badiiy asarni tinglash va tushunish, uning qahramonlari haqida mulohaza yuritish kabi ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Bolalar badiiy asarlarni tinglash orqali, ayniqsa, sodda va oson she'rlarni eslab qolishlari, ifodali o'qish va yod aytishlari kerak. Bu vazifalar bolalarda axloqiy qiyofa va estetik tuyg'ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularda yaxshi fazilatlar, go'zallikka bo'lgan mehr va sezgirlikni rivojlantiradi. O'qituvchi, shuningdek, har bir bolada suratlarni tomosha qilishga, o'qishga qiziqish uyg'otishga, kitob bilan to'g'ri muomala qilishga va o'z bilimlarini boshqalar bilan baham ko'rishga o'rgatishi zarur.

O'qituvchining asosiy maqsadi – badiiy so'zning bolalarning doimiy hamrohi bo'lishini ta'minlashdir. Bu, o'z navbatida, bolalarda nutqni rivojlantirish, so'zlashuvda badiiy ifodalash va tasavvurini kengaytirishga yordam beradi. Badiiy so'z bolalarning kundalik nutqida yangrab turgan, bayramona va tantanali kayfiyatni yaratadigan vositaga aylanishi kerak. Inssenirovkalar, dramalashtirilgan o'yinlar, kinofilmlar orqali esa badiiy so'z jonlanib, bolalar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlariga yordam beradi.

Shunday qilib, badiiy adabiyot bilan tanishtirish bolalarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, axloqiy va estetik tuyg'ularni shakllantirish, shuningdek, ular uchun kitob va o'qish bilan to'g'ri munosabatni o'rgatish uchun muhim vositadir.

Yuqorida biz bolalar nutqini o'stirishning asosiy vazifalaridan ikkitasini ajratib ko'rib chiqdik. Ushbu vazifalar boshlang'ich sinf barcha sinflarida hal etilishi zarur. Ammo, ularning mazmuni bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab turlicha bo'ladi. Har bir vazifa o'zining aniq mazmuniga ega bo'lib, bolalarning yoshiga mos ravishda shakllanadi.

Bundan tashqari, ko'rsatilgan vazifalar ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Ta'limiy jihatdan, ular bolalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berib, ular uchun so'z boyligini oshirish va nutqni to'g'ri ishlatish imkonini yaratadi. Tarbiyaviy jihatdan esa, bu vazifalar bolalarda yaxshi axloqiy fazilatlarni shakllantiradi, ularga to'g'ri so'zlashni, boshqalar bilan muloqotda bo'lishni o'rgatadi va ularni axloqiy jihatdan rivojlantiradi.

9.2 Badiiy matnni ifodali nutq bilan o'qish. Ifodali o'qishda ohang, ritm, qofiya, to'xtam (pauza).

Badiiy adabiyot paydo bo'lishi bilan uning ifodali o'qishning og'zaki ijrochiligi ham maydonga keldi. Badiiy adabiyotning shakllanish bosqichlari g'oyat murakkab, rang-barang bo'lgani kabi, uning og'zaki ijrochilik taraqqiyoti ham ziddiyatlidir.

Zotan, o'zbek badiiy so'z ijrochilari san'atining sarchashmalari tarixning juda uzoq qatlamlariga borib taqaladi. O'rta Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixida ifodali o'qish san'atiga bo'lgan e'tbor alohida mavqe kasb etadi. O'zbek pedagogikasi tajribalari, ifodali o'qishni quyi sinflardan boshlab mashq qilishini va uni keyinchalik asta-sekin takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bola dunyoni so'z bilan qabul qiladi. Dunyoga so'z orqali kirib boradi.. Keksalarimiz bola uch yoshgacha yurmasa yurmaydi, olti yoshgacha gapirma gapirmaydi, deyishadi. U maktabga borgunga qadar hayot uchun zarur bo'lgan yuzlab, minglab so'zlarni o'rganadi. Bu davrda quyidagi bosh omil bola yoki o'quvchining so'z boyligini oshrishga va ifodali o'qish ko'nikmasini takomillashtirishga ijobiy ta'sir etadi.

1. Oiladagi muloqot
2. Maktabdagi muloqot
3. Ko'chadagi muloqot
4. Ijodiy muloqot
5. Ta'lim va tarbiya bilan bog'liq mustaqil muloqot.

Har bir bola dastlabki nutq malakalarini oilada egallaydi. Endigina so'zlashni o'rganayotgan bola so'zlarni chala, yarim talaffuz qiladi. Shu paytda oiladagi kattalar uning nutqini, chala yoki noto'g'ri aytgan so'zini to'g'irlashlari zarur. Agar kattalar ham bolaga qo'shib nonni «nanna» suvni «uvva» tarvuzni «tavuz» deb gapirsalar shunday deyishga o'rgangan bolaning nutqini to'qrilash uzoqqa cho'zilib ketadi. Maktabga o'qishga kelgan bola birinchi kundayoq o'ziga notanish bo'lgan son- sanoqsiz so'zlar majmuasi bilan tanisha boshlaydilar. Masalan: qo'ng'iroq, sinf, dars, tanaffus, o'quvchi va o'qituvchilar ular so'zining farqi va h. Ta'lim jarayoni davomida ular tomonidan qo'llaniladigan fanga oid so'zlar ko'payib, takomillashib boraveradi.

Yozuv darsida mashq, grammatika, qoida;

matematikadan: qo'shish, ayrish, ko'paytirish, bo'lish, yig'indi, echish, masala, misol;

O'qish darslarida: sarlavha, matn, hikoya, ertak, she'r va ularning farqini o'rganib boradi.

Ularni o'z nutqida ishlatishga harakat qiladi. O'quvchini o'rab olgan ijtimoiy muhit ham uning so'z boyligini oshrishda muhim omil hisoblanadi. Istiqlool tufayli ifodali o'qishga e'tibor kuchaydi. Bu sohaga oid dastur, qo'llanma va darsliklar yanada takomillashtirildi. Ifodali o'qish san'atiga katta qiziqish uyqonmoqda. Bugungi kunga kelib, ifodali o'qish san'atining bolalar boqchasidan boshlab, oliy o'quv yurtlarigacha dasturli tarzda mustahkam o'rin egallagan hamda fanning bu sohaga oid turli qo'llanma, majmua (xrestomatiya), darsliklarning yaratilayotganligi ifodali o'qish san'atiga bo'lgan e'tiborning va bu mavzuning dolzarbligining yorqin dalilidir.

Ifodali o'qish jarayonida nutq vositalaridan nafas, ovoz va nutq a'zolari faol ishtirok etadi. Ifodali o'qish kishi nutq faoliyatini maxsus e'tibor beriladigan jabhasi bo'lganligi uchun u kundalik maishiy nutqdan sezilarli farq qiladi. Shunga ko'ra, ifodali o'qishda nutq a'zolarining ishtiroki ham kundalik maishiy nutq jarayonidagiga qaraganda anchagina faol bo'ladi. Nutq a'zolarini faollashtirishga ko'maklashuvchi mashqlar majmuasiga esa nutq vositalari deyiladi.

Nutq vositalariga oid mashqlar usuli juda keng ko'lamli bo'lib, ularning umumiy majmuasi mustaqil bir qo'llanmani tashkil etishi mumkin. Shuning uchun bu erda, nutq vositalari haqida umumiy tushuncha va ayrim mashqlarni tavsiya etish bilan cheklaniladi. Ifodali o'qishning muhim vositalaridan biri nafasdir.

U kishi organizmi uchun ham asosiy ozuqa hisoblanadi. Shuning bilan birga, nutq so'zlash jarayoni, ayniqsa, ifodali o'qish san'ati nafas negizi bilan uzviy aloqadadir.

Nafas olinganda havo burun bo'shlig'idan kekirdakka boradi va nafas yo'li orqali o'pkaga o'tadi. O'pkaga kirgan havo qovurqa muskullarini kengaytiradi, natijada qovurg'alar qorin bo'shlig'idan birmuncha uzoqlashib ikki yonga kengayadi. Aniqrog'i, ko'krak qafasi har tomonga kengayadi. Shu bilan bir vaqtda qorin bo'shlig'ini ko'krak bo'shlig'idan ajratuvchi diafragma o'pkaning havoga to'lib kengayishi hisobiga pastga bosiladi.

Nafasning bu xususiyatlari, ayniqsa, ongli ravishda mashq qilayotgan paytida yoqqol sezilib turadi. To'g'ri nafas olish inson hayoti uchun ham, ifodali o'qish uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Agar noto'g'ri nafas olinsa, o'rinsiz

pauzalar qilayotgan matn mantiqan buziladi. Matndagi muallif maqsadi tinglovchiga to'g'ri etib bormaydi, fikr tushunarsiz bo'lib qoladi. Shuning uchun

oliy va o'rta ymymta'lim maktablarning o'qituvchilari o'zlarining va o'quvchilarning nafas organlari muskullarini chiniqtirib borishlari lozim. Bu borada amalga oshiriladigan chora tadbirlar insonni sog'lom va baquvvat qiladi, tovush va nutqning aniq, ravon, burro va jarangdor bo'lishini ta'minlaydi. Ovoz oliy asab tizimi signallarining mahsulidir. To'g'ri nafas olish hayot uchun naqadar zarur bo'lsa, ovoz ham kishilarning bir-birlariga bo'ladigan muomalasida katta ahamiyatga egadir. Oliy asab tizimi biror narsaga tikilish uchun ko'zlarga, biror narsani olish uchun qo'llarga, oldinga qadam tashlash uchun oyoqlarga buyruq berilgani kabi ovoz chiqarish, nutq tovushlari yoki so'zlarni talaffuz etish, ovozni jaranglashtirish yoki xirillatish, past yo baland gapirish uchun ham muayyan a'zolarga signal beradi. Oliy asab tizimining buyruqlarini bajarishda, ovozning muhim a'zolari bo'lgan halqasimon, piramidasimon va qalqansimon tag'aylar hamda ovoz paychalari asosiy ro'l o'ynaydi. Tembr hosil qilishda haqiqatan chiqayotgan tovushning yo'nalish darajasi muhim. Agar tovush faqat burundan chiqsa, xunuk, yoqimsiz, po'ngillagan tembr hosil bo'ladi. Tovush faqat qattiq tanglaydan chiqsa, rangsiz «oq tovush», ya'ni shang'i tovush hosil bo'ladi. Tovush yumshoq tanglaydan chiqib, qattiq tanglayga tegib o'tsa, jarangdor, yoqimli tovush hosil bo'ladi.

Tovushning so'nggi xossasi esa, uning balandligiga ovoz boylamlarining kengayish va tortilish darajasiga hamda ularning tebranish holati (tezligi yoki sekinligi)ga bog'liq. Boylamlar qancha ko'p tarang qilib tortilsa, ovoz shuncha baland, jarangdor: u qancha bo'sh bo'lsa, ovoz shuncha past va durillangan bo'ladi.

Demak, tovushning asosiy xossalari uning kuchi, tembri, baland-pastligi, ovoz boylamlarining o'zigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, eng avval oliy asab tizimi signallariga, qolaversa, tovush apparatiga taalluqlidir. Tovush apparati esa, ta'kidlanganidek, oliy asab faoliyatining umumiy qonunniyatiga, asosan, harakat qiladi. Bolalarning tovush apparati kattalarga nisbatan ancha nozikdir. Ayniqsa, boqchada, maktabda, tarbiyachi va o'qituvchilar bolalarning bo'lar-bo'lmasga baqirishlariga hamda birorta badiiy asardan olingan parchani kuchlari boricha baqirib-chaqirib o'qishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Agar biror badiiy parcha noto'qri diapazon va balandlikda baqirib, kuchayib o'qilsa, u holda ovoz muskullarining o'ziga xos bo'lmagan holatda ishlashga sabab bo'ladi.

Diktsiya lotincha «dictio», so'zidan olingan bo'lib, so'zlarni aniq, burro talaffuz qilish degan ma'noni anglatadi. Badiiy asarni ifodali o'qishda nafas va ovoz kabi diktsiyaning ham o'ziga xos o'rni bor. Badiiy asarni o'qishda

mazmunini hikoya qilishda va umuman, og‘zaki nutqda diktsiyaning qonun-qoidalariga rioya qilinsa, nutqning emotsional ta’siri yana ham oshadi.

Diktsiya orfoepiya bilan ham bog‘liqdir. Orfoepiya qoidalari esa, nutqning tabiiy, aniq, ravon hammaga tushunarli bo‘lishini talab qiladi. Maktablarda o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatishdan oldin har bir darsda unli va undosh tovushlarning, har bir so‘zining, har bir jumlaning lug‘aviy-frazeologik ma’nosini tushuntirib, so‘ngra shu so‘zning talaffuzini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Biror jismning boshqa jismning ta’sirida tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshitilishi tovushning akustik (eshitilish) tomonidir. Jismning tebranishi havoni to‘lqinlantiradi, natijada tovush hosil bo‘ladi. Nutq tovushlari oliy asab tizimi signali tufayli tovush paychalarining tebranishidan nutq a’zolarida hosil bo‘ladigan shovqindan iboratdir. Akustik jihatdan tovushning balandligi, kuchli tembri va cho‘ziqli farqlanadi.

Tovushning balandligi tebranishning miqdoriga boqliq: tebranish qancha ko‘p bo‘lsa, tovush ham shunchalik baland bo‘ladi va aksincha tebranish oz bo‘lsa, tovush ham past bo‘ladi. Tebrangich qancha kichik bo‘lsa, u shuncha tez tebranadi, binobarin, tovush ingichka chiqadi. Nutq tovushlarining kuchi tebranishning shiddatli bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Tovushning kuchi o‘pkadan chiqayotgan havo oqimining nutq organlariga qanday zarb bilan urilishiga qarab har xil bo‘ladi.

Nutq tovushining tembri (sifati) asosiy ton bilan yordamchi tonlarning va shovqinning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Tovushlarning tembri rezonatorlik vazifasini bajaruvchi og‘iz bo‘shlig‘i va burun bo‘shlig‘idan hajmi hamda shakliga, shuningdek, og‘iz bo‘shlig‘i va bo‘g‘izda hosil bo‘ladigan shovqinlarga bog‘liq. Shunga ko‘ra, bir kishining ovozi boshqa kishining ovozidan farq qiladi. Chunki har kimning og‘iz va burun bo‘shlig‘ining tuzilishi o‘ziga xos bo‘ladi. Bundan tashqari, tovush paychalarining uzunligi ham turlicha va og‘iz bo‘shlig‘ida, ba’zan bo‘g‘izda hosil bo‘ladigan shovqin ham har xildir. Tovushning cho‘ziqlik darajasi tebranish davom etgan vaqt bilan o‘lchanadi. Nutq tovushlarining hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi a’zolar nutq a’zolari, ularning jami esa nutq majmui deyiladi.

Nutq majmuiga quyidagilar kiradi: ostki va ustki lab, tishlar, til, tanglay, kichik til, bo‘g‘iz usti, burun bo‘shlig‘i, halqum, bo‘g‘iz, bronx va boshqalar.

1.Urg‘u haqida umumiy ma’lumot. Urg‘u ifodali o‘qishning asosiy vositalardan biri ekanligi va uning o‘ziga xosligi. Urg‘uning xilma-xilligi.

Urgʻuning ifodali oʻqishda qoʻlaniladigan zaruriy turlari. (Soʻz urgʻusi va mantiqiy urgʻu):

Oʻqish savodxonligi darsida ifodali oʻqish oʻquvchilarning axloqiy fazilatlari va oʻqishga moyilligini tarbiyalashga, ularning ijodiy qobiliyatlari va nutqini rivojlantirishga yordam beradi, shuning uchun boshlangʻich maktab oldidagi asosiy vazifalardan biri kichik yoshdagi oʻquvchilar uchun ifodali oʻqish koʻnikmalarini oʻzlashtirishdir. Davlat taʼlim standarti va boshlangʻich umumiy taʼlimning asosiy taʼlim dasturi talablari. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini nutqini rivojlantirish tizimida ifodali oʻqish muhim rol oʻynaydi. Ifodali oʻqish mahorati aqliy va nutq faoliyatining eng muhim turi sifatida va umumiy tarbiyaviy xususiyatga ega boʻlgan va kichik yoshdagi oʻquvchilar tomonidan boshqa barcha oʻquv fanlarini oʻrganishda, Matnni ifodali oʻqish ifodalilik kabi oʻqish mahoratining sifatiga asoslanadi. Ifoda vositalariga intonatsiya, mantiqiy urgʻu, pauza, temp, ovozning kuchi va balandligi kiradi. Oʻqish savodxonligiva Oʻqish savodxonligi darslarida oʻqituvchi oʻquvchilarning ifodali oʻqishini rivojlantirish ustida ishlaydi. Ifodali oʻqish mahoratiga oʻrgatishda asosiysi matnni tushunish,muallifning asar qahramonlariga munosabati, shuningdek tasvirlangan voqealarga ozining munosabati hisoblanadi.

Ertaklarni ifodali oʻqish oʻqish fanining asosiy bosqichlaridan biridir. U ertaklarni hissiy va yaxlit idrok etishni taʼminlaydi va oʻquvchida nutqning talaffuz madaniyati bilan bogʻliq boʻlgan muayyan koʻnikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ifodali oʻqish qobiliyati tabiiy qobiliyat emas, uni doimiy ravishda diksiya va ovozni oʻrgatish orqali rivojlantirish va rivojlantirish mumkin va kerak. Oʻquvchilar ifodali oʻqish asoslarini egallashlari uchun nafasni toʻgʻri taqsimlashga oʻrgatish, ular toʻgʻri artikulyatsiya koʻnikmalarini egallashlari, nutqlarini puxta rivojlantirishlari kerak. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

✓ Nutq jarayonida nafasni toʻgʻri olish va toʻgʻri taqsimlay bilish.

✓ Har bir tovushning toʻgʻri artikulyatsiyasiva diksiya (burro gapirish) malakasini egallash.

✓ Adabiy talaffuz meʼyorlarini egallash.

Oʻqish savodxonligi darslarida ifodali oʻqishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga boʻlinadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asarning gʻoyasini belgilash, yaʼni asarning gʻoyaviy-

mavzuviy asosini , uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qaysi joyida to‘xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg‘uning o‘rmini, o‘qish tempini belgilab olish.

3. O‘qishni mashq qilish, muallif fikrini, uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olish uchun matnni qayta o‘qish.

Badiiy o‘qish ifodali o‘qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda soz san’atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o‘quvchidan asar ruhiga batomom kirishni, san’atkorona o‘qishni talab etadi. Badiiy o‘qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to‘la anglab yetilgandagina ta’sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o‘qishga tayyorgarlik ko‘rishda aktyorlarning audio-video tasmalarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Badiiy o‘qishning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan omillardan biri tanlab o‘qishdir. Masalan, 3-sinfda X.To‘xtaboyevning “Hassa” hikoyasi bilan tanishish jarayonida Qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S. Anorboyevning “Babs” hikoyasidagi epizodi yuzasidan o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra mazkur o‘rinlarni tanlab qayta o‘qilishi natijasiga ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o‘zlashtirishga erishiladi. Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o‘quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo‘llanilarigan usuldir. O‘qish darslarida reproduktiv metod keng qo‘llaniladi. Xo‘sh, bu usulni qachon qo‘llash mumkin? Bu usullar o‘quvchilarning yangi tushuncha, hodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari darajasini baholash asosida qismlarga ajratiladi. Reproductiv usullar o‘quvchilarning o‘quv materiallarini mustahkamroq eslab qolishlarini ta’minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tez aniqlash uchun amaliy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladi.

9.3 Badiiy asar matnidagi badiiy-tasviriy vositalar

Badiiy matnda, boshqa uslub matnlaridan farqli o‘laroq, qat’iy mantiq, soddalik, tushunarlilik va normativlik kabi qonuniyatlarga doimo amal qilinavermaydi. Bunda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi, ta’sirchanlik esa birinchi planda turadi. Ohangdor va jozibador birliklar keng qo‘llanilib, tasvirlanayotgan voqelikda ichki bir garmoniya, uyg‘un bir musiqa seziladi. Bu matn insonni ruhan to‘lqinlashtirish, yig‘latish, kuldirish, hayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish va estetik tafakkurini shakllantirishga

xizmat qiladi. Voqea-hodisalarga teran va boshqacha nazar bilan qarashga o'rgatish kabi imkoniyatlar ham badiiy matnda mujassam bo'ladi.

Badiiy matn — badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan va o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlikdir.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida, adabiy janr turlari – ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq kabi asarlar bilan birga, badiiy til vositalari – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a kabi adabiy uslublar ham amaliy ravishda tanishtiriladi. Bu orqali o'quvchilar badiiy matnning boy va murakkab dunyosiga kirib, uning estetik go'zalligini va ma'naviy qiymatini anglash imkoniyatiga ega bo'lادilar.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda ona tiliga bo'lgan muhabbat hissi shakllanadi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi rivojlanadi va asar g'oyasini chuqur idrok etish uchun zamin hozirlanadi. Bu jarayon o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. O'zbek maktablarida taniqli rus metodist-olimlari, masalan, T. G. Ramzayeva, M. S. Vasileva, V. G. Goreskiy, K. T. Golenkina, L. A. Gorbushina, M. I. Omorokova, E. A. Nikitina, N. S. Rojdestvenskiy va boshqa mutaxassislar, shuningdek, o'zbek olimlaridan A. Zunnunov, K. Qosimova, Q. Abdullayeva, S. Matchonov, M. Yusupov, M. Umarova va X. G'ulomova tomonidan ishlab chiqilgan takomillashgan sinfda o'qish metodikalaridan ijodiy foydalanilmoqda.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilar o'z ona tilining go'zalligini anglab, uni chuqurroq o'rganishga kirishadilar. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Badiiy asarni tahlil qilish ko'nikmasi, o'quvchilarning matnni to'g'ri va samarali o'qishga o'rgatilishi bilan birga amalga oshiriladi. O'qish malakalarini shakllantirish va matn ustida ishlashning o'zaro bog'liqligi, asarni tahlil qilishning qanday yondashuvda amalga oshirilishini belgilab beradi. Bu jarayon o'quvchilarni badiiy asarlarni to'liq anglash va ulardan ma'naviy, estetik zavq olishga yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish darslarida asarni o'qishga kirishishdan avval, ularga badiiy asarni o'qishga tayyorlash zarur. Chunki o'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari uchun hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari lozim. "O'qish kitobi"dagi hikoyalarni tanlashda, didaktikaning umumiy mezonlariga, ya'ni g'oyaviylik, bayonning ilmiyligi va tushunarliqligi, ko'rsatmalilik, onglilik, o'quv materialining hayot bilan bevosita

aloqadorligi, bolalar yoshi va dunyoqarashi, o'ziga xos ruhiy xususiyatlarning hisobga olinishi asoslanadi.

Boshlang'ich sinflarda turli mavzudagi hikoyalar taqdim etiladi. Har bir hikoyada, avvalo, bolaning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea yoki hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi, uning mazmuni esa ertakdagidan ko'ra hayotiyroqdir. Shu sababli, hikoya mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri va voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida, o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabi asosiy ish turlari amalga oshiriladi.

Hikoya mazmuni, odatda, savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlar hikoya mazmunini tahlil qilish, dalillar, mulohazalar va xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar va xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun ishlatiladi. Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralarning ma'nosini tushuntirish ham muhim ahamiyatga ega, aks holda ular hikoya mazmunini to'liq tushunib yetishmaydilar.

Ertak janriga xos matnning jozibadorligi bolani o'ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyli bilan o'ziga xosdir. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi va unda inson hayoti, uning turli hayotiy lavhalari bayon etiladi. O'quvchilar, asosan, qahramonlarning xarakteri va ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf „O'qish savodxonligi" 3-qismidagi „Nega?.." (Zahro Hasanova), „Porloq yulduz" (Tamila Qosimova), „Mening bolaligim" (Said Ahmad), kabi qiziqarli hikoyalar berilgan. Ushbu hikoyalar mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakteri va xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlarga va vazifasiga ko'ra, o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Hikoyadagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi. Hikoya matni faqat uning mazmuni yoki badiiy xususiyatlarini o'rganish uchun emas, balki tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda hikoya sujeti, kompozitsiyasi va qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Hikoyani o'rganishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni va qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savollar tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi, ishni jonlantiradi va o'quvchilarga asar mazmunini yaxshiroq tushunish, o'z fikrini izchillik bilan bayon qilish malakasini egallashda yordam beradi. Shuningdek, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda ham o'quvchilarga yordam beradi.

Badiiy asar syujeti, kompozitsion tuzilishi va fabulasining qiziqarliligi bilan o'quvchini o'ziga jalb qilishi tufayli mutolaa jarayonida asar voqealari „Endi nima bo'lar ekan? Keyin nima bo'ladi?“ tarzida hayajonlanib kuzatiladi. Shunday ekan, o'qish darsliklariga kiritiladigan har bir asar yuksak badiiyat namunasi bo'lmog'i lozim. Bundan kutiladigan maqsad shuki, o'quvchi darslikka kiritilgan har bir asarni bir marta o'qib qo'ymasdan, uni qayta-qayta o'qib, o'ziga ma'naviy-estetik ozuqa oladigan bo'lsin.

Buyuk ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat „Adabiyot qoidalari“ qo'llanmasida: „Adabiyot – fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqinlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqinlarni yaratmoqdir“, – deb yozgan edi. Shu fikrlarni asos qilib olgan holda aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinfda o'qiladigan badiiy asar, birinchidan, o'z ona tilimizni o'quvchilarga o'rgatish, nutqini o'stirish, ikkinchidan, badiiy asar tili orqali o'quvchilar hissiyotiga ta'sir o'tkazib, ularni tarbiyalash, badiiy nuqta va nutq madaniyatini egallashlarini ta'minlash vazifasini amalga oshirishi ko'zda tutiladi.

Ta'limni tashkil etishning muvaffaqiyati, o'quvchilarning fan asoslarini egallashlarida nutqining boyiganlik darajasi, til hodisasini va ularning nutqdagi vazifasini o'zlashtirishlariga bog'liq. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qish darsliklariga tanlanadigan o'quv materiallariga e'tiborli bo'lmoq lozim. O'qish uchun tavsiya etilgan asar, qanchalik badiiy-estetik jihatdan yuksak maqomga va o'quvchi nutqini to'laqonli o'stirish imkoniyatiga ega bo'lmasin, uning tahlilida o'quvchining e'tiborini biz ko'zlagan maqsadga qaratadigan muammoli savol-topshiriqlar tizimi ishlab chiqilmas ekan, o'quvchini harakatga keltiradigan metod-usullar tadbiq etilmas ekan, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

O'quvchilarning asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlarini, sujet chizig'ini, kompozitsiyasini va tasviriy vositalarini tushunishlarini, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni, tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy jozibasini va

asar mazmunini ongli idrok etishlarini ta'minlash, muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, o'quvchini muallif hayajonlangan voqeadan hayajonga solish – asar tahlilida amal qiladigan muhim metodik qoidalar sanaladi.

O'quvchilarning nutqini o'stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atning bir turi ekanligini, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar. Asar tahlilida badiiy til vositalari — sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a va adabiy janr turlari — ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq kabilar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Qudrat Hikmatning «Ayamajiz» (3-sinf «O'qish kitobi») she'rida “Bo‘ralar qor kapalak”, “Bog‘lar sokin mizg‘ishar Misoli oq kapalak”, “Muz oynalar sovuq yeb” misralarida o'xshatish va jonlantirish badiiy vositalari qo'llangan. “Saxiy ona tabiat”, “quchog‘ida havo sof” misralarida esa metafora ishlatilgan. “Ayamajiz izg‘iydi, Ko‘chalarda tutoqib, Shox-shabbani tortqilar, Yalmog‘izdek yutoqib” kabi misralarda o'xshatish va jonlantirishlar yana bir bor o'z o'rnini topadi.

Qudrat Hikmatning «Qish to'zg'itar momiq par» (4-sinf “O'qish kitobi”) she'rida yuqoridagi badiiy vositalar yangi holatlarda yana o'zgacha joziba ko'rsatadi va bu o'quvchilarda shoir ijodiga qiziqish uyg'otadi. “Yerga serbar oq namat”, “Pirpiratib ko'zini Avtobuslar o'tadi, Qahraton qish hovurni Mo'rkon kabi yutadi”, “Tomlar kiydi oq qalpoq, Hovlilarda sep tepa, Osmon elak nazdimda, Shahrimizga un separ” kabi misralarda badiiy vositalar o'zining aniq va yorqin tasvirlari bilan ajralib turadi.

“Bumerang texnologiyasi”, “Arra” metodi kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qish materiali – badiiy asar ustida amalga oshiriladigan ishlarning aniq maqsadga yo'naltirilishini, o'quv harakatlarining bosqichma-bosqich tashkil etilishini, ta'lim oluvchilarga individual yondashishni, o'quvchilar faoliyatini kuzatish va tezkorlik bilan baholashni ta'minlaydi.

“Arra” metodida o'rganilayotgan badiiy matn tarkibiy qismlarga ajratiladi. Bu texnologiya 4-sinfda “O'qish kitobi” darsligiga kiritilgan barcha asarlarni o'rganishga tadbiq etilishi mumkin. Matn ustida ishlash tarbiyaviy xulosa chiqarish bilan yakunlanadi. Bunda asar qahramonlariga tavsif beriladi, bu orqali o'quvchilar o'zlariga hozirgi davr nuqtai nazari bilan yondashadilar: har

bir yigit ajdodlari kabi alp yigitlar, bahodir yigitlar bo‘lib yetishishlari uchun harbiy bilimlarni egallamoqliklari kerak degan xulosaga keladilar.

Musobaqa tashkil qilish:

1. “Ifodali o‘qish” musobaqasi. Hikoyaning bir qismi ifodali o‘qitiladi.
2. “Eng yaxshi hikoyachi” tanlovi. Asar matniga yaqinlashtirib qayta hikoyalash.

K. D. Ushinskiy qayd etganidek, to‘g‘ri qo‘yilgan masalaning o‘zi yarim javobdir. Shunday ekan, tahlildan ko‘zlangan maqsad va uni amalga oshirish yo‘li aniq bo‘lmog‘i lozim.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Bolalarbop badiiy adabiyot namunalari nutq o‘stirishda qanday rol o‘ynaydi?
2. O‘qish savodxonligi darslarida qaysi badiiy asarlar bolalarning nutqini rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi?
3. Badiiy adabiyotlardan foydalanib, bolalarda so‘z boyligini oshirish uchun qanday metodlar qo‘llanilishi mumkin?
4. Nutq o‘stirish jarayonida badiiy asarlarni tanlashda nimalarga e‘tibor berish kerak?
5. Bolalar bilan ishlashda badiiy adabiyotlar yordamida nutq o‘stirish samaradorligini qanday baholash mumkin?

Mavzuni mustahkamlovchi testlar

1. Bolalar nutqini o‘stirishda badiiy adabiyot namunalaridan foydalanishning asosiy maqsadi nima?

- A) Bolalarga faqat she‘r yodlatish
- B) Ularning so‘z boyligini oshirish va muloqot qobiliyatini rivojlantirish
- C) Faqat badiiy asarlarni o‘qishga o‘rgatish
- D) Bolalarni faqat kitob o‘qishga majbur qilish

To‘g‘ri javob: B) Ularning so‘z boyligini oshirish va muloqot qobiliyatini rivojlantirish

2. Bolalarbop badiiy adabiyot namunalarini tanlashda nimalarga e‘tibor berish kerak?

- A) Asarning qiziqarli va yoshga mos bo‘lishiga
- B) Kitobning faqat qalinligiga
- C) Faqat murakkab so‘zlardan iborat bo‘lishiga
- D) Faqat kattalar uchun yozilgan asarlarga

To'g'ri javob: A) Asarning qiziqarli va yoshga mos bo'lishiga

3. Badiiy asarlar orqali bolalar nutqini rivojlantirishning eng samarali usuli qaysi?

- A) Matnni ifodali o'qish, muhokama qilish va qayta hikoya qilish
- B) Faqat o'qish jarayonida o'ziga xos talaffuzni o'rgatish
- C) Matnni yodlatish va takrorlatish
- D) Asarlardagi murakkab so'zlarni tushuntirmasdan o'qish

To'g'ri javob: A) Matnni ifodali o'qish, muhokama qilish va qayta hikoya qilish

4. Qaysi badiiy janrlar bolalar nutqini rivojlantirish uchun ko'proq tavsiya etiladi?

- A) She'rlar, ertaklar, hikoyalar va maqollar
- B) Ilmiy maqolalar va hujjatli asarlar
- C) Faqat dramatik asarlar
- D) Faqat kattalar uchun yozilgan romanlar

To'g'ri javob: A) She'rlar, ertaklar, hikoyalar va maqollar

5. O'qish savodxonligi darslarida badiiy adabiyotdan foydalanish bolalarga qanday foyda beradi?

- A) Ularning nutqi boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi
- B) Faqat tez o'qishni o'rganishadi
- C) O'qish va yozish qoidalarini mukammal o'zlashtirishadi
- D) Faqat o'zbek tilini yaxshi bilishadi

To'g'ri javob: A) Ularning nutqi boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi

10-MAVZU. O'QUVCHILARDA RAVON NUTQNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.

Tayanch so'zlar: ravon nutq, dialog, muloqot, muomala, individuallaro, ichkiindividual, umuminsoni, akustik va artikulyatsion jihat, imitatsiya Metodi , Ravon o'qish, o'qish tezligi, to'g'ri o'qish, nutq , talaffuz, intonatsiya, nafas olish texnikasi, jismoniy mashqlar, suhbat.

10.1 Ravon nutq tushunchasi va uni rivojlantirish vazifalari.

Ravon nutq – kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo'lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantiqiy fikrlash, o'zi qabul qilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to'g'ri ifodalash qobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o'zgartirish

murakkablashib borayotgan bola faoliyati oqibati bo'lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta'lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro'y beradi. Bolalar hayotining dastlabki yetti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo'lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratish zarur. Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallaro, ichki individual va umuminsoniy.

Til millatning noyob xazinasi bo'lib, doimo og'zaki va yozma holda namoyon bo'ladi. Boy, yorqin va maroqli nutq so'zlayotgan kim bo'lishidan qat'iy nazar, tilning nuri hisoblanadi. Tilning oliyjanob imkoniyatlari nutq orqali ochiladi, chunki nutq bo'lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi. So'z va g'azal sultoni Alisher Navoiy, til va nutq munosabatlarini shunday izohlaydi: «Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa, tilning manfaatidir».

Demak, til qanchalik zo'r bo'lmasin, u nutq uchun qurol sifatida xizmat qiladi. Uning kuchi va qudrati nutq jarayonida namoyon bo'ladi. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati kamonning qudratiga ham bog'liq.

Ma'lumki, til inson aqlining va faoliyatining eng oliy va asosiy vositasidir. Chunki insonni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan ham til emasmi?! Shunday ekan, inson aqliy faoliyatining eng oliy mahsullari – tafakkur mevalari til va nutq orqali ro'yobga chiqadi. Til – tafakkur mahsulining hayotga tadbqiq etilish vositasi bo'lgan qudratli qurolidir.

Nutq vazifasi uning ontogenezdagi haqiqiy rivojlanish jarayoni bosqichlarini aks ettiradi, ular har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir:

1. Individuallaro vazifa – kishilar o'rtasidagi muloqot vositasidir. Ushbu holatda nutq og'zaki nutq bo'lib, monolog, dialog yoki bir nechta odamlar suhbatiga aylanadi.

2. Ichki individual vazifa – bu yerda nutq ko'plab ruhiy jarayonlarni (fikrlash, diqqat-e'tibor, xotira, tasavvur va boshq.) aniq va tiniq anglash darajasiga ko'tarib, shaxsga ruhiy jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilish imkoniyatini beradi, shu bilan birga ularni amalga oshirish vositasiga aylanadi.

3. Umuminsoniy vazifa – bu o'rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda, u grafik ramzlar va belgilarda moddiylashtirilgan yozma nutqdir.

Ta'lim muassasalarida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi:

- a) erkin nutqiy muloqotda;
- b) maxsus mashg'ulotlarda.

Dialog ko‘proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo‘ladi va u bolalar lug‘atini boyitish, talaffuzga oid grammatik ko‘nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg‘ulotlarda o‘qitiladi (oyiga 1-2 ta mashg‘ulot); ta‘lim muassasalarida bo‘lib turgan vaqt davomida bola erkin muloqotda pedagog va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim. Dialogik nutqni (yoki og‘zaki nutqni) o‘rgatish odatda suhbat shaklida, ya‘ni kattalar bilan bola o‘rtasida hamda bolalarning o‘zlari o‘rtasida fikr almashish shaklida ro‘y beradi.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o‘tkaziladi. Mazkur metodlar ko‘pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbat (so‘zlashish) usullari;

Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

Tayyorlangan suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri bolalarni suhbatlashishga o‘rgatish, ya‘ni suhbatdoshi so‘zlarini bo‘lmasdan tinglash, luqma tashlash uchun qulay paytni kutgani holda o‘zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so‘zlash.

Yo‘ldosh – talaffuz va grammatik ko‘nikmalarni mashq qilish, ma‘lum so‘zlar ma‘nosini aniqlashtirish.

Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoqlar, badiiy so‘z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yo‘naltirish, nutqiy muloqotni ta‘minlash, bolalar fikrlarini, ularning diqqat-e‘tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi.

Ravon nutq mohiyati. Maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan nutqning ikki shaklini – dialogik va monologik shakllarini ko‘rib chiqish lozim. Dialog ikki yoki bir necha so‘zlovchining biron-bir vaziyat bilan bog‘liq mavzudagi fikrlarining almashinuvi bilan tavsiflanadi. Dialogda, yuklamalardan foydalanilgan holda, sintaksik jihatdan sodda bo‘lgan darak, undov (iltimos, talab), so‘roq gaplarning barcha turlari namoyon etilgan. Til vositalari imoishoralar, mimika bilan kuchaytiriladi. Tarbiyachi shunday vaziyatni yaratishi kerakki, unda bolalar turli xil til vositalaridan foydalangan holda dialog tuzish – so‘rash, javob berish, tushuntirish, iltimos qilish, luqma tashlash va h.k. zaruratiga duch kelsin. Ushbu maqsadda bolaning oiladagi, maktabgacha ta‘lim muassasasidagi hayoti, uning do‘stlari va kattalar bilan munosabatlari, uning qiziqishlari va taassurotlari bilan bog‘liq turli xil mavzularda suhbat o‘tkazishdan foydalanish lozim. Aynan dialogda suhbatdoshni tinglash, savollar

berish, mazmundan kelib chiqqan holda javob berish qobiliyati rivojlantiriladi. Qayd etilgan malaka va ko'nikmalar monologik nutqni rivojlantirish uchun ham zarurdir. Tengdoshlar bilan dialogik muloqotni yo'lga qo'yish uchun kooperativ tusdagi faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur faoliyat asta-sekinlik bilan shakllanadi. Dastlab bolalar ro'y berayotgan hodisalarni sharhlagan holda, yaqinda turib harakat qiladilar. Ushbu vaziyatda nutq tengdosh bolaning mavjud bo'lishi va u bilan so'zlashish imkoniyati orqali rag'batlantiradi hamda u o'z faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish, shuningdek, ijtimoiy muloqot o'rnatish funksiyasini bajaradi. Bolalar o'rtasidagi muloqot asosan amaliy xususiyatga ega. Dialog ko'pincha shunday shaklga olib boriladiki, bunda bola sherigining qisqa luqmalariga harakat bilan javob beradi yoki ro'y berayotgan hodisaga nisbatan o'z munosabatini nonutqiy vositalar yordamida ifodalaydi. Ular orqali bolalar bir-biriga e'tibor berishni, do'stlarini tovushidan bilib olishni, tashqi ko'rinish detallarini sezishni, nutqiy muloqot qilishni o'rganadigan ko'plab xalq o'yinlari mavjud. Dialog muloqotini yo'lga qo'yish uchun stol o'yinlari va chop etilgan («loto», «domino») o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Juft bo'lib o'ynashda bolalar dialogik hamkorlik qilish usullarini: navbatga rioya qilish, bir-biriga xushmuomalalik bilan murojaat qilish, o'z nuqtai-nazarini dalil-isbotlar bilan himoya qilish, fikrlarini sherigi bilan muvofiqlashtirishni o'rganadilar. Bunday o'yinlarda biluvchanlikning asosi sifatida nutqiy topshiriqlarning har xil turlari ishtirok etishi mumkin, masalan: berilgan tovushli so'zlarni tanlab olish, akustik va artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarni tabaqalashtirish, umumlashtiruvchi nomlarni tasniflash, rasmlar turkumi asosida birgalashib hikoya qilish va h.k.

Bolalarda ravon nutqni rivojlantirish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi hisoblanadi. To'rtinchi sinf nihoyasiga kelib, bola kattalarga xos bo'lgan og'zaki nutqning asosiy shakllarini egallashi, ya'ni ravon nutqning ikki shakli – dialogik va monologik nutqni egallab olishi shart. Boshlang'ich ta'limning vazifasi bolalarda ravon so'zlashuv nutqni (dialogik nutq) va monologik nutqni rivojlantirishdan iborat. So'zlashuv nutqini shakllantirish vazifasi ko'p qirrali. Boshlang'ich ta'limning 1-sinf bosqichdagi bolalarda ularga qaratilgan nutqni tinglash va tushunish, bir-birini tinglash, savollarga javob berish va o'zi ham savollar berishi, suhbat mavzusi bo'yicha izchil javob berish qobiliyati shakllanadi.

Nutqning ushbu ikki turlari o'rtasidagi farq, matn ichidagi gapning mantiqiy aloqa turi bilan belgilanadi. Monolog doimo vaqtli yoki sabab-oqibatli aloqada bo'ladigan (bir-biriga nisbatan) borliq faktlari haqida xabar qiladi.

Vaqtinchalik aloqa ikki tomonlama bo'lishi mumkin: faktlar haqiqatdan ham bir vaqtdalik yoki ketma-ketlik munosabatlarida bo'lishi mumkin.

Bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladigan faktlar haqidagi xabarlar tavsif deb ataladi. Faktlar ketma-ket keladigan xabar bayon qilish deyiladi. Sabab-oqibatli munosabatlarda bo'lgan faktlar haqidagi xabarlar esa mulohaza deb yuritiladi.

Boshlang'ich sinfda o'quvchi ravon nutqni eshitadi. Dastlab bu unga nisbatan aytilgan luqmalar, so'ngra esa ertaklar, hikoyalar, kattalarning monologik nutqlari bo'ladi. Ravon nutqdan til elementlari - tovushlar, morfemalar, so'zlar, gaplarni ajratib olar ekan, bola ravon matnda har bir til elementining o'rnini eslab qoladi, bu esa ilk yoshdan boshlab nutqdan oldingi mashqlar boshlanadigan til sezgilarini rivojlantirish jarayonini tashkil etadi.

Ma'lumki, ravon nutqda o'quvchilarning boshqalar bilan voqea-hodisalar ta'siri natijasida o'zaro munosabati, aloqasi ifodalanadi. Bu ifoda bir yoki bir necha jumalalarda o'z aksini topishi mumkin. Ravon nutqning shakllanishida bolaning tevarak-atrof bilan munosabati, muomala shakli katta rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga avvalo, ona Vatan haqida dastlabki tasavvurlarni rivojlantirish boshlanadi. Unda «o'qish savodxonligi»da buyuk siymolar, sarkardalar, ulug' mutafakkirlar hayoti va ijodi to'g'risidagi mavzullarni tushuntirish orqali amalga oshadi. Ana shularning barchasi o'quvchilarning milliy qadriyatlarimiz haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish asosida ravon nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

10.2 Ravon nutq mohiyati

Boshlang'ich ta'limda ravon nutq mohiyati o'quvchilarning tilni to'g'ri va ravon ishlatish ko'nikmalarini shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Ravon nutq, birinchi navbatda, o'quvchilarning fikrlarini aniq, izchil, mantiqiy va tushunarli tarzda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'zaro muloqot qilish, fikr almashish va shaxsiy fikrlarini ifodalashda yordam beradi.

Ravon nutq orqali o'quvchilar o'z fikrlarini mantiqiy tartibda ifodalashni o'rganadilar. Bu esa, o'z navbatida, fikrlarni izchil va aniq ifodalash, suhbatlarda yoki muhokamalarda to'g'ri tushunish va anglash imkonini yaratadi.

Boshlang'ich sinfda fikrlarni mantiqiy ifodalash o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq, izchil va tushunarli tarzda ifodalashni o'rgatishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat til o'rganish, balki mantiqiy

fikrlashni ham rivojlantiradi. Fikrlarni mantiqiy ifodalash o'quvchilarga to'g'ri va ravon nutqni shakllantirishda, ijtimoiy muloqotda va bilim olishda muhim yordam beradi.

Fikrlarni mantiqiy ifodalashning asosiy unsurlaridan biri – fikrlarning izchil va tartibli bo'lishidir. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va to'g'ri tartibda bayon qilishni o'rganadilar. Masalan, ularga biror mavzuda hikoya qilish yoki biror voqeani tasvirlash vazifasi berilganida, ular mavzuga tegishli bo'lgan barcha jihatlarni ketma-ket, o'zaro bog'langan holda ifodalashga harakat qilishadi. Bu o'quvchilarning o'z fikrlarini mantiqan bog'lash va izchil tartibda ifodalashni rivojlantiradi.

O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar o'rganilayotgan mavzu yoki hodisalar haqidagi sabablar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishni o'rganadilar. Misol uchun, ular shunday savolga javob berishni o'rganadilar: «Nima uchun biror voqea sodir bo'ldi?» yoki «Bu hodisa qanday natijaga olib keldi?»

O'quvchilar o'z fikrlarini aniqlik bilan ifodalashni o'rganishlari kerak. Buning uchun ularga so'zlarning ma'nosi va to'g'ri qo'llanilishi haqida tushuncha berish zarur. O'quvchilar o'rganayotgan mavzularni tasvirlashda aniq so'zlarni ishlatishlari, noaniq yoki murakkab iboralardan qochishlari kerak.

Bu, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun juda muhim, chunki ular o'z fikrlarini to'g'ri va tushunarli tarzda ifodalashni o'rganishlari kerak.

Masalan, «Hayvonot bog'iga borib, qanday hayvonlarni ko'rdingiz?» degan savolga o'quvchilar ko'rgan hayvonlari haqida tasvirlab, har bir hayvonning o'ziga xos xususiyatlarini aytishlari mumkin.

3-sinf o'qish savodxonligining 3-qismida berilgan “Oila baxti” aramn xalq ertagining audio tarzda ertak berilgan o'quvchilar bu ertakni tinglab tushunishlari va berilgan topshiriqlarga javob berishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga nisbatan nutqning ikki shaklini - dialogik va monologik shakllarini ko'rib chiqish lozim. Dialog ikki yoki bir necha: so'zlovchining biron-bir vaziyat bilan bog'liq mavzudagi fikrlarining almashinuvi bilan tavsiflanadi. Dialogda, yuklamalardan foydalanilgan holda, sintaksik jihatdan sodda bo'lgan darak, undov (iltimos, talab), so'roq gaplaming barcha turlari namoyon etilgan. Til vositalari imo-ishoralar, mimika bilan kuchaytiriladi. O'qituvchi shunday vaziyatni yaratishi kerakki, unda bolalar turli xil til vositalaridan foydalangan holda dialog tuzishso'rash, javob berish, tushuntirish, iltimos qilish, luqma tashlash zaruratiga duch kelsin. Ushbu maqsadda bolaning oiladagi, o'rta maktab hayotidagi hayoti, uning do'stlari va kattalar bilan munosabatlari, uning qiziqishlari va taassurotlari bilan bog'liq turli

xil mavzularda suhbat o'tkazishdan shu bilan birga o'qish savodxonligi darsliklarida berilgan matn, hikoya, rivoyat, ertaklardan foydalanish lozim. Aynan dialogda suhbatdoshni tinglash, savollar berish, mazmundan kelib chiqqan holda javob berish qobiliyati rivojlanadi. Qayd etilgan malaka va ko'nikmalar monologik nutqni rivojlantirish uchun ham zarurdir. Tengdoshlar bilan dialogik muloqotni yo'lga qo'yish uchun kooperativ tushdagi faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur faoliyat asta sekinlik bilan shakllanadi. Dastlab bolalar ro'y berayotgan hodisalarni sharhlagan holda, yaqinda turib harakat qiladilar. Ushbu vaziyatda nutq tengdosh bolaning mavjud bo'lishi va u bilan so'zlashish imkoniyati orqali rag'batlantiradi hamda u o'z faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish, shuningdek, ijtimoiy muloqot o'rnatish funksiyasini bajaradi. Bolalar o'rtasidagi muloqot asosan amaliy xususiyatga ega. Dialog ko'pincha shunday shaklga olib boriladiki, bunda bola sherigining qisqa luqmalariga harakat bilan javob beradi yoki ro'y berayotgan hodisaga nisbatan o'z munosabatini nonutqiy vositalar yordamida ifodalaydi. Ular orqali bolalar bir-biriga e'tibor berishni, do'stlarini tovushidan bilib olishni, tashqi ko'rinish detallarini sezishni, nutqiy muloqot qilishni o'rganadigan ko'plab xalq o'yinlari mavjud. Dialog muloqotini yo'lga qo'yish uchun stol o'yinlari va chop etilgan («loto», «domino») o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Juf? bo'lib o'ynashda bolalar dialogik hamkorlik qilish usullarini: navbatga rioya qilish, bir-biriga xushmuomalalik bilan murojaat qilish, o'z nuqtayi nazarini dalil-isbotlar bilan himoya qilish, fikrlarini sherigi bilan muvofiqlashtirishni o'rganadilar. Bunday o'yinlarda biluvchanlikning asosi sifatida nutqiy topshiriqlarning har xil turlari ishtirok etishi mumkin, masalan: berilgan tovushli so'zlarni tanlab olish, akustik va artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarni tabaqalashtirish, umumlashtiruvchi nomlarni tasniflash, rasmlar turkumi asosida birgalashib hikoya qilish va o'qish savodxonligi kitobida berilgan rasmlardan foydalangan holda bu vazifalarni bajarishimiz mumkin.

Ma'lumki, ravon nutqda bolalarning boshqalar bilan voqealar va hodisalar ta'siri natijasida o'zaro munosabati va aloqasi ifodalanadi. Bu ifoda bir yoki bir necha jummalarda o'z aksini topishi mumkin. Ravon nutqning shakllanishida bolaning atrof-muhit bilan munosabati, muomala shakli katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ravon nutqni rivojlantirishda ancha-muncha tajriba, malaka va ko'nikmalar mavjudligini hisobga olib, ularda ravon nutqni shakllantirishda, avvalo, ertaklar matnini tinglashda nimalarga e'tibor berishimiz kerakligini aniqlab olish zarur. Bular, avvalo, ona Vatan haqida rivojlantirishdan boshlanadi. Unda "Boshlang'ich ta'lim"da o'quvchilarga buyuk siymolar, sarkardalar, ulug' mutafakkirlar haqida bilim berish nazarda tutilgan. Ana

shularning barchasi bolalarning milliy qadriyatlarimiz haqidagi bilimlarini aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish asosida ravon nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

2-sinf o‘qish savodxonligi darsligining 1-qismida “Ochiq osmon ostidagi muzey” mavzusini o‘quvchilarga tushuntirish bilan birga qanchalik chiroyli va betakror tarixiy yerlarimiz borligini ham ko‘rsata olamiz.

10.3 Ravon nutqni rivojlantirishda qo‘llaniladigan usul va texnologiyalar.

Nutq – insonning fikr va g‘oyalarini ifodalash, boshqalarga yetkazish uchun ishlatiladigan til vositasidir. Ravon nutq – bu fikrning aniq, to‘g‘ri, izchil va tushunarli tarzda ifodalanishidir. Ravon nutqni rivojlantirishda turli usul va texnologiyalar qo‘llaniladi. Ushbu usullar va texnologiyalar, bir tomondan, nutqning tezligi, oqimligi, ravonligi va tushunarli bo‘lishini ta‘minlasa, boshqa tomondan, nutq madaniyati va kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligi darslari jarayonida tog‘ri talaffuz va intonatsiyani darslikda berilgan she‘r, tez aytish, matn, ertaklarni aytib berishda o‘qutuvchi amal qilib bajarsa ularni qayta so‘zlab berganda o‘quvchi ham eshitganidek aytishga harakat qiladi.

Ravon nutqni rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri – to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyadir. Nutqdagi so‘zlar aniq talaffuz qilinishi, to‘g‘ri tonlama va intonatsiya bilan aytilishi kerak. Talaffuzni to‘g‘ri o‘rgatish va intonatsiyani sozlash uchun maxsus mashqlar bajariladi. Bunday mashqlar:

O‘qish savodxonligi darsligida berilgan so‘zlar va iboralarni takrorlash. Olmos, olma, atlas shunga o‘xshagan so‘zlarni aytishda nutqda tonlama va urg‘uni to‘g‘ri qo‘ya olsa bu so‘zlarni o‘z ma‘nosida ishlata oladi bunday so‘zlardan o‘rganishga qaratilgan mashqlar uchun ishlatilsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘qish savodxonligida berilgan mavzular yuzasidan lug‘at boyligini kengaytirish ravon nutqni rivojlantirishda eng muhim omillardan biri. Ko‘proq so‘z va iboralar bilish, nutqni yanada boy va mazmunli qilishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar lug‘at boyligini kengaytirish uchun

Ko‘proq badiiy kitob o‘qishi yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganishi ayniqsa adabiy va ilmiy asarlarni o‘rganish samarali.

Har bir so‘zning ma‘nosi va ifodasi to‘g‘risida o‘ylab, aniq va to‘g‘ri ishlatishga harakat qilishi lozim.

Ravon nutqni rivojlantirishda yozma nutqning ham o‘rni katta. Yozma nutqni shakllantirish va matn yozish orqali nutqning aniq va izchil bo‘lishini ta’minlash mumkin. Yozma nutqni o‘tkazishdan oldin reja tuzish, fikrlarni mantiqan tartibga solish va mavzuni puxta tahlil qilish.

Yozgan matnda fikrlarni aniq va ravon ifodalash, ortiqcha gaplar va noaniqliklardan qochish. Yozilgan nutqni o‘qib, uni tahlil qilish, qaysi joylarda yaxshilash kerakligini aniqlashi. Ravon nutqni rivojlantirishda jismoniy va psixologik holat ham muhim o‘rin tutadi. Nutqni ravon va aniqlik bilan aytish uchun tana tilini to‘g‘ri ishlatish zarur. Buning uchun quyidagi mashqlar qo‘llaniladi: Ovoz va nafas olish texnikasini rivojlantirish uchun turli jismoniy mashqlar, masalan, nafas mashqlari, yuz mushaklarini rivojlantirish uchun mashqlar.

Ovoz va nutqni to‘g‘ri chiqarish uchun chuqur nafas olish va uni boshqarish mashqlari. O‘z ovozingizni yanada ravon va kuchli qilish uchun suv ichish, bu sizning nutqingizni yaxshilashga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar ravon nutqni rivojlantirishda ham yordam beradi. Kompyuter dasturlari, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali nutqni o‘rganish va mashq qilish mumkin. Bunday texnologiyalar nutqni tahlil qiluvchi dasturlar, nutqning ravonligini, to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyani tahlil qilib, foydalanuvchiga feedback beradi.

Nutqni aniqlik bilan aytish va uni tahlil qilish uchun videolar va audio resurslar.

Nutqni rivojlantirishga mo‘ljallangan onlayn kurslar va platformalar orqali o‘rganish.

Har qanday o‘rganish jarayonida mashq qilish, tajriba orttirish muhimdir. Nutqni rivojlantirish uchun doimiy ravishda amaliy mashqlar bajarish kerak. Masalan:

To‘liq tayyorgarliksiz nutq so‘zlash, bu ravon nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

Yangi texnologiyalar yordamida mashhur shaxslarning nutqlarini tahlil qilish va o‘rganish.

Doimiy suhbatlarda ishtirok etish, fikrlarni aniq va tez ifodalashga o‘rgatadi.

Ravon nutqni rivojlantirish uchun ko‘plab usul va texnologiyalar mavjud. Bularni muntazam ravishda qo‘llash va amaliyotga joriy etish orqali nutqni boyitish, aniq va tushunarli qilish mumkin. Nutqni ravon ifodalash – bu faqat til bilish emas, balki uning madaniy va psixologik jihatlarini ham o‘z ichiga olgan

murakkab jarayondir. Har bir usul va texnologiya o'zining ahamiyatiga ega bo'lib, ular birgalikda samarali natija berishi mumkin.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Ravon nutq nima va uni rivojlantirishning asosiy tamoyillari qanday?
2. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish uchun qaysi interfaol metodlar samarali hisoblanadi?
3. Nutqni rivojlantirish jarayonida og'zaki va yozma mashqlarning o'zaro bog'liqligi qanday ahamiyatga ega?
4. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish va ularning muloqotga kirishuvchanligini rivojlantirish uchun qaysi o'yin va mashqlar tavsiya etiladi?
5. Ravon nutqni rivojlantirishda audio va video materiallardan qanday samarali foydalanish mumkin?

Mavzuni mustahkamlovchi testlar

1. Ravon nutq deganda nimani tushunish mumkin?
 - A) Tez gapira olish qobiliyatini
 - B) Grammatik jihatdan to'g'ri, tushunarli va ifodali gapirish qobiliyatini
 - C) Juda baland ovozda gapirishni
 - D) Faqat yozma nutqni to'g'ri shakllantirishniTo'g'ri javob: B) Grammatik jihatdan to'g'ri, tushunarli va ifodali gapirish qobiliyatini
2. O'quvchilarda ravon nutqni rivojlantirish uchun qanday mashg'ulotlar samarali hisoblanadi?
 - A) Faqat diktant yozish
 - B) Hikoya qilish, rolli o'yinlar, munozaralar va qayta hikoyalash mashqlari
 - C) Faqat matnlarni yodlash
 - D) Faqat yozma ishlarni bajarishTo'g'ri javob: B) Hikoya qilish, rolli o'yinlar, munozaralar va qayta hikoyalash mashqlari
3. Ravon nutqni shakllantirishda eng muhim omil qaysi?
 - A) O'quvchining so'z boyligini oshirish
 - B) Faqat talaffuzni to'g'rilash
 - C) Faqat grammatik qoidalarni yodlash
 - D) Faqat kitob o'qishTo'g'ri javob: A) O'quvchining so'z boyligini oshirish
4. Qaysi texnologiyalar o'quvchilarda ravon nutqni shakllantirishda qo'llaniladi?

A) Kommunikativ texnologiya, rolli o'yinlar, interfaol usullar

B) Faqat an'anaviy ma'ruza usuli

C) Faqat yozma ishlar orqali nutqni rivojlantirish

D) Faqat auditoriyada tinglash orqali nutqni rivojlantirish

To'g'ri javob: A) Kommunikativ texnologiya, rolli o'yinlar, interfaol usullar

5. O'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish uchun o'qituvchi qanday usullardan foydalanishi lozim?

A) O'quvchilarga erkin fikr bildirishga imkon berish va muhokamalarni tashkil qilish

B) Faqat matn o'qitish

C) Faqat grammatik qoidalarni tushuntirish

D) Faqat og'zaki javoblarni talab qilish

To'g'ri javob: A) O'quvchilarga erkin fikr bildirishga imkon berish va muhokamalarni tashkil qilish

11-MAVZU. SINFDAN O'QISH JARAYONIDA VA SINFDAN TASHQARI ISHLAR JARAYONIDA NUTQNI O'STIRISH BO'YICHA OLIB BORILADIGAN ISHLAR

Tayanch so'zlar: boshlang'ich sinf, nutq, nutq o'stirish, so'z, so'z birikmasi, gap, interfaol o'yinlar, o'qish savodxonligidarsi, o'quvchi, pedagog, o'qish savodxonligi darslari, STO' darslari, ta'limtarbiya, dunyoqarash, nutq, fikrlash, o'qish sifatlari, kutubxona, kitob, nutq,til, so'z nutq madaniyati, nutqni o'zlashtirish, nutq o'stirish.

11.1 Dars jarayonida nutq ustida ishlash.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi ta'limining bosh vazifasi o'quvchilar nutqini o'stirishdan iboratdir. O'quvchilarga o'z fikrlarini erkin va to'g'ri ifodalashni o'rgatish jamiyat uchun ham, psixologik, ham metodik jihatdan juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayni paytda bu hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarning nutqini rivojlantirish ishlari asosan dars jarayonida amalga oshiriladi. Darslarda o'quvchilarning ijodiy faoliyati qancha rivojlansa, ular o'z oldiga qo'yilgan aqliy vazifalarni shuncha

oson va muvaffaqiyatli bajarishadi. Bola topshiriqlarni bajarib o'rgangani sari, unda ijodiy fikr yuritish qobiliyati shakllanadi.

Shu sababli, boshlang'ich sinfning o'qish savodxonligi darsligida o'quvchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Har bir mavzu va topshiriq, avvalo, shu maqsadga xizmat qilishi lozim. Zamonaviy ta'lim konsepsiyasiga asoslanib, davr talablariga mos dastur va darsliklar yaratildi, bu esa o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi – bu murakkab jarayon bo'lib, o'qish savodxonligining asosiy maqsadi aynan shu parametrda mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda o'z ifodasini topadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalar darajasi aniqlanadi:

- Fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- Mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va boshqalar);
- Tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo'lishi;
- Tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- Og'zaki va imloviy (yozma) savodxonlik darajasi.

Bu ko'nikmalar o'quvchining og'zaki va yozma nutqining sifatlarini belgilab beradi va uning fikrlarni aniq, mantiqan to'g'ri, to'liq va ravon ifodalash malakalarini rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

Nutq – bu inson faoliyatining bir turi bo'lib, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) yordamida tafakkurni ishga solish jarayonidir. Nutq o'zaro aloqa o'rnatish, xabar berish, fikrni his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq – bu maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishning asosi, ya'ni ta'limning samarali vositasi hisoblanadi.

Nutqni rivojlantirishda uchta asosiy yo'nalish ajratiladi:

- 1) so'z ustida ishlash;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

Ushbu yo'nalishlar bir-biri bilan parallel ravishda olib boriladi: lug'at boyligini oshirish, yangi so'zlar o'rganish gap qurishda material bo'lib xizmat qiladi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash esa bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi.

O'quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ona tili o'quv dasturidagi mavzularni puxta o'zlashtirishga yordam berish zarur.

Bu jarayon o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini erkin va aniq ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, o'z fikrini ilgari surish, umumlashtirish va xulosalash qobiliyatlarini shakllantiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarda til materialidan foydalanishga qiziqish uyg'otadigan ilg'or o'qitish usullari va mashqlar tizimini ishlab chiqish, o'qish savodxonligi ta'limining samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu bois, o'qish savodxonligi ta'limiga quyidagi vazifalar yuklatiladi: o'quvchilarda nutqni rivojlantirishga qaratilgan samarali va ilg'or metodlarni qo'llash, nutqni yanada boyitish va uning to'g'ri ishlatilishiga e'tibor qaratish.

a) Ta'lim jarayonini tashkil etuvchi o'quvchi va o'qituvchi shaxslariga o'quv faoliyati subyektlari sifatida yondashish

b) O'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuvini ta'minlash

d) O'qituvchilar o'qish savodxonligi fanini o'qitishda takomillashtirilgan an'anaviy va noan'anaviy shakl, metod va vositalardan foydalanish

e) o'qish savodxonligi darslari loyihasining har bir bosqichiga til birliklari ustida ishlashni singdirish

f) O'quvchilarningona tili fani bilan bog'lagan holda tilni amaliy o'zlashtirishlari uchun leksik-grammatik mashq topshiriqlarini va tashkil etish usullarini takomillashtirib borish

g) O'quvchilar faoliyatini, o'zlashtirish darajasini doimiy o'rganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini belgilay olish

o'qish savodxonligi darslarini "muammoli" tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, jamoa bilan maslahatlashishni o'rgatish va muammolarni hal qilishda ishtirok etishga undashda interfaol usullar va o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Kichik guruhlarda ishlash", "6x6x6", "Lahzada aql charhi", "Qarorlar mojarosi" kabi metodlar, shuningdek o'yinlar o'quvchilarga o'z fikrlarini ifodalashda va jamoaviy ishda faol ishtirok etish imkonini beradi.

Ta'lim sohasida ilg'or texnologiyalarning joriy qilinishi o'quvchilarning o'qish sifatini oshirishga yordam bermoqda. O'quvchilar maktabga kelganidan boshlab maxsus metodlar va usullar yordamida o'z lug'at boyligini oshirishadi. Bu jarayonda o'quvchining atrofdagi muhit, tabiat, kishilarning hayoti, ijodiy va o'qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlari muhim manba hisoblanadi.

Dars jarayonida o'yinning turli bosqichlaridan foydalanish mumkin, ammo ular shunday rejalashtirilishi kerakki, o'quvchi og'ir aqliy mehnatdan keyin

o'yindan emotsional quvvat olsin, o'z harakatlarini o'rtoqlarining harakatlari bilan solishtirsin va tashabbuskorlikni rivojlantirsin.

Misol uchun, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi o'yinlar quyidagilardir:

1. „Kim ko'p so'z tuzadi?“ o'yini. Kartochkalarga bosma harflar tarqoqlikda yoziladi. O'quvchilar bu harflardan ishtirok etgan so'zlarni tuzadilar.

2. “O'yla, izla, top” o'yini. Berilgan matn ichidan ma'nodosh so'zlar topiladi, ularni guruhlab yoziladi va nima uchun bu so'zlar ma'nodosh ekanligi izohlanadi. Matn “O'qish kitobi” yoki ona tili darsligidan olinishi mumkin.

3. “Zanjir” o'yini. O'qituvchi ma'nodoshi bor bo'lgan so'zni aytadi, o'quvchilar parta ketma-ketligida unga ma'nodosh so'zni topib aytadilar. Ma'nodoshi qolmagandan so'ng, navbatdagi o'quvchi o'zi yangi ma'nodosh so'z aytib, o'yinni davom ettiradi. Bir qator partada o'tirgan o'quvchilar bir necha ma'nodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin.

O'yinni o'quvchilar ketma-ket tarzda davom ettiradilar, bu esa ularning til boyligini oshiradi va ularni fikrni to'g'ri ifodalashga o'rgatadi.

11.2 Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlar jarayonida nutq ustida ishlashning ahamiyati.

Sinfdan tashqari ishlar – umumiy o'rta ta'lim maktabida o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etishning shakllaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga va ularni hayotga tayyorlashga katta imkoniyatlar yaratadi. Bunday ishlar o'quvchilarga tarbiya va bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarlari hamda bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi. O'quvchilarni sinfdan tashqari ishlar bilan shug'ullanishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ommaviy ishlar: maktab klublaridagi tadbirlar, kechalar, munozaralar va tanlovlar o'tkazish, viktorinalar va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish.

- To‘g‘arak ishlari: o‘quvchilarning turli to‘g‘araklar, sport seksiyalari, ansambllarda qatnashish.
- Mustaqil ishlar: o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishi, kolleksiya to‘plashi, texnika, musiqa, tasviriy san‘at, chizmachilik va boshqa sohalarida mustaqil shug‘ullanish.

Sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning ijodiy va shaxsiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi o‘quvchilarning o‘qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlashda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muntazam ravishda kitob o‘qish va o‘qilgan kitobni to‘g‘ri baholay olish qobiliyatini shakllantirishdir. Bunday o‘qish orqali o‘quvchilar ongli kitobxon bo‘lib yetishadilar. Maktablarda sinfdan tashqari o‘qish darslari 1959 yildan boshlab tashkil etila boshladi.

Sinfdan tashqari o‘qish 1-2 sinfdan haftada bir marta, 3-4 sinfdan esa har ikki haftada bir marta o‘tkaziladi. Savod o‘rgatish jarayonida haftaning oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi sinfdan tashqari o‘qish uchun ajratiladi. Bu darslarning asosiy vazifasi o‘quvchilarda badiiy kitoblarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, o‘qigan kitoblar yuzasidan kundalik yuritish, va bolalar adabiyotining mashhur yozuvchilari hayoti va ijodi bilan tanishtirishdir.

Sinfdan tashqari o‘qish metodikasining vazifasi o‘quvchilarga o‘qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatini taqdim etish, yillik o‘quv rejasi va dars strukturalarini ishlab chiqishdan iboratdir. Kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

1. O‘zbek va chet el bolalar adabiyoti yozuvchilarining asarlarini tanlash.
2. Kitob tanlashda o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga xizmat qilishni ko‘zda tutish.
3. Asar janri va mavzusining xilma-xilligiga e‘tibor berish.
4. O‘quvchilarning yoshi va saviyasiga mos kelishini hisobga olish.
5. O‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlarini va mustaqil o‘qishga bo‘lgan istaklarini inobatga olish.
6. Mavsumiy tamoyillarga amal qilish.

Sinfdan tashqari o‘qish – bu hayotga tayyorlashning bir qismi bo‘lib, u o‘quvchilarga nafaqat bilim beradi, balki ularning estetik tasavvurlarini kengaytiradi. Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlik qilishning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o‘qish darslari hisoblanadi, u erkin tarzda tashkil etiladi. Bu darslarda o‘quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassurotlari, badiiy obrazlarni idrok etish qobiliyati va ijodiy faoliyati

rivojlanadi. Shuningdek, faol kitobxonga xos ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- Har bir dars kirish suhbat bilan boshlanishi kerak.

- Darsda o'quvchilarning o'qigan kitoblari va asarlari hisobga olinishi zarur.

- Har bir darsda yangi asarlar o'qish uchun tavsiya etilishi kerak.

- Dars davomida o'qilgan asar yuzasidan suhbat metodida tahlil ishlari olib borilishi lozim.

- O'qilgan asarlar bo'yicha ko'rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, asar muallifi haqida ma'lumotlar to'plash, albomlar yaratish va kitobxonlik kundaligini yuritish talab etiladi.

- Har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi va yakunlovchi suhbat o'tkazilishi kerak.

- Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'quvchida asar o'qish va tanlashda mustaqillikni rivojlantirish, shu maqsadda mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish.

- Qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitish, tez aytish, topishmoqlar topish, ifodali o'qish, maqollar aytish musobaqalari, ertak to'qish, bilimdonlar anjumani, konkurslar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish.

- Sinfdan tashqari o'qish uchun yil davomida taqvim rejasini tuzish. Bunda N.N. Svetlovskaya tomonidan ishlab chiqilgan sinfdan tashqari o'qish bosqichlariga rioya qilish zarur.

Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning yordamchi shakllariga quyidagilar kiradi:

1. Kitobni targ'ib qilish: Sinfdan tashqari o'qishga tavsiya etiladigan asarlar ro'yxati sinfda yoki maktabning maxsus joyida osib qo'yiladi va vaqt-vaqti bilan yangilanadi. Ko'rgazmalar tashkil etilib, o'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv: O'quvchi o'qigan kitoblar yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o'qigan asarlari hisobga olinadi, shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbatlar olib boriladi.

3. Ommaviy ishlar: Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar kabi tadbirlar maxsus tayyorlanadi.

Sinfdan tashqari o'qish o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kitobxonlik qiziqishlarini oshirishga katta yordam beradi.

O'quvchilarning o'qiganlarini hisobga olishda, ularning kitobxonlik kundaligidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. 1-sinf o'quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini yozadilar. 2-sinfda esa, unga nashr etilgan joyi va yilini qo'shib yozadilar. 3- va 4-sinf o'quvchilari esa o'qigan kitoblariga taqriz yozadilar, o'z mulohazalarini bildiradilar, ya'ni kitobga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydilar.

11.3 Nutqni o'stirish bo'yicha olib boriladigan ishlar metodikasi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish va nutq madaniyatini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada o'qituvchining roli hech qanday vosita bilan almashtirilishi mumkin emas. O'quvchilarning ravon va to'g'ri nutqini shakllantirishda va dunyoni anglashda o'qituvchining nutqining ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun o'qituvchi o'z nutqi ustida doimiy ravishda ishlashi, o'z fikrini chiroyli va ravon tarzda ifoda qila olish uchun puxta bilimga ega bo'lishi, nutq qonuniyatlarini mukammal bilishi kerak.

Savod o'rgatish jarayonidan boshlab o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Bu borada o'qish fani o'quvchilarning nutqini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qish fanining asosiy maqsadi o'quvchilarni to'g'ri, ongli, ravon va ifodali o'qishga o'rgatishdir. O'quvchi qancha ko'p o'qisa, uning nutq madaniyati rivojlanadi va mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N. Leontev quyidagicha ta'riflaydi: "Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir. Zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir".

Nutqni o'stirish - to'g'ri nutqni o'zlashtirish, egallash jarayoni bo'lib, til vositalari (fonetika, leksika va boshqalar) orqali o'z fikrlarini ifodalash, tushuntirish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning nutqni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatiga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Nutq - inson faoliyatining bir turi bo'lib, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) yordamida tafakkurni ishga solishdir. Nutq shaxsda o'zaro aloqa va xabar berish, o'z fikrlarini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining faoliyatining muhim vositasiga aylanadi. O'quvchi uchun esa nutq muvaffaqiyatli ta'lim olishda asosiy qurol hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishga katta ahamiyat berishimiz zarur.

Nutqni o'stirish - bu tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni) aktiv ravishda o'zlashtirish jarayonidir. Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutqni o'stirish shu jarayonni anglatadi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutqni o'stirish, o'quvchilarga tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni to'g'ri va samarali o'zlashtirishlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llashni anglatadi.

Nutq faoliyatini o'stirish uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini rivojlantirish uchun bir nechta muhim shartlarga rioya qilish zarur:

1. Nutqning yuzaga chiqishiga talab bo'lishi kerak: O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi, o'quvchining o'z fikrini og'zaki yoki yozma tarzda ifodalashga bo'lgan zaruriyatini yaratadigan vaziyatni yaratishdir.

2. Nutqning mazmuni bo'lishi lozim: Nutqni ifodalash uchun material to'liq, boy va mazmunli bo'lishi kerak, chunki mazmunli material bayon qilinsa, nutq shunchalik ta'sirli bo'ladi.

3. Nutqni tushunarli qilish: Fikrni tushunarli qilib ifodalash uchun so'zlar, so'z birikmalari, gaplar va nutq til vositalari yordamida amalga oshiriladi. Nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti — nutqni to'g'ri til vositalari bilan ifodalashdir.

Nutqni egallashning bir nechta aspektlari mavjud:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish.

2. Jamiyat uchun zarur bo'lgan nutq malakalarini, masalan, o'qish va yozish malakalarini egallash.

3. O'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish.

Nutq o'stirishda uchta asosiy yo'nalish mavjud:

1. So'z ustida ishlash.

2. So'z birikmasi va gap ustida ishlash.

3. Bog'lanishli nutq ustida ishlash.

Nutqni o'stirishning yana bir usuli — matn qurish usulidir, bu nutq mashqlarining turli bosqichlarida tayyorgarlik yoki yordamchi funktsiyalarni

bajaradi. Bu usul orqali o'quvchilar nutq mashqlarini tayyorlashda keng ko'lamli texnikadan foydalanadilar.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarining nutqini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar kompozitsiya kabi turli usullarni o'z ichiga oladi. Chunki insho yozishga tayyorlanayotganda uning turi va janriga qarab matn modeli aniqlanadi, reja tuziladi, tayanch so'zlar va konstruksiyalar ko'rsatiladi. Shuningdek, tayyorgarlik jarayonida bolalar mavzu bo'yicha savollarga javob beradilar, o'z fikrlarini bildiradilar, keyin esa o'zlari matn tuzadilar.

Og'zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda asosan bolalarning og'zaki nutqini o'stirish bilan birga nutqni grammatik tomondan to'g'ri shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi:

- Nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish;

- Sodda va qo'shma gaplar tuzishni o'rgatish, bunda barcha so'z turkumlaridan foydalangan holda bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe'lga to'g'ri ishlatishga o'rgatish malakalarini takomillashtirish;

- Tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, ravon gapirishga alohida ahamiyat berish;

- Mustaqil hikoya qilishni o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish bo'yicha olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ko'pchiligi o'z fikrini bayon qilishga, ifodalashga qiynaladi, uni mantiqan izchil bayon eta olmaydi. Bog'lanishli jumalarni noto'g'ri yoki o'rinsiz tuzish hollari juda ko'p kuzatiladi. Zero, ular hali gap qurilishini, mustaqil gaplarning o'zaro bir-birlari bilan bog'lanish shartlaridan xabardor emaslar. Shuning uchun, o'qish darslarida amalga oshirilayotgan nutqni rivojlantirish harakatlari ona tili darslarida matn ustida ishlashga oid mashqlar bilan uzviy bog'lab olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, o'qish va ona tili darslarida turli hikoyalarni o'yin orqali rivojlantirish imkoniyati ham mavjud. Masalan, "Qarama-qarshi so'zlar" o'yini, bu o'yin mantiqiy tafakkurning hamda nutqning rivojlanishiga yordam beradi.

O'yin shartlari quyidagicha: o'qituvchi bola yoki o'quvchiga bir so'zni aytadi, o'quvchi shu so'zning ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan so'zni topib aytishi kerak. Masalan: katta - kichik, issiq - sovuq, achiq - shirin, qorong'u - yorug', keng - tor, uzoq - yaqin va hokazo. Odatda bolalar o'yin boshida biroz qiynalishadi, aytilgan so'zga javoban antonim so'zni emas, sinonim so'z bilan javob berishadi, masalan: katta - baland, uzun - uzoq kabi. Ammo o'yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng, o'quvchilar o'yinni yaxshi o'ynay

boshlaydilar. O‘yin bir necha marta o‘tkazilgandan so‘ng, o‘quvchilar abstrakt tushunchalarni ham osonlik bilan tushunib, javob bera boshlaydilar. Bu orqali o‘quvchilarning nutqi rivojlanadi, masalan: chaqqon - yalqov, ishchan - dangasa kabi so‘zlarga ham tez javob topishadi.

“To‘rtinchisi ortiqcha” o‘yini quyidagicha o‘ynaladi: bu o‘yin rasmlarsiz o‘tkaziladi. O‘quvchiga yoki bolaga bir guruhga kiruvchi uchta predmet va boshqa guruhga mansub bitta predmet nomi aytiladi. Masalan: atirgul, boychechak, binafsha, qo‘ziqorin. O‘quvchi ular orasidan ortiqchasini aytganidan so‘ng, undan fikrini asoslab berishi so‘raladi. Bu o‘yinlar o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga yordam berishi bilan birga, nutqning o‘sishiga ham yordam beradi. O‘yin individual tarzda o‘tkazilsa ham yaxshi samara beradi, guruhda musobaqa ko‘rinishida o‘tkazilsa, o‘quvchilarning qiziqishi yanada ortadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Nutqni rivojlantirishning asosiy usullaridan qaysi biri sinfda qo‘llaniladi?
2. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish uchun sinfdan tashqarida qanday mashg‘ulotlar o‘tkazish foydali hisoblanadi?
3. Qaysi usul nutqni rivojlantirishda ko‘proq yordam beradi?
4. O‘qituvchi nutqni o‘stirish jarayonida qanday vositalardan foydalanishi mumkin?
5. Sinfdan tashqari nutqiy faoliyatni rivojlantirish uchun qanday tadbirlar tashkil qilish mumkin?

Mavzuni mustahkamlovchi testlar

1. Sinfda o‘quvchilarning nutqini o‘stirishning eng samarali usullaridan biri qaysi?
A) Faqat matnlarni yodlash
B) Ifodali o‘qish, suhbat, munozara va hikoya qilish
C) Faqat diktant yozish
D) Faqat grammatik qoidalarni tushuntirish
To‘g‘ri javob: B) Ifodali o‘qish, suhbat, munozara va hikoya qilish
2. Sinfdan tashqari nutqni o‘stirishga qaratilgan mashg‘ulotlarga qaysilar kiradi?
A) Kitobxonlik kechalari, adabiy tanlovlar, sahna ko‘rinishlari
B) Faqat mustaqil darslik o‘qish
C) Faqat yozma ishlar bajarish
D) Sinfdan tashqari hech qanday ishlar olib borilmaydi

To'g'ri javob: A) Kitobxonlik kechalari, adabiy tanlovlar, sahna ko'rinishlari
3. O'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish uchun o'qituvchi qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?

- A) Faqat an'anaviy darslarni o'tishi kerak
- B) Erkin fikrlash, savol-javob va muloqot muhitini yaratishi kerak
- C) O'quvchilar faqat o'qituvchini tinglashi kerak
- D) O'quvchilarni faqat yozma topshiriqlar bilan band qilish kerak

To'g'ri javob: B) Erkin fikrlash, savol-javob va muloqot muhitini yaratishi kerak

4. Nutqni rivojlantirish uchun qaysi faoliyat samaraliroq hisoblanadi?

- A) Matnlarni ifodali o'qish va uni qayta hikoya qilish
- B) Faqat og'zaki javob berish
- C) Faqat tinglash orqali nutq o'stirish
- D) Faqat yozma ishlar bajarish

To'g'ri javob: A) Matnlarni ifodali o'qish va uni qayta hikoya qilish

5. Sinfdan tashqari nutqiy mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy maqsadi nima?

- A) O'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini kengaytirish va ularning fikrlash doirasini oshirish
- B) Faqat kitob o'qitish
- C) Faqat rasmiy dars jarayonlarini davom ettirish
- D) O'quvchilarning nutqiga ta'sir qilmaslik

To'g'ri javob: A) O'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini kengaytirish va ularning fikrlash doirasini oshirish

12-MAVZU. MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQONA TARBIYANING O'RNI

Tayanch so'zlar: Muloqot ko'nikmasi, nutq o'stirish, so'z boyligi, ijodiy topshiriq, boshlang'ich ta'lim, maktab, metod, suhbat

12.1 Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning muloqot ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi.

Hozirgi paytda, mamlakatimizda va xorijda muloqot muammosiga qiziqishning oshib borayotgani, bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-birlari bilan muloqot qilishining ahamiyatini yanada oshirgan. Odamlar o'rtasidagi o'zaro aloqaning muvaffaqiyatli bo'lishi, ularning ichki sifatlari,

fazilatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Psixolog olim V.N.Myasishev muloqotni o‘rganishda chuqur izlanishlar olib borgan va uni jarayon sifatida tahlil qilgan. Uning fikricha, shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta’sir ko‘rsatishlari, o‘zaro idrok qilishlari bu jarayonning ajralmas qismidir. U shaxslarning turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatlarni namoyon qilishi mumkinligini ta’kidlagan.

Muloqot jarayoni, ayniqsa, ijobiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasida muvaffaqiyatli o‘tadi. Xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to‘g‘ri so‘zlashuv, vijdonlilik kabi sifatlarning muloqotda samimiyligni shakllantiradi. Samimiyligi, insonning eng oliy fazilatlaridan biri bo‘lib, voqea-hodisalarga oqilona munosabatda bo‘lish, turli ta’sirlarga berilmaslikni anglatadi. Shuning uchun, shaxslar bir-birini to‘g‘ri tushinishi va muloqot muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun, ularning o‘zaro samimiy aloqalari juda muhimdir.

Bolalar yoshlikdan boshlab, oilada, keyinchalik ta’lim muassasalarida muloqotga o‘rgatiladi. Bu jarayonning bir usuli, muloqot ko‘nikmalarini mashg‘ulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolalar, dastlab, bog‘cha sharoitida turli mashg‘ulotlar orqali muloqotga o‘rgatiladi. Bunda, bolaga o‘zini qanday tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi oddiy, lekin muhim fazilatlar o‘rgatiladi. Maktab davrida va undan keyin, shaxs ijtimoiy-psixologik treninglar orqali muloqotga o‘rgatishning samarali usullaridan biri bo‘lib, nutq bilan ishlash ham alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yin faoliyati orqali muloqotga o‘rgatish oson kechadi, chunki o‘yin – tabiiy tarzda muloqot qilishning eng samarali usulidir. Shaxs muloqotining shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim rol o‘ynaydi. Agar shaxsning muomala madaniyati yoshligidan shakllanmagan bo‘lsa, kuchli ta’sir etuvchi so‘zlarni ishlatsangiz ham, u ularni qabul qilmasligi mumkin. Shuning uchun, muloqotning shakllanishida maqsadning to‘g‘ri qo‘yilishi juda muhimdir.

Muloqot ta’lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi: oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar o‘rtasida qo‘pol munosabatlar bo‘lsa, bola ham shu tarzda atrofdagilar bilan muloqot qilishga moyil bo‘ladi. Shuning uchun, har tomonlama rivojlangan, komil insonni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlashga o‘rgatish zarur. Muloqot fikrlash bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bu jarayonni samarali boshqarish uchun biz bir nechta metodlar va topshiriqlarni tavsiya qilamiz.

Masalan, “Muxbir” metodi orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalashga o‘rgatiladi. Har bir o‘quvchi sinfda muxbir rolini o‘ynaydi, bu esa yangilik va motivatsiya beradi. Bu metod yordamida sinfda o‘zaro muhokama,

fikrlar qarama-qarshiligi ta'minlanadi, o'quvchilar o'z mulohazalarini erkin bayon qilishni o'rganadi. Jamoat oldida nutq so'zlash ko'nikmalari shakllanadi, o'quvchilar o'zlarini va boshqalarni tinglash va hurmat qilishni o'rganadi.

O'yin va noo'yin shakllari ham muloqotga o'rgatishda katta ahamiyatga ega. Darsda norasmiy muloqot elementlarini kiritish, didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarga muloqotda faol ishtirok etishga yordam beradi. E'tibor javoblarning ijobiy jihatlariga qaratilishi kerak, o'quvchilar o'rtoqlarining javoblarini xolisona baholashni o'rganadi. Kamchiliklarni qanday qilib yo'qotish haqida bahslashish va kamchiliklarni faqat o'quvchining o'ziga aytish orqali ta'sir qilish metodlari muloqotning samarali shakllanishiga yordam beradi.

Shunday qilib, muloqotga o'rgatishda o'yin va noo'yin shakllarini birlashtirish, o'quvchilarni o'z fikrlarini erkin ifodalashga undash va ular orasida ijobiy aloqalarni rivojlantirish uchun zarur metodlarni qo'llashning ahamiyati katta.

Bolalar nutqining rivojlanishi maktabda ta'lim olish jarayonida sezilarli darajada o'sadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha o'ylamasdan gapirishadi, lekin maktabga borish bilan ular nutqni o'rganish va ilmiy bilim sifatida talqin qilishni boshlaydilar. Maktabda grammatika o'rganilishi, nutqning fonetik jihatlarining yaxshilanishi va sintaksis tuzilishining takomillashishi bolalar nutqining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabda o'rganilayotgan fanlar orqali o'quvchilarning so'z boyligi oshadi, so'zlar mazmuni yanada chuqurlashadi, kengayadi.

Yozma nutqni o'rganish ham bolalar nutqining rivojlanishida muhim bosqichdir. O'quvchilar, o'qituvchilarning topshiriqlari asosida yozma ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Bunday topshiriqlarni tayyorlash vaqtida, o'quvchilar o'z fikrlarini qanday ifodalashlari kerakligini oldindan bilishadi. Yozma ishlarni tayyorlashda o'quvchilar o'z fikrlarini o'ziga-o'zi gapirib berishni mashq qilib turishadi, bu esa ularning nutqining rivojlanishiga katta ta'sir qiladi.

O'qituvchining nutqi ham bolalar nutqining rivojlanishida juda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'z nutqlarini takomillashtirishlari kerak, chunki ularning nutqi bolalar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Maktabda bolalar faqat og'zaki nutqda emas, balki yozma nutqda ham faol so'zlashishni o'rganadilar. Yozma nutqni, o'qish va yozishni o'zlashtirish o'quvchilar uchun hayotda hosil qilinadigan malakadir.

Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlarni bir-biriga qo'shish orqali so'z tuzishni o'rganadilar, lekin ba'zan so'zlarning asosiy mazmunini noto'g'ri

tushunishadi. Bu, o'quvchilarning lug'at boyligi kamligi yoki asosiy fikrni ajrata olmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga lug'at boyligini oshirish va ularni o'qilgan materiallardan mustaqil reja tuzishga o'rgatish vazifasini bajarishi zarur.

Mutaxassislar ta'kidicha, shakllangan o'qish mahorati kamida ikkita asosiy tarkibiy qismini o'z ichiga oladi. Birinchi qism – o'qish texnikasidir, ya'ni so'zlarni to'g'ri va tez anglash hamda talaffuz qilish. Ikkinchi qism esa matnni tushunishdan iborat. Bu ikkala komponent bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. O'qish mahoratini shakllantirishning dastlabki bosqichlarida o'qish texnikasiga e'tibor qaratish muhim bo'lsa, keyingi bosqichlarda esa matnni tushunishga katta ahamiyat beriladi. O'qish faoliyatini to'liq o'zlashtirish uchun, o'quvchilar o'qish usullarini va matnni semantik qayta ishlash usullarini bilishlari, shuningdek, o'z-o'zidan rivojlanmasligi kerak bo'lgan muayyan ko'nikmalar va qobiliyatlarga ega bo'lishlari lozim.

Shuningdek, "O'qish savodxonligi" atamasi o'qish tezligini tekshirishni emas, balki "savodli o'qish"ni anglatadi. Bunga ko'ra, o'quvchi matnlarni nafaqat tushunishi, balki ularning mazmunini mushohada qilishi, baholay olishi va o'z fikrini bildirish zarurdir.

14.3 Tadqiqotda qo'llaniladigan nutqiy topshiriqlarning tahlili.

Tadqiqotda qo'llaniladigan nutqiy topshiriqlarning tahlili o'quvchilarning o'qish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu topshiriqlar o'quvchilarni nafaqat matnni o'qish va tushunishga, balki undagi ma'no va mazmunni anglash, fikrlarini tartibga solish va o'zaro bog'liq fikrlarni birlashtirishga undaydi. Nutqiy topshiriqlar orqali o'quvchilar matndan

qanday ma'no hosil qilishni, qanday fikrlar va mulohazalar yaratishni, shuningdek, o'z qarashlarini aniq va lo'nda ifodalashni o'rganadilar.

Nutqiy topshiriqlar matnini tahlil qilish, uning mazmunini chuqur anglash va o'z fikrlarini izchil va mantiqiy tarzda ifodalashni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunday topshiriqlar yordamida o'quvchilar nutqiy ko'nikmalarini, mantiqiy tafakkurlarini va ijodiy fikrlashlarini yanada kuchaytiradilar. O'quvchilarga berilgan har bir topshiriq o'zining adabiy xarakteri bilan ajralib turadi, chunki ularning mazmuni to'g'ridan-to'g'ri o'quvchilarning hayot tajribalari va idroklariga asoslanadi.

Tinglab tushunish ko'nikmasi – faqat tinglangan ma'lumotni eshitish emas, balki uni to'g'ri anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikma muloqotda, ta'limda, ishda va kundalik hayotda juda katta ahamiyatga ega. Tinglab tushunish, aslida, tinglangan nutqni chuqurroq tushunishga, uning ma'nosini anglashga yordam beradi va bu orqali to'g'ri javob berishga imkon yaratadi.

Har qanday tilni o'rganishda to'rtta asosiy ko'nikma bor, va ulardan biri — tinglab tushunishdir. Bu ko'nikma, o'z navbatida, diqqat, xotira va sezgi kabi omillar bilan chambarchas bog'liq. Uchinchi omil – diqqatning yuqori darajasi, nutqni yaxshiroq tushunishga va unga tez va to'g'ri javob berishga yordam beradi. Agar biz tinglayotgan ma'lumotlarga e'tibor qaratgan bo'lsak, unda biz ularni to'g'ri anglashimiz va xotiramizda saqlashimiz mumkin bo'ladi.

Tinglab tushunish ko'nikmasining samarali rivojlanishi uchun, bu uchala omil, ya'ni diqqat, xotira va sezgi, bir-biriga mustahkam bog'langan holda ishlaydi. Diqqatni jamlab, nutqni tahlil qilish va eslab qolish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni samarali ravishda qabul qilish imkonini yaratadi.

Sezgi, tinglash tushunish ko'nikmasining ajralmas qismi bo'lib, ovoz, tonlama, intonatsiya va boshqa ovozli belgilarni to'g'ri tushunishga yordam beradi. Sezgilarimiz orqali biz nafaqat so'zlarning ma'nosini, balki ularni aytish uslubini, his-tuyg'ularni va muhitni ham idrok etamiz. Bu esa o'z navbatida, tushunish, idrok etish, o'z-o'zini nazorat qilish, fikrni aniq va to'liq ifodalay olish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, o'qitishning interfaol usullari yordamida o'quvchilar o'rtasida raqobat muhiti yaratiladi, bu esa ularning ilg'orligi va birgalikda bilim olish jarayonini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda tinglab tushunish o'quvchilarning ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon orqali bolalar o'quvchilarga quyidagi asosiy ko'nikmalarni o'rgatadi:

1. **Diqqatni jamlash:** O'quvchilar o'qituvchining so'zlariga diqqat bilan quloq soladilar, bu esa o'rganish samaradorligini oshiradi.

2. **Ma'lumot qabul qilish:** O'qituvchining tushuntirishini tinglab, bolalar bilimlarni oson o'zlashtiradilar.

3. **Savol berish va fikr almashish:** Tinglab tushunish jarayonida bolalar o'z fikrlarini ifodalash va savollar berish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. **Tanqidiy fikrlash:** O'quvchilar tinglagan ma'lumotlarini tahlil qilib, tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantiradilar.

Tinglab tushunishni rivojlantirishda o'qituvchilarga interaktiv usullar, multimediya resurslari va audio-vizual vositalarni qo'llash tavsiya etiladi. Bular o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Dunyo olimlari tinglab tushunish haqida quyidagicha fikrlar bildirganlar:

Jean Piaget: Piaget bolalarning kognitiv rivojlanishini o'rganib, "The Origins of Intelligence in Children" asarida bolalarning ma'lumotni qanday qabul qilishlari va tushunishlari haqida fikr yuritadi. U, shuningdek, bolalarning bilim va tushunchalarni qanday shakllantirishi, atrof-muhit bilan o'zaro aloqalar orqali bilim olishlarini ta'kidlaydi. Piaget, shuningdek, bolalarning nutq va tushunish qobiliyatlarining yoshga qarab taraqqiy etishini va bu jarayonning o'zaro tajriba va o'zgarishlarga asoslanganligini ko'rsatadi.

Nutqiy topshiriqlarni tahlil qilishda quyidagi metodlarni qo'llash samarali bo'ladi:

Lingvistik tahlil – matn tarkibidagi leksik, sintaktik va stilistik vositalarni chuqur o'rganish orqali uning semantik mazmunini yaxshiroq tushunish imkonini yaratadi. Ushbu usul, ayniqsa, o'quvchilarning matnga bo'lgan tanqidiy yondashuvini rivojlantiradi. Har bir so'z va iboralar o'zaro bog'lanib, matnning to'liq mazmunini shakllantiradi, shuning uchun ularni tahlil qilish orqali nafaqat tilning tuzilishi, balki uning ichki mazmuni ham chuqur anglanadi. Bu yondashuv o'quvchilarga matnni faqat o'qib chiqish emas, balki uning har bir elementini ongli ravishda tahlil qilish, uning fonetik va leksik jihatlaridan tortib, stilistik xususiyatlarigacha bo'lgan barcha aspektlarini o'z ichiga oladi. Bunda, o'quvchilar tilni faqat vosita sifatida ishlatib qolmay, balki uning tarkibiy qismlarini chuqur tushunishga o'rgatish orqali fikrlash va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishiladi. Nutqiy jarayonda nutq oqimi bilan birgalikda, unga qo'shimcha ravishda so'zlovchining yuz, ko'z, lab harakatlari, ovozning baland-pastligi kabi paralingvistik vositalardan foydalanish malakasi va ko'nikmasi bolalarda nutqiy muhitni bevosita kuzatish asosida shakllanadi. Nutqiy kompetensiya (kommunikativ kompetensiya) o'quvchining notanish matnni ifodali o'qiy olish, o'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash, uni og'zaki qayta bayon qila olish hamda fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darajasini anglatadi.

Lingvistik kompetensiya esa, maktab o'quvchisining til tizimi haqidagi bilimiga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarida bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llash tajribasiga ega bo'lgan o'quvchining shaxsiy xislatlarini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, lingvistik kompetensiya tilni ijtimoiy hodisa va belgilar tizimi sifatida anglashni, tilning qurilishi va funksiyalashishi haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni qamrab oladi. Bu kompetensiya o'quvchining o'qish savodxonligifanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya va punktuatsiya kabi bo'limlari haqidagi bilimlari va ulardan turli vaziyatlarda foydalanish malakasini o'z ichiga oladi.

O'qish savodxonligiva o'qish savodxonligini o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv, o'qituvchining yoshlarni til haqidagi bilimlarini oshirish bilan birga, muammoli vaziyatlarda bu bilimlardan o'rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalanish qobiliyatiga ega shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan. Shuning uchun, o'qish savodxonligiva adabiyot o'qituvchisi nafaqat bilimga ega yoshlarni tarbiyalash, balki ularga o'rinli ravishda bu bilimlardan foydalanish ko'nikmalarini ham berishga harakat qilishi kerak. Demak, ta'limning barcha turlarida, xususan, tilga oid ta'limda kompetensiyaviylikni rivojlantirishga e'tibor qaratish, barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'p darajali tahlil – matnni mikrostruktura va makrostruktura darajalarida o'rganish orqali uning umumiy mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Mikrostruktura, ya'ni jumla va iboralar darajasida tahlil qilish, matnning ichki tuzilishini, so'zlar va iboralarning bir-biri bilan qanday bog'lanishini aniqlash imkonini yaratadi. Bu, o'z navbatida, matnning mazmuniy va til vositalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Makrostruktura esa matnning umumiy tuzilishi va uning asosiy g'oyalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu orqali matnning umumiy mazmuni, uning maqsadi va asosiy fikrlarini to'liq anglash mumkin bo'ladi. Shunday qilib, matnni ko'p darajali tahlil qilish, uning har bir qismini chuqurroq o'rganishga va butun matnni yaxshiroq anglashga imkon yaratadi.

Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish – o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari asosida takomillashtirish jarayonidir. Bu metodika, o'quvchilarga nutqiy malakalarini oshirish va tilni samarali qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, ularning muloqotga tayyorligini va tilni turli vaziyatlarda to'g'ri va samarali ishlatish qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, lingvistik kompetensiya – til tizimi, grammatik va semantik tuzilmalar haqidagi bilim va malakalarni kengaytirish,

nutqni yaxshiroq tushunish va ifodalash imkonini beradi. Mustaqil ta'lim va o'quv topshiriqlari orqali o'quvchilar o'zlarini ifodalashda erkinlikka ega bo'lib, matnlarni tahlil qilish va izchil fikr bildirishni o'rganadilar. Shu tarzda, bu metodika o'quvchilarning til va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan samarali o'quv jarayonini tashkil etadi.

. Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda interaktiv usullar, multimediya resurslari va audio-vizual vositalardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ta'lim jarayonining samaradorligini yaxshilaydi. Ushbu usullar, o'quvchilarga o'rgatish jarayonini yanada jonli va interaktiv qilish imkonini yaratadi. Multimediya resurslari va audio-vizual vositalar yordamida ma'lumotlar faqat eshitilish bilan cheklanmay, balki ko'rish orqali ham o'zlashtiriladi, bu esa tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Interaktiv yondashuv, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va foydali qiladi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu tarzda, tinglab tushunish ko'nikmasi nafaqat tinglab, balki tushunib va anglab o'rganiladi, o'quvchilarning umumiy bilim olish jarayoni esa yanada samarali bo'ladi.

O'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda sinov-test topshiriqlari va ta'limiy o'yinlardan foydalanish juda samarali bo'ladi. Ushbu vositalar, o'quvchilarning bilimlarini yanada mustahkamlash va ularning nutqiy ko'nikmalarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatini yaratadi. Sinov-test topshiriqlari o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari va ko'nikmalarini tizimli ravishda tekshirishga yordam beradi, bu esa o'rganish jarayonini samarali va aniq qilib tashkil etadi. Ta'limiy o'yinlar esa, o'quvchilarga o'rgatilayotgan mavzularni qiziqarli va interaktiv tarzda o'zlashtirish imkonini beradi. O'quvchilar o'yin jarayonida o'z nutqiy ko'nikmalarini amalda qo'llab, turli vaziyatlarda fikr bildirish va o'zaro muloqot qilishda malakalarini oshiradilar. Bu usullar, nafaqat bilim olishni, balki o'quvchilarda ijodkorlik va faoliyatga bo'lgan qiziqishni ham rivojlantiradi.

Ushbu metodlarni qo'llash orqali nutqiy topshiriqlarni tahlil qilish va o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali natijalarga erishish mumkin.

14.4 Matnlardan foydalanib nutq o'stirishning o'ziga xos jihatlari.

Boshlang'ich sinflarning o'qish savodxonligi kitoblarini ko'rib chiqishda, matnlarning ko'p berilganligi aniq ko'rinadi. Ushbu matnlar, asosan, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Maqsad,

har bir o'quvchining o'z fikrini aniq, izchil va to'g'ri ifodalashini ta'minlashdir. Matnlar, o'quvchilarni matnni tushunishga, uni tahlil qilishga va o'z fikrlarini ravon va mantiqiy tarzda ifodalashga undaydi.

Shu bilan birga, matnlar o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat matnni o'qish va tushunish, balki o'z fikrlarini mantiqiy ravishda bayon qilishni o'rgatadi. Bu jarayon, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini bir xil darajada rivojlantirishga imkon yaratadi. Matnlarni o'rganish, ularning tilga oid bilimlarini mustahkamlash, yangi so'zlar o'rganish, matndan chiqarilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bunday matnlar orqali o'quvchilar nutqiy malakalarini rivojlantirish bilan birga, o'qish, yozish va tinglash kabi asosiy kommunikativ ko'nikmalarni ham mustahkamlaydilar. Matnlarning taqdimoti va tarkibi, o'quvchilarga turli mavzularni o'z ichiga olgan, hayotga oid misollar orqali o'rgatish imkoniyatini yaratadi. Bu o'quvchilarning nutqiy faoliyatini kengaytiradi va ularni samarali muloqot qilishga tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darsliklarida o'quvchilarga rasmlar berilgan bo'lib, ular bu rasmlarga qarab kuzatib, kichik matnlar yozishlari kerak bo'ladi. Masalan, 3-sinf o'qish savodxonligi 1-qismida 73-sahifada "Mehnatning inson hayotidagi o'rni" haqida kichik matn tuzish topshirig'i berilgan. Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar faqat o'zlari o'rgangan lug'at boyliklarini kengaytiribgina qolmay, balki o'zaro muloqot malakalarini ham rivojlantiradilar. Bu o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va izchil ifodalashga yordam beradi.

Rasmlarga asoslanib kichik matnlar tuzish orqali, o'quvchilar hayotdagi muhim hodisalar va ularning ahamiyatini yaxshiroq tushunib, matnni to'g'ri qurish, lug'at boyligini oshirish va nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tariqa, o'quvchilarning so'z boyligi va muloqot malakalari mukammallashib boradi, ularning nutqiy faolligi va o'z fikrlarini ifodalashdagi qobiliyatlari ortadi. Bu jarayonning nihoyatida, o'quvchilar nafaqat matnni tushunish, balki uni yaratishda ham o'z kuchlarini sinab ko'radilar.

3-sinf o'quvchilari tuzib kelgan matnlardan namunalar keltiramiz.

Mehnat inson hayotida juda muhimdir. U nafaqat odamning kerakli narsalarni olishga yordam beradi, balki uning ruhini, qalbini rivojlantiradi. Mehnat qilish orqali inson o'z bilimlarini oshiradi, yangi narsalarni o'rganadi va o'zini jamiyatda faol odam sifatida ko'rsatadi.

Mehnat insonni har tomonlama shakllantiradi. U o'z maqsadlariga erishish uchun harakat qiladi, boshqalar bilan muloqot qilib, o'z fikrlarini ifodalaydi. Har bir yangi ishda inson o'zi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Mehnat orqali odam o'ziga hurmat qiladi, ishiga jiddiy yondashadi va jamiyatda o'z o'rnini topadi. Bu nafaqat uning hayotini yaxshilaydi, balki uning ruhiy holatini ham ko'taradi.

Mehnatni qadrlash juda muhim. O'qish, ish qilish, har bir ishni bajarishda mas'uliyatli bo'lish – bu hamma uchun zarur. Har bir insonning mehnati jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda nutq o'stirish uchun turli matnlar tanlashning ahamiyati nimada?
2. Matn turlarining nutq rivojiga ta'siri qanday?
3. Xalqaro tadqiqotlar asosida matnga qo'yiladigan mezonlar qanday belgilangan?
4. Matndan foydalanish orqali talaffuz va so'z boyligini oshirishda qanday yondashuvlar samaraliroq?
5. Turli madaniyatlarga oid matnlar tanlash orqali tanqidiy fikrlash va muloqot qobiliyatini rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?

Mavzuni mustahkamlovchi testlar

1. Xalqaro tadqiqotlarda nutq o'stirish uchun turli matnlardan foydalanishning asosiy maqsadi nima?
A) O'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirish
B) Faqat bitta turdagi matn bilan ishlash
C) Faqat eshitish orqali nutq o'stirish
D) O'quvchilarning yozma ishlarini kamaytirish
To'g'ri javob: A) O'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirish
2. Xalqaro tadqiqotlarda nutqni rivojlantirish uchun qanday matn turlaridan foydalaniladi?
A) Ilmiy, badiiy, ommabop va hujjatli matnlar
B) Faqat badiiy matnlar
C) Faqat ilmiy matnlar
D) Faqat reklama matnlari
To'g'ri javob: A) Ilmiy, badiiy, ommabop va hujjatli matnlar

3. Turli matnlardan foydalanish orqali o'quvchilarning qaysi kompetensiyasi rivojlanadi?

A) Tanqidiy tafakkur va tahliliy fikrlash qobiliyati

B) Faqat eslab qolish qobiliyati

C) Faqat grammatik qoidalarni yodlash

D) Faqat og'zaki nutqni rivojlantirish

To'g'ri javob: A) Tanqidiy tafakkur va tahliliy fikrlash qobiliyati

4. Xalqaro tadqiqotlarda nutqni rivojlantirishda qanday strategiyalar qo'llaniladi?

A) Matnni tahlil qilish, muhokama qilish va ifodalash usullari

B) Faqat yozma qaydlar qilish

C) Faqat yodlash orqali o'rganish

D) Faqat og'zaki so'zlashuvga e'tibor qaratish

To'g'ri javob: A) Matnni tahlil qilish, muhokama qilish va ifodalash usullari

5. Xalqaro tadqiqotlarda nutq o'stirish jarayonida matn tanlashda nimalarga e'tibor berish lozim?

A) Matnning mazmuni, murakkablik darajasi va o'quvchilarning yoshiga mosligi

B) Matnning uzunligi va tarjima qilingan bo'lishi

C) Faqat grammatik tuzilishi

D) Matnning faqat badiiy bo'lishi

To'g'ri javob: A) Matnning mazmuni, murakkablik darajasi va o'quvchilarning yoshiga mosligi

15-MAVZU. O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH JARAYONIDA INNOVATSIYA, TA'LIM, SALOHİYAT, TAFAKKUR, DIDAKTIK, KOMBINATSIYALANGAN DARS, DARS SHAKLI, IDROK, TEXNOLOGIYA, ELECTRON POCHTA.

Tayanch so'zlar: metod, talaffuz, intonatsiya, matn, maqol, tafakkur, fikr, zamonaviy ta'lim metodlari, ta'lim samaradorligi, interfaol metodlar, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, davra suhbat, ta'lim oluvchilar, ta'lim beruvchilar, bahs-munozara, muammoli vaziyat, o'quv material, tinglab tushunish, o'qib tushunish, uzluksiz ta'lim tizimi, klaster, kompetensiya, audio segmentlar, guruh faoliyati, video segmentlar, shaxslararo faoliyat.

15.1 Zamonaviy ta'limiy metodlar.

Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari zamon talablariga mos bo'lishini ta'minlash maqsadida pedagog xodimlarga yuklangan vazifalar nihoyatda salmoqli va mas'uliyatli hisoblanadi. Ushbu mas'uliyatni samarali bajarish uchun o'qituvchilar, qaysi ta'lim muassasasida faoliyat yuritishidan qat'i nazar, doimiy ravishda o'z ustilarida ishlashlari, malakalarini oshirishlari va ilmiy ijodiy izlanishlar olib borishlari lozim. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchilar ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish metodlarini keng qo'llashlari zarur. Zamonaviy metodlarni qo'llash o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib, maqsadga muvofiq tanlash lozim. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli xil ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlarni qo'llash, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ortishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirish va ularning dars jarayonida faoliyatini doimiy rag'batlantirish zarur. O'quv materialini kichik qismlarga bo'lib, mazmunini to'liq ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyatlar, yo'naltiruvchi matnlar, loyiha ishlari va rolli o'yinlar kabi metodlardan foydalanish talab etiladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash muhimdir.

Zamonaviy tilda bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ataladi. Interfaol metodlar, asosan, ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi joylashgan metodlar sifatida tushuniladi. Ushbu metodlar qo'llanilganda, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi, va ta'lim oluvchi butun jarayon davomida faol bo'lib turadi.

Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- O'qish va o'rganish samarasi yuqori bo'ladi.
- Ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi ta'minlanadi.
- Ilgari orttirilgan bilimlar ham e'tiborga olinadi.
- O'qish shiddati ta'lim oluvchining ehtiyojlariga moslashtiriladi.
- Ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyati qo'llab-quvvatlanadi.
- Amalda bajarish orqali o'rganish imkoniyati yaratiladi.
- Ikki taraflama fikr-mulohazalar uchun sharoitlar yaratilib, ular o'zaro aloqani kuchaytiradi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmasdan, qisqa vaqt ichida o'quvchilarga

nazariy bilimlarni yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilish, shuningdek, o'quvchilarning faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholashdir. Bularni amalga oshirish uchun o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab etadi.


Interfaol metodlar darsda quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi:

- Pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi;
- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi;
- O'quvchilarning o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarini egallashini ta'minlaydi;
- O'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi;
- O'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur sharoitlarni yaratadi;
- Pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, men ham darslarimda interfaol metodlardan foydalanib, o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga erishdim. Natijada, o'quvchilar o'z g'oyalarini erkin bayon eta oladigan, mustaqil va fikrlarini o'ziga xos tarzda ifoda eta oladigan shaxslar sifatida shakllandilar.

Dars zamonaviy maktabda ta'lim shakllaridan biri sifatida asosiy o'rin tutadi. Har bir dars uchun ma'lum vaqt ajratilib, o'quv dargohi nizomi bilan tartibga solinadi. Mashg'ulotlar davomida o'qituvchi turli xil talabalar faoliyatini boshqarish, nazorat qilish, to'g'ri yo'nalishda yo'naltirish va yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi zarur. Ushbu maqsadga erishish uchun rivojlangan mamlakatlarda davlat ta'lim standartlariga mos keladigan dars turlari, shuningdek, unda qo'llaniladigan usul va vositalar turlicha bo'lishi va zamonaviy dars muayyan talablarga javob berishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda turli interfaol metodlardan foydalanamiz. Bizning asosiy maqsadimiz, birinchi navbatda, yosh avlodni erkin fikrlaydigan bolalar qilib tarbiyalashdir. O'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar



Fikrlashning olti xil usuli, „Olti shlyapa“ metodi.

"Oltita fikrlash shlyapa" usuli 1980-yilda ingliz olimi, psixolog doktor Edvard de Bono tomonidan yaratilgan va o'zining „O'qish ko'nikmalarini rivojlantirish" asari orqali bayon etilgan. Nima uchun aynan „Olti shlyapa" deb nomlangan?

Ingliz xalqida shunday ibora bor: „Birovning shlyapasini kiymoq, o'sha kabi fikrlamoq". Bu o'quvchining parallel fikrlash jarayonini va muammolarni bir nechta nuqtai nazardan baholash orqali qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilash uchun juda samarali usul.

Men bu metodni boshlang'ich sinf o'quvchilarim o'rtasida qo'llab kelmoqdaman. Ushbu metod o'quvchiga olti xil tartibda fikrlashni o'rgatadi. Bu metod ko'pincha ona tili, o'qish savodxonligi, tarbiya, tabiiy fan darslarida yoki biror masala, muammoli vaziyatni fikrlashga qaratilib qo'llaniladi. Bu metodning o'tkazilish tartibi quyidagicha:

Oq shlyapani kiygan o'quvchi ma'lumotlar ramzi hisoblanadi.

Undan asar yoki mavzu, mantdan aniq faktlar va ma'lumotlarni aytish talab etiladi. Ushbu aniq faktlar asosida o'quvchi bilganlarini gapirar ekan, u to'g'ri va haqqoniy dalillarga asoslanib gapirish, fikrlash kabi ko'nikmasini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, bu shlyapa ongli qarorlar qabul qilish uchun aniq va tegishli ma'lumotlarni to'plash muhimligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, o'quvchi taxminlar yoki shaxsiy tarafkashliklarga asoslangan qarorlar qabul qilishdan qochishi mumkin. Va barcha qarorlar haqiqatga asoslanadi va ma'lumotlar bilan ta'minlanadi, bu esa muvaffaqiyatli natijalarni oshiradi.

Ushbu shlyapa kiyilganda o'quvchiga yordam berishi mumkin bo'lgan savollar:

- Menda bu vaziyat haqida qancha ma'lumot bor?
- Vaziyat haqida qanday ma'lumot talab qilishim kerak?
- Menga qanday ma'lumotlar yetishmayapti?

Qizil shlyapani kiygan o'quvchi emotsional holatlarni bildiradi. Oquvchi asarda, matnda qanday hissiyotlar bilan to'qnashdi, xafa yoki xursand, yoki xavotir kabi kechinmalarini boshqalar bilan ulashadi. O'quvchi qizil shlyapa kiyilganda, mavjud muammoga o'z hissiy munosabatinni bildirishi mumkin. Bu, ayniqsa, muammo o'ta murakkab yoki hissiy jihatdan yuklangan bo'lsa va yanada nozik yondashuvni talab qilganda foydali bo'lishi mumkin.

Qizil shlyapani kiyganda o'quvchiga yordam berishi mumkin bo'lgan ba'zi savollar:

- Men hozir nimani his qilyapman?
- Mening intuitsiyam(hissiyotim) bu haqda menga nima deydi?
- Menga bu holat yoqadimi yoki yoqmaydimi?

Ushbu hissiy reaksiyalarni tan olish va o'rganish orqali o'quvchi qarorlar qanday ta'sir qilishi mumkinligini yaxshiroq tushunadi va ularni hal qilish uchun choralar ko'rishi mumkinligini fikrlaydi. Bu esa o'quvchiga yanada muvozanatli va empatik qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Yashil shlyapa kiygan o'quvchi ijodiy fikrlash, yaratuvchanlik va o'zgartirish ramzi bo'lib, ushbu shlyapani kiygan o'quvchidan agar unga imkoniyat berilsa, o'qigan asarida qaysi vaziyatni yoki qahramon taqdirini qanday o'zgartirishi so'raladi. Bunda o'quvchilarning ijodiy fikrlash malakasi oshishiga xizmat qiladi. Yashil shlyapa ijodkorlikni ifodalaydi va o'quvchilarni yangi g'oyalar, innovatsiyalar va imkoniyatlar yaratishga undaydi. Bu undan muammolarga ochiq fikr bilan yondashishni va yangi va ijodiy yechimlarni faol izlashni talab qiladi.

An'anaviy yechimlar endi samarali bo'lmaganda, o'quvchi qilishi kerak bo'lgan yagona narsa shlyapani kiyib, quyidagi savollarga javob berishdir:

- Boshqa variantlar bormi?
- Bu vaziyatda yana nima qila olaman?

• Ishlarni bajarishning ushbu yangi usulini amalga oshirishning afzalliklari nimada?

• Bu holatning ijobiy tomoni nimada?

Yashil shlyapa orqali yangi va ijodiy imkoniyatlarni ko‘rib chiqish orqali o‘quvchilar an‘anaviy fikrlash shakllaridan chiqib ketishlari va yangi g‘oyalarni yaratishlari mumkin.

Qora shlyapani kiygan o‘quvchi tanqidiy fikrlar, zararli tomonlar, salbiy munosabatlarni aytib beradi. Ushbu qora shlyapani kiygan o‘quvchi har bir vaziyat va asar voqealariga tanqidiy yondashishi kerak.

Qora shlyapa tanqidiy fikrlash va potentsial xavflar, zaif tomonlar va muammolarni aniqlash orqali salbiy natijalarni bashorat qilishga yordam beradi.

Qora shlyapa yordamida o‘quvchi vaziyatni salbiy nuqtai nazardan baholashi mumkin.

Qaror jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lsa, bu ayniqsa foydali bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun, bu shlyapa kiyilib, o‘quvchilar takomillashtirish sohalarini aniqlashlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilishlari uchun favqulodda rejalarni ishlab chiqishlari mumkin.

Shlyapadan foydalanishda yordam beradigan ba’zi savollar:

- Qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin?
- Buni amalga oshirishda qanday qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin?
- Potentsial xavflar qanday?

Sariq shlyapani kiygan o‘quvchi asar, mavzu yoki masalaning foyda va ijobiy tomonini gapiradi. Ushbu sariq shlyapani kiygan o‘quvchi asardagi yoki matndagi ijobiy obrazlarning foydali tomonlarini axtarishga qaratiladi. Nafaqat ijobiy balki, salbiy obrazdagi qahramonning yaxshi taraflarini aytishga yo‘naltiriladi. Bu esa o‘quvchida ijobiy fikrlash texnikasini rivojlantiradi.

Oltita fikrlovchi shlyapadagi sariq shlyapa optimizm va ijobiylikni anglatadi. Bu o‘quvchiga vaziyatni potentsial foyda va imkoniyatlar bilan baholashga va unga ijobiy nuqtai nazar bilan yondashishga yordam beradi.

Qora shlyapa singari, bu o‘quvchining qarorini sezilarli ijobiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan taqdirda juda muhimdir.

Sariqni kiyib, o‘quvchi o‘sish va rivojlanish sohalarini aniqlashtiradi va vaziyatning ijobiy elementlaridan foydalanish yo‘llarini topishi mumkin. Bu qarorlar nafaqat yaxshi ma’lumotga ega bo‘lishini, balki muvaffaqiyat va ijobiy natijalarga olib kelishini ta’minlaydi.

Eng so‘nggi **moviy shlyapa** xulosalar, yechimlar, takliflar, umumlashtirish ramzi sanaladi. Bu fikrlash jarayoni samarali va foydali bo‘lishini ta‘minlab, suhbatni diqqat markazida va tartibli saqlashga yordam beradi.

Moviy shlyapa kiyilib, fikrlash jarayonlarini boshqarish uchun muammoni strategik nuqtai nazardan baholashga chorlashi mumkin. Ko‘p nuqtai nazar yoki g‘oyalarni taqdim etish kerak bo‘lganda foydali bo‘ladi va o‘quvchi ularni samarali tashkil etishida va ustuvorlik qilishida kerak.

Shuning uchun, ushbu shlyapa bilan o‘quvchi suhbatning samarali bo‘lishini va barcha fikrlarni hisobga olishini ta‘minlashi mumkin. Bu tushunmovchilik yoki o‘tkazib yuborilgan imkoniyatlardan qochishga yordam beradi.

Olti shlyapa metodining eng asosiy maqsadi o‘quvchi ongida fikrlashning turli xil sifatlarini o‘stirish sanaladi.

„Olti shlyapa“ metodini darslarda qo‘llash

O‘qish savodxonligi darsida qo‘llanilgan „Olti shlyapa“ metodi

Sana: 20-dekabr 2023-yil

Sinf: 2-V

Dars: O‘qish savodxonligi

Mavzu: Yoz qayerga berkindi?

Boris negurenkov

Dars maqsadi:

Ta’limiy: O‘quvchilarni „Yoz qayerga berkindi? hikoyasi bilan tanishtirish.

O‘quvchilarga yoz fasli tabiati haqida ma’lumot berish. O‘quvchilarning matnni ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, nutqlarini o‘stirish.**4 K moduli** asosida ish olib borish.

F.k.1. o‘qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so‘zlarni topa oladi;

Tarbiyaviy: Yoz fasli haqidagi bilimlarini kengaytirish. o‘quvchilarga yoz faslining fazilatini yetkazish, ekologik tarbiya berish, ularda tabiatga muhabbat hislarini tarbiyalash.

T.k.4. o‘zining o‘quvchilik burchi va vazifalarini bilishi va unga rioya qilish;

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini, lug‘at ustida ishlash malakalarini rivojlantirish, yil fasllari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

F.k.2. o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi;

Darsning turi: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

Darsning metodi : aralash, ko'rgazmali. savol-javob, „Olti shlyapa“, „Sinkveyn“,

„Mosini top“ , „Xotira mashqi“, „Tez o'qish“, „Kichik guruhlarda ishlash“ metodlar; **Darsning jihozi:** mavzuga oid rasmlar, klaster usulidagi topshiriqlar. darslik, mavzuga oid ko'rgazmalar, didaktik va tarqatma materiallar, multimediali ilovalar, slaydlar.

Darsning borishi: I.Tashkiliy qism.

Salomlashish , davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga tayyorgarligini tekshirib nazorat qilish.

--- Bir yilda nechta fasl bor?

--- Bir yilda 4 ta fasl bor.

--- Hozir qaysi fasl?

--- Hozir qish fasli.

--- Qish fasli necha oydan iborat?

--- Qish fasli 3 oydan iborat: dekabr, yanvar, fevral

Bugungi darsimizni noan'anaviy tarzda 6 guruhga bo'linib „Olti shlyapa metodi“ asosida olib boramiz.

Guruhlar bilan tanishtirish.

1-guruh: „Oq shlyapa“ (Ma'lumot berishadi)

2-guruh: „Qizil shlyapa“ (Barcha ma'lumotlar bo'yicha hissiyotlarini aytishadi)

3-guruh: „yashil shlyapa“(Ijodiy fikrlarini bayon etishadi .)

4-guruh: „Qora shlyapa“(Tanqidiy fikrlarni bayon qiluvchilar.)

6-guruh: „Ko'k shlyapa“

(Barcha fikrlarni umumlashtiruvchi, xulosa chiqaruvchilar.)

Dars davomida rag'bat sifatida o'quvchilarga olma mevalari stikerlari beriladi. Har bir guruh o'quvchilari dars oxirida mevali daraxtlarini mevaga to'ldirib g'oliblikni qo'lga kiritishadi.



II.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Har bir guruhlariga topshiriqlar beriladi.

1-guruh: „Oq shlyapa” „Mosini top” metodi asosida topshiriq

2-guruh: „Qizil shlyapa” „Sinkveyn” metodi asosida topshiriq

3-guruh: „Yashil shlyapa” „Topishmoqlar javobini top” metodi asosida topshiriq

1. Bola kelar, bola kelar, Ilk mehr ola kelar. Silab-silab daraxtlarga, Guldan marjon taqa kelar. 2. Osmon chirog'i Yondi-yu, o'chdi.	3. Katta chelak teshildi, Undan ko'p suv to'kildi. 4. Olti oyoqli, qizil ko'ylakda, Qora xollari yarashar juda.
---	---

4-guruh: „qora shlyapa”

5-guruh: „sariq shlyapa”

Bu guruh o'quvchilari o'tilgan mavzu „Ko'klamjon” she'rini ifodali o'qib berishadi. Tez o'qish metodlaridan biri **„Matnni teskari o'qish” texnikasi** asosida oqishadi.

6-guruh: „KO'K shlyapa”

Bu guruh o'quvchilari o'tilgan mavzuda o'rganilgan tez aytishlarni aytib berishadi. Har bir guruh ishtirokchilari mevali stikerlar bilan rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu

Yangi mavzuga zamin yaratish maqsadida har bir guruh yoz faslini **„ Olti shlyapa metodi”** asosida ochib beradi. Guruhdagi har bir o'quvchi shlyapani boshiga kiyib o'z fikrini bayon etadi.



--- Yozda havo issiq bo'ladi.
--- Yoz fasli 3 oydan iborat: iyun, iyul, avgust
--- Yoz faslida bolalar 3 oylik ta'tilga chiqishadi --- Yozda bolalar cho'milishga borishadi.

--- Yozda tomorqalarda bobolarimiz, buvijonlarimizga yordam beramiz, ekinlarni teramiz.



--- Yozda cho'milib, tanamiz chiniqadi.
--- Yozda istirohat bog'lariga borib, toza havodan to'yinamiz. --- Yozda juda ko'p mevalar pishadi, ularni yeb, organizmimiz vitamanga boy bo'ladi.



--- Agar imkon bo'lsa, insonlar uchun juda ko'p istirohat bog'lari yartardim, kislorodga to'yinishlari uchun.

--- Men yozda insonlarga yoqimli shamol estiruvchi soyabon yaratishni xohlayman.

--- Elektromobil mashinalarni quyoshdan quvvat oldirishni ixtiro qilgan bo'lar edim. Chunki yozda quyoshning nuri juda ko'p.



--- Yozda ko'chada ko'p yurish mumkin emas, quyoshdan chiqayotgan radiatsiyadan burnimizdan qon ketish holatlari uchrashi mumkin.

--- Yozda mevalarni yuvmay yeyish natijasida qorin og'riq bo'lish mumkin.

--- Yozda ko'p muzqaymoq yeyish mumkin emas, tomoq og'rishi mumkin.



--- Yozda maza qilib oromgohlarda dam olamiz.

--- Yozda 3 oylik ta'tilda ko'p kitob o'qishga ulguramiz. --- Yozda qovun, tarvuzlarni maza qilib yeymiz



--- Quyosh kulsa soz , pishiradi yoz.

--- Yozning mevasi--- qishning xazinasini

--- Yozning gilami keng.

--- Demak ,bolajonlar bugun biz siz bilan „Yoz seni sog'indik” mavzusi asosida darsligimizdagi Boris Snegurenkovning „Yoz

qayega berkindi?” hikoyasi bilan tanishib chiqamiz. Slayd asosida rus bolalar yozuvchisi Boris Snegurenkov haqida ma'lumot berish. Hikoya darslikdan ifodali o'qib beriladi. **Lug'at ishi** o'tkazish.

Darslik bilan ishlash. O'quvchilar hikoyadan quyidagi so'zlar bilan boshlanadigan gaplarni topib o'qishadi.

Dam olish daqiqasi.

Har bir o'quvchiga quyidagi jadvaldan berib chiqiladi. O'quvchilar bir daqiqa ichida 1 dan 16 gacha bo'lgan raqamlarni ko'z bilan topib, birin ketin

o‘rinlaridan turishlari kerak. Eng birinchi bo‘lib turgan 3 o‘quvchi g‘olib deb topiladi.



Har bir guruhlardan o‘quvchilar chiqib, doskada berilgan bo‘g‘inlar aralashtirilgan holdagi yoz fasli haqidagi maqolni to‘g‘ri tuzishlari kerak.

IV. Mustahkamlash

Daftar bilan ishlash.

Daftarda berilgan klaster usulidagi gul yaproqlariga yoz fasliga mos fikrlarni yozish.

Tez aytishlar o‘rganildi.

Har bir guruh yana „6 shlyapa“ metodi asosida darsdan olgan taasurotlari haqida fikr bildirishdi.



- Bugun darsda „Sinkveyn“ tuzdik.
- Darsda maqollar o‘rgandik.
- Yoz qayerga berkinganini bilib oldik.
- Lug‘at o‘rgandik.
- Tez aytishlar o‘rgandik.



- Darsda qiziqarli o‘yinlar bo‘ldi.
- Darsda xursand bo‘ldik.
- O‘z fikrimizni erkin bayon etdik.
- Bellashdik.



- Darsda ijodiy fikrladik.
- Xotiramizni charxladik
- Yangi so‘zlarni gaplarda qo‘llashni o‘rgandik.



- Kitobni teskari qo‘yib o‘qish yoqmadi
- Hikoydagi qish fasli yoqmadi, chunki u badjahl, qo‘pol ekan. --- Boshqa do‘stlarimiz „Sinkveyn“ tuzdi, biz ham shu vazifani qilishni istadik.
- Dars juda qiziqarli bo‘ldi.



--- Darsda hamkorlikda ishladik.

--- Darsda juda ko'p narsalarni o'rgandik, bilimga ega bo'ldik.



--- So'z boyligimiz oshdi.

--- Kuch birlikda.

--- Oz-oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

--- Bilagi zo'r birni yiqar,

Bilimi zo'r mingni.

V. Baholash va darsni yakunlash.

O'quvchilar olgan rag'batlari asosida guruhlar mevali daraxtlarini olib doskaga chiqishdi. Mevasi ko'p bo'lgan daraxtli guruh olqishlandi va g'oliblikni qo'lga kiritdi. Hamkorlikda, individual darxtini olmaga to'ldirib, faollik ko'rsatgan o'quvchilar bilimi baholanadi.

--Aziz bolajonlar, bugungi darsimizdan hissa chiqarib shuni aytmoqchimanki, tevarak atrof muhitni, ona tabiatimizni, uning ne'matlarini asrab, avaylash har birimizning burchimizdir.

Har kim bitta daraxt eksa,

Olam o'rmon bo'ladi, Har kim bitta daraxt kessa, O'rmon qurbon bo'ladi.

Hayot yo'qdir daraxtlarsiz, Bog' qilmoqqa hissang qo'sh!

VI. Uyga vazifa.

15.2 Nutq o'stirish jarayonida interfaol metodlarni qo'llash.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

1. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyasi** deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'naviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.

Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda quyidagi jadvalni keltiramiz:

An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

№	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
2	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish.
3	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.

4	Darsga tayyorgarlikka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5	O'quvchilar tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.
6	O'quvchilarning vazifalari va usullari	O'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
7	Vaqttaqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9	O'quvchilardan talab qilinadigan faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllari: o'qituvchi-guruh; o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'qituvchi;	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. Hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi; guruh-o'qituvchi.

		guruh-o'qituvchi;	
10	Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil va boshqalar.
11	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, davra suhbat, bahs, munozara, konsultastiya va boshqalar.	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar va boshqalar.
12	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

Bu jadvalda hajm oshib ketmasligi uchun fikr juda qisqa bayon qilindi.

Jadvalda keltirilgan farqlar shu ikki mashg'ulot turining bir-biriga nisbatan afzal va kamchilik tomonlarini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

2. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

3. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

4. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Shularga o'xshash farqlarning ijtimoiy hayotdagi ta'siri to'g'risida bir necha asr muqaddam A.Navoiy o'zining mashhur «Mahbub ul-qulub» asari muqaddimasida shunday yozgan edi: «Umid ulkim, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idroklariga ko'ra bahra olg'aylar...». Bunda shu asarni har kim turlicha, ya'ni o'z fahmi idroki

darajasidagina tushunishi, o'zlashtirishi, foyda ola bilishi va amalda qo'llay bilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bundan biz interfaol ta'lim usullarining an'anaviy usullardan asosiy farqlari to'g'risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, o'quvchilarning fahmu idroklarini o'stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim usullari O'zbekistonda qadim zamonlardan beri ta'lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o'rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo'llab kelingan.

Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo'lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi — har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;
- o'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
- o'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;

- sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;
- davomatni va intizomni saqlash;
- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

-DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;

-interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

-interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;

-mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;

-zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;

-o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;

-interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O'qituvchiga tegishli omillar:

-mavzuni sayoz bilishi;

-nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;

-o'zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;

-kiyinishi va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;

-ta'lim vositalaridan unumli va to'g'ri foydalana olmasligi;

-kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi etishmasligi;

-tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;

-o'quvchiga xayrixohlik, samimiylik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;

-mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.

o'quvchilarga tegishli omillar:

-davomat pastligi, mashg'ulotga kechikib kelishi;

-zarur tayyorgarliksiz kelishi;

-ilmiy atamalarni bilmasligi;

-diqqatni jamlay olmasligi;

-eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;

- qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;
- dars mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;
- manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli omillar:

-ta'lim vositalarining etishmasligi, ta'mirlalab yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;

-mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;

-vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'yimaslik;

-vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

- o **Moderator** – ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.
- o **Trener**–o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.
- o **Tyutor**–masofadan o'qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta'minlash.
- o **Fasilitator**–darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.
- o **Mentor**–ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
- o **Kouch**–ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg'ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).
- o **Konsultant**–maslahat berish, tushuntirish, qo'shimcha ma'lumot berish.
- o **Lektor**–nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.
- o **Ekspert** – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

10. **Innovator**–yangiliklarni ta’lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy q

11. **Kommunikator**–o‘zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.

12. **O‘qituvchi**–mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha ko‘zda tutilgan mazmunni tushuntirish, o‘quv jarayoniga rahbarlik.

13. **Menejer**–tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.

14. **Spekter**–kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

15. **Assistent**–mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish.

16. **Sekretar**–zarur ma’lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o‘rnatilgan tartibda saqlash.

17. **Texnolog**–pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etib boradi.

18. **Metodist**–ta’lim-tarbiya metodlari bo‘yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

19. **Koordinator**–loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

20. **O‘quvchilar** – ta’lim oluvchilar.

Interfaol metodlarni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash

Interfaol mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko‘riladi. Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun o‘quvchilarning tayyorliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bular mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg‘ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to‘g‘ri tanlash, tayyorlash hamda mashg‘ulot o‘tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo‘lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an’anaviy ta’lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini tanlashda to‘g‘ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

O'quvchi o'zi o'rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o'rgata olmaydi;

O'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

Bilim borliqdan ko'chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

15.3 Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan nutq o'stirish jarayonida foydalanish – davr talabi.

Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Pedagogik texnologiya – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar, ko'pincha, innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb ataladi. O'qituvchi innovatsion texnologiyalar asosida darsni tashkil etishda, turli texnik vositalardan – kompyuter, proyektor, elektron doska va boshqa uskunalardan foydalanishi, shuningdek, interfaol metodlar orqali dars o'tkazishi mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, dars mazmuni shunchalik boy va samarali bo'ladi.

Shu bilan birga, ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarga oid tasavvurlar hali to'liq shakllanmagan va mukammal emasligini tan olish lozim. Har bir o'qituvchi o'z fanining mazmuni, mavzulari, ilm-fan yutuqlari va shu sohadagi innovatsiyalar haqida yangiliklarni o'rganib, o'z dars

jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, yangi metodlarni yaratishi va shu asosda o'qitishi mumkin.

Innovatsion texnologiyalar o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan, uni yanada takomillashtirishga intilishidan kelib chiqadi. Bu jarayonda o'qituvchi o'zining pedagogik usullarini yangilash, yangicha g'oyalar va texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga harakat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashtirishga intilishidan kelib chiqadi. U, shuningdek, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlab, o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarining birgalikdagi harakatlari orqali yaratish va tadbiq etishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish esa bugungi davrning talabi hisoblanadi.

O'qituvchi innovatsion texnologiyalar asosida darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan – kompyuter, proyektor, elektron doska kabi vositalardan foydalanishi, shuningdek, interfaol metodlar orqali dars o'tkazishi mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, dars mazmuni shunchalik boy va samarali bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarga oid tasavvurlar hali mukammal va barqaror shaklga ega emas. Har bir o'qituvchi o'z fanining mazmuni, mavzulari, ilm-fan yutuqlari va shu sohadagi innovatsiyalar haqida yangi ma'lumotlarni o'rganib, o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, yangi metodlarni yaratishi va shu asosda dars o'tkazishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi va uni yaxshilashga doir yangiliklarni kiritishga bo'lgan harakatlardan tug'iladi.

O'qituvchining faol va samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli o'laroq, ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar, avvalo, ta'lim oluvchilarga yo'naltiriladi. Ular o'zlarining shaxsiy faolligi va o'qituvchi bilan birgalikdagi ishlari hisobga olingan holda, o'quv materialini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Ta'lim va tarbiya jarayoni, butun mashg'ulot davomida, o'quvchilarning faolligini va qiziquvchanligini doimiy ravishda rivojlantirish maqsadini ko'zda tutadi. Shuningdek, o'quv omillarini yaratish orqali pedagogik texnologiya, o'quvchilarni yoki ishchi guruhlarini faoliyatga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, noto'g'ri, aniq tushunilmagan yoki

maqsadga erishishga qaratilmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarali yakunlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalarni tatbiq etish, har bir fan bo'yicha aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, dasturlar va dars matnlarini elektron disketlarga ko'chirish hamda ularni har bir o'quvchiga ta'minlash maqsadida ishlash zarur. Shuningdek, ilmiy va ilmiy-metodik ishlarda hamda o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining keng joriy etilishiga erishish, ta'lim tizimini zarur axborot vositalari bilan ta'minlash va ta'lim muassasalarini kommunikatsion tarmoqlarga bog'lash kabi vazifalar muhim hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida avval o'quvchilarda qiziqish uyg'otib, motivatsiya berish, so'ngra raqobat muhitini yaratish orqali, ularning innovatsiya yaratishdagi yashirin qobiliyatlari rivojlanadi. Agar rag'batlantirish amalga oshirilsa, maqsadga erishish ancha osonlashadi. O'quvchilarga ilm-fan va innovatsiya yaratishda yutuqlarga erishgan insonlardan misollar keltirish, iloji bo'lsa, ularni o'rnak sifatida darsga taklif qilish yoki innovatsiyalar markaziga ekskursiyalar tashkil etish orqali maqsadga tezroq erishish mumkin.

Nemis pedagogi A.F. Distervegning „Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi“ degan so'zlari bejiz aytilmagan. Bugungi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar va pedagogik axborot texnologiyalarini qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ilgari an'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni o'rganish o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularga o'rganayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganishga, tahlil qilishga va hatto xulosalarni o'zlari chiqarishga yordam beradi. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim va tajriba, shuningdek, interaktiv metodlar o'quvchilarning bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Mutaxassislarning fikricha, innovatsion elektron darslik inson aql-zakovatining katta hajmdagi axborotni eslab qolish va bu ma'lumotlar orqali muloqot va fikrlash jarayonlari assotsatsiyalari orqali izlash qobiliyatiga taqlid qiladi. Boshqacha aytganda, innovatsion elektron darslik ko'plab statistik va dinamik ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan, umumlashgan tarmoq tuzilmasiga ega bo'lgan murakkab o'quv materiallari tizimidir.

Olimlarning fikriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining nutqini o'stirishda quyidagi innovatsion metodlarni samarali

deb baholashadi. Ushbu muammolarni hal qilish va nutqni rivojlantirish uchun quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish yordam beradi:

1. Muammoli ta'lim – Bu usul bolalarning eksperimental va o'ylash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, nutqni takomillashtirishda samarali hisoblanadi. Bolalar bilan ishlashda turli og'zaki didaktik o'yinlarda muammoli nutqiy vaziyatlardan foydalanish, ya'ni bolalarning kattalar o'rnini egallab, o'z xulosalarini chiqarishga harakat qilishlari muhimdir.

2. O'yin texnologiyalari – Darslarda turli o'yin shakllaridan, kulguli hikoyalardan, chizmalardan foydalanish, o'quvchilarga ma'lum o'yin vaziyatlarini tanishtirish hamda krossvordlar, viktorinalar, boshqotirmalar va intellektual o'yinlar orqali nutqni rivojlantirish mumkin. Bu metodlar nutqni o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

3. Kompyuter texnologiyalari – Kompyuter texnologiyalari nutqni rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi, chunki ular o'quvchilarda qiziqish va ijobiy his tuyg'ularni uyg'otadi. Kompyuter ekranida axborotni taqdim etish, masalan, rasmlar yoki hikoya rasmlari orqali taqdim etish, bolalarning nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Loyiha usuli – Loyiha usuli o'quvchilarda samarali ijtimoiy va intellektual o'zaro ta'sirlarni tashkil etuvchi bir qator kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: so'rash qobiliyati, ovozni boshqarish qobiliyati, o'z nuqtai nazarini ifoda etish qobiliyati va muzokaralar olib borish qobiliyati.

Ushbu innovatsion metodlar yordamida o'quvchilarning nutqi rivojlanib, ular o'z fikrlarini aniq va samarali ifoda eta olishlari mumkin.

15.4 Interfaol metodlardan foydalanishda nutqiy kompetensiyalarning roli.

Hozirgi kunda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish savodxonligi darslarida to'rt asosiy qobiliyatdan biri sifatida tinglab tushunish alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha, bu sohada tilda gapirish va yozishga asoslangan qobiliyatlar asosiy o'rinni egallaydi, chunki ular tilni samarali va to'g'ri foydalanishda eng zarur ko'nikmalardir. Biroq, tinglash va o'qish qobiliyatlari ham alohida o'ringa ega bo'lib, ular tilni aniq tushunish va maqsadga muvofiq ishlatishning ikkinchi bosqichi sifatida qaraladi.

Bu ikki qobiliyat bir-birini to'ldirib, o'quvchilarning nutq madaniyatini, tushunish qobiliyatini va fikrlash tizimini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Shunday qilib, tinglash va o'qish orqali o'quvchilar o'z bilimlarini kengaytirib, tilni aniq va to'g'ri ishlatish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Buning asosiy sabablaridan biri tinglash qobiliyatini o'zlashtirishning qiyinchiliklarga olib kelishidir. O'qituvchilar endi o'quvchilarga faqat ravon so'zlashni emas, balki tinglab tushunishni ham o'rgatishga katta e'tibor qaratmoqdalar. O'qish savodxonligi darslarini mukammal o'zlashtirish va undan samarali foydalanish uchun o'quvchilarda zarur bilimlarni shakllantirish, xususan, tinglash va o'qish qobiliyatlarini rivojlantirish talab etiladi. Shu maqsadda o'rganuvchilarga qulaylik yaratish uchun o'rganish dasturi ishlab chiqilgan. Ushbu dasturda kirish testlari, natijalar yoki chiqish mezonlari mavjud emas, faqat o'quvchilarni tushunish va amaliy ko'nikmalarga yo'naltirishga e'tibor qaratilgan.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida asosiy e'tibor bolalarni to'g'ri, tez va ifodali o'qish malakalarini egallashlariga qaratilgan. Bugungi kunda o'qib tushunish malakasini egallash o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar bu yo'nalishda metodik ishlar tashkil etilmasa, ushbu malaka o'quvchilarda shakllanmay qolishi mumkin. Tushunish jarayoni esa murakkab bo'lib, xotira, xayolot, fikrlash, hissiyot, iroda, qiziqish va boshqa ko'plab aqliy va ruhiy holatlarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi o'qitishning o'ziga xos yo'llari va vositalari mavjud. Ona tilini o'rgatishda, ya'ni nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o'qish, yozish, grammatika va imloning o'zlashtirilishi talab etiladi. Bu jarayonda o'quvchida mustaqil matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash va matnni o'qib tushunish malakasini rivojlantirishda o'qish savodxonligi darslarining o'rni kattadir. Sababi, o'qish savodxonligi darslarida illyustrativ material sifatida turli matnlar beriladi. Boshlang'ich sinflar uchun darslikdagi har bir mavzu bo'yicha berilgan rasmlar va topshiriqlar o'quvchilarda savollar tug'dirib, idrok qilish va o'z g'oyalarini rivojlantirishlariga imkon yaratadi.

O'quvchilar ushbu kichik matnlar orqali ishlashni o'rganadilar va oddiy matnlardan boshlab, murakkabroq matnlar bilan ishlashga tayyorlanadilar. Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, alohida yondashuv asosida metodikaga zarurat seziladi. O'qib tushunish ko'nikmasi o'quvchilarning psixik jarayonlari barqarorligiga, ularning yosh xususiyatlariga bog'liq bo'lib, matnni to'liq tushunish uchun turli xil mashqlar va mashg'ulotlar davomida rivojlantirishni talab qiladi.

Bugungi kunda o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Shuning uchun, mazkur mavzuda alohida ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud. O'quvchilarni nutqiy vaziyatlarga tayyorlash, o'qish savodxonligi darslarida

o'qish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik ishlanmalar o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Yozish, fikrini erkin ifodalash hamda tinglab tushunish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish, shu bilan birga, o'quvchilarni hayotda duch keladigan nutqiy vaziyatlarga tayyorlashga imkon beradi. Bolalarning fikr yurita olishlariga erishish uchun ta'lim jarayonida o'qituvchi dars davomida ularga qulay muhit yaratib, imkoniyatlar eshigini ochib berishi lozim. Bu borada o'qituvchilarimizga darsliklar eng birinchi yordamchi o'quv vositasi hisoblanadi. Darsliklar yordamida, o'quvchilar uchun nafaqat bilim, balki fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirish mumkin. Quyida darsliklardagi bir nechta mavzu va topshiriqlar bo'yicha klaster texnologiyasini yaratishni ko'rib chiqamiz.

Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun yaratilgan "Alifbo" darsligidagi mavzularga asosan, berilgan rasmlari topshiriqlar va savollar orqali o'qituvchi o'quvchilarga individual va guruh bo'yicha klaster texnologiyasini yaratish bo'yicha topshiriqlar beradi. Bu usul orqali o'quvchilar darslarga yanada qiziqish bilan yondashadilar.

1. Sabzavotlar nomini ayting: O'quvchi rasmlarga qarab o'z-o'zidan beixtiyor javob beradilar.
2. Sabzavotlardan nimalar tayyorlanadi?
3. Sabzavotlarning odam sog'lig'iga qanday foydasi bor?
4. Rasmlardagi har bir sabzavotning rangini ayting.
5. Har bir sabzavotni aytganimizda nutqimizda nechta tovushdan foydalanayapmiz?

Ushbu savol va topshiriqlar bilan o'quvchilarga klaster yasashga sharoit yaratish mumkin. Jarayon davomida barcha o'quvchilar ishtirok etadilar. Klaster texnologiyasining maqsadi berilgan topshiriqlar bo'yicha umumiy bilimlarni takrorlash, mavzu bo'yicha turli savollarni berish va o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashini ta'minlashdir.

Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darsliklaridagi mavzu va topshiriqlarni bajarishda klaster texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati shundaki, bu har bir o'quvchining erkin rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Klasterdan foydalanish tizimli fikrlashni, materialni ijodiy qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu usul bolalarni nafaqat darsdagi ma'lumotlarni o'rganishga, balki o'z fikrlarini tahlil qilishga ham o'rgatadi.

Yangi malaka talablariga ko'ra, o'quvchi yoshidan kelib chiqqan holda, tarixiy, ijtimoiy, ilm-fan va texnikaviy mavzularda erkin so'zlasha olishi, o'qigan matnlarini tushunishi va tuza olishlari zarur. Bu ko'nikmalar ularga

hayotda duch keladigan vaziyatlarda, kasblarni egallashda zarur bo'ladigan savodxonlik va tushunchalarni maktabda egallash imkonini beradi, va keyinchalik bu bilimlardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Tinglash ko'nikmalarini o'rgatishning samarali usullari esa interaktiv mashqlar va multimedia resurslaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Tinglash qobiliyati – o'rganishga eng oson va samarali o'rganiladigan ko'nikmalardan biridir, chunki o'quvchilar bu qobiliyatni amalda, turli vaziyatlarda va o'qish jarayonida rivojlantirishlari mumkin.

Ko'proq e'tibor qaratilsa, oddiy va qiziqarli tadbirlar orqali tinglab tushunish ko'nikmalari yaxshilanadi va yakunida yaxshi natijalarga olib keladi. Bu holatda siz kichik yoki katta o'quvchilar guruhlar bilan ishlashdan qat'i nazar, o'zingizni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan birini qo'llasangiz bas.

1. Boshlang'ich sinflarga yaxshi tinglab tushunishni o'rgatishning o'ziga xos usullari:

Shaxslararo faoliyat Shaxslararo faoliyat o'quvchilarda tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishning eng samarali va foydali usullaridan biridir. Ushbu metodda o'quvchilar o'zaro muloqotda bo'lib, faqat tinglashni emas, balki fikr almashishni ham o'rganadilar. Quyidagi faoliyatlarni kiritish mumkin:

2. Darslikda keltirilgan mavzular yuzasidan rol ijro etish – o'quvchilar o'zingiz taqdim etgan mavzular bo'yicha rollarni o'ynab, har bir personajni tinglash orqali mazmunni chuqurroq tushunadilar.

3. O'quvchilar o'rtasida soxta intervyular – o'quvchilar o'zaro intervyu o'tkazish orqali tinglash va fikrni aniq ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. O'tilgan mavzular bo'yicha dialoglar – o'quvchilar bir-biriga savollar berib, o'tilgan mavzularni tahlil qilishadi.

5. Qayta hikoya qilish – o'quvchilarga biror hikoya yoki voqeani qayta hikoya qilishni so'rab, ular tinglash va tushunish malakalarini sinovdan o'tkazadilar.

Guruh faoliyati Katta guruh faoliyati o'quvchilarga tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi, chunki o'quvchilar o'rtasidagi muloqot kuchayadi. Oddiy guruh faoliyatlari ham samarali bo'lishi mumkin. Misol uchun: Birinchi mashg'ulotda o'quvchilar besh yoki undan ko'p guruhlariga bo'linadi va ularga bir qiziqarli mashg'ulot yoki kamida ikkita sevimli faoliyatni o'rganish topshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarga aniqlovchi savollar berish zarur. Faoliyat davomida, ular o'zlarining eslatmalarini olishlari uchun ruxsat berish mumkin, chunki bu ularga yordam beradi. Mashg'ulotning ikkinchi bosqichi – o'quvchilarga katta guruhda o'tirishga imkon berishdir. Misol uchun, ular o'zlari bilan yuzma-yuz kelgan guruh a'zosining ismi va ularning

qiziqishlari haqida muloqot qilishsin. Bu jarayon tinglash ko'nikmalarining o'sishiga katta hissa qo'shadi.

Audio segmentlar Darsdan tashqari vaqtlarida o'quvchilarga tinglash ko'nikmalarini o'rgatish uchun audio segmentlardan ham foydalanish mumkin. Masalan:

1. Radio dasturlari – o'quvchilarni turli radio dasturlarini tinglashga jalb qilish, tinglash qobiliyatini rivojlantiradi.

2. O'quv ma'ruzalari – ma'ruza yoki o'qishlarning audio variantlarini tinglash, o'quvchilarni tushunish va eslab qolish ko'nikmalarini yaxshilaydi.

3. Onlayn podkastlar – o'quvchilarga turli mavzularda podkastlarni tinglash, tinglash va so'zlash qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

4. Boshqa audio xabarlar – shuningdek, boshqa turli audio xabarlar ham tinglash ko'nikmalarini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Darsda o'quvchilarga sinfda va keyinroq interaktiv tinglash dasturlarini qo'llash zarur. Ularning mustaqil ravishda mashqlarni bajarishiga sharoit yaratish, ularning tinglashdagi muvaffaqiyatlarini oshiradi. O'qituvchilar o'quvchilarga qiziqarli, yangiliklardan iborat xabarlar taqdim etib, ularni tinglash jarayoniga jalb qilishlari mumkin. Bu xabarlar radio yoki televizion dasturlardan, shuningdek, kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, ular uchun qiziqarli va foydali bo'lishi mumkin

Video segmentlar. Tinglash ko'nikmalarini o'rgatishda yana bir samarali vosita video segmentlaridir. Ular o'quvchilarga nafaqat eshitish, balki vizual tarzda tushunishni ham rivojlantiradi. Video materiallar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Qisqacha eskizlar – o'quvchilarga ko'rsatilgan qisqa videolar orqali kerakli mavzu bo'yicha tushuncha berish.

2. Hujjatli filmlar – real voqealar yoki ma'lumotlar asosida tayyorlangan hujjatli filmlar yordamida tinglash va tahlil qilish ko'nikmalarini oshirish.

3. Dramatik yoki komedik materiallar – dramatik yoki komediyaga oid videolar o'quvchilarga tinglashni hamda matnni boshqacha talqin qilishni o'rgatadi.

4. Yangiliklar dasturlari – yangiliklarni tinglash va turli xabarlarni anglash orqali o'quvchilarning diqqatini va eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

5. Intervyu segmentlari – intervyular orqali o'quvchilar turli suhbatlarda, fikr almashishda qanday tinglashni o'rganadilar.

Interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar

oʻrnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, oʻz oʻrtoqlarining fikrini tinglashga oʻrgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini taʼminlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan maʼlum boʻlishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qoʻllash oʻquvchilarning asabiy zoʻriqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Boshlangʻich sinflarda oʻquvchilarga matnni oʻqib tushunish va tinglab tushunish orqali hosil boʻladigan koʻnikmalarni oʻrgatish juda muhimdir. Darslikdagi materiallarning oʻquvchilarga qanchalik tushunarli boʻlishi, oʻquvchining matnga boʻlgan munosabatida oʻz aksini topadi. Shuning uchun, har bir darsda oʻquvchilarning ehtiyojlariga moslashgan yondashuvni tanlash, ularning umumiy rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Oʻqish savodxonligi darslarida nutq oʻstirish jarayonida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati qanday namoyon boʻladi?
2. Didaktik yondashuvlar va kombinatsiyalangan dars shakllari oʻquvchilarning idrok va tafakkurini rivojlantirishga qanday taʼsir qiladi?
3. Oʻquvchilarning salohiyatini oshirish uchun taʼlim jarayonida qanday texnologiyalarni qoʻllash mumkin?
4. Elektron pochta orqali oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi samarali muloqotni qanday tashkil etish mumkin?
5. Nutq oʻstirish jarayonida idrok va tafakkurni rivojlantirish uchun qanday innovatsion oʻyin yoki metodlardan foydalanish mumkin?

Mavzuni mustahkamlovchi testlar

1. Innovatsion taʼlim metodlari qanday asosiy maqsadga qaratilgan?
A) Oʻquvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish
B) Faqat oʻqituvchi nutqini tinglashga asoslangan taʼlim
C) Oʻquvchilarning faqat eslab qolish qobiliyatini oshirish
D) Faqat anʼanaviy oʻqitish usullari bilan cheklanish
Toʻgʻri javob: A) Oʻquvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish
2. "Kombinatsiyalangan dars" tushunchasi nimani anglatadi?
A) Bir darsda bir nechta metod va usullarning uygʻun qoʻllanishi
B) Faqat maʼruza shaklida oʻtiladigan dars
C) Faqat amaliy mashgʻulotlarga asoslangan dars
D) Faqat test ishlash bilan cheklangan dars

To'g'ri javob: A) Bir darsda bir nechta metod va usullarning uyg'un qo'llanishi

3. Idrok tushunchasi nimani anglatadi?

A) Insonning atrof-muhitni ongli ravishda tushunishi va qabul qilishi

B) Faqat eslab qolish jarayoni

C) Faqat nutqni rivojlantirish bilan bog'liq tushuncha

D) Faqat vizual materiallarni o'rganish

To'g'ri javob: A) Insonning atrof-muhitni ongli ravishda tushunishi va qabul qilishi

4. Didaktik tamoyillar qaysi soha bilan bog'liq?

A) Ta'lim va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish bilan

B) Faqat texnologiya rivojlanishi bilan

C) Faqat yozma nutq bilan

D) Faqat elektron pochta orqali o'qitish bilan

To'g'ri javob: A) Ta'lim va o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish bilan

5. Elektron pochta ta'lim jarayonida qanday ahamiyatga ega?

A) O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi tezkor axborot almashish vositasi

B) Faqat rasmiy hujjatlar yuborish uchun ishlatiladi

C) Faqat ilmiy maqolalar yozish uchun kerak

D) Ta'lim jarayonida umuman ishlatilmaydi

To'g'ri javob: A) O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi tezkor axborot almashish vositasi

MAVZULARNI MUSTAHKAMLOVCHI TESTLAR

1. Qadimda yaratilgan lug'atlarga qaysi biri misol bo'la oladi?

A) "O'zbek tilining izohli lug'ati"

B) "Devonu lug'otit turk"

C) "Inglizcha-o'zbekcha lug'at"

D) "O'zbek tilining imlo lug'ati"

2. Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirishning asosiy vazifasi nima?

A) Faqat yozma nutqni rivojlantirish

B) So'z boyligini oshirish, to'g'ri talaffuzga o'rgatish, fikrni aniq ifodalash

C) Matematik bilimlarni mustahkamlash

D) Faqat og'zaki nutqni o'rgatish

3. Imlo lugʻatlarining ahamiyati nimada?
 - A) Tarixiy soʻzlarning maʼnosini tushuntiradi
 - B) Toʻgʻri yozish qoidalarini oʻrgatadi
 - C) Yangi soʻzlarni yaratadi
 - D) Faqat tarjima vazifasini bajaradi
4. Oʻquvchilarning lugʻatini boyitishning asosiy usuli qaysi?
 - A) Faqat yangi soʻzlarni yodlash
 - B) Oʻqish, matn ustida ishlash, soʻz oʻyinlari, izoh berish
 - C) Yozuv mashqlarini koʻpaytirish
 - D) Soʻzlarni tarjima qilish bilan cheklanish
5. Izohli lugʻatlar qanday maqsadda ishlatiladi?
 - A) Soʻzlarning toʻgʻri talaffuzini oʻrgatish uchun
 - B) Soʻzlarning maʼnolarini tushuntirish uchun
 - C) Chet tillariga tarjima qilish uchun
 - D) Imlo qoidalarini oʻrgatish uchun
6. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish nimaga asoslanadi?
 - A) Faqat grammatik qoidalarga rioya qilishga
 - B) Jamiyatda muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga
 - C) Oʻqituvchining bilim darajasiga bogʻliq boʻlishiga
 - D) Faqat yozma nutqni rivojlantirishga
7. Kommunikativ madaniyatni shakllantirishda qanday usullar samarali hisoblanadi?
 - A) Yakka tartibda mashgʻulot oʻtkazish
 - B) Faqat oʻquv materiallarini yodlash
 - C) Jamoaviy oʻyinlar va musobaqalar tashkil etish
 - D) Oʻquvchilarni faqat kitob oʻqishga majburlash
8. Nutqning rivojlanishi bolaning qaysi sohada muvaffaqiyatli boʻlishiga yordam beradi?
 - a) Faqat yozish malakalarida
 - b) Oʻqish va yozishda
 - c) Oʻqish, yozish va muloqotda
 - d) Faqat muloqot qilishda
9. Eski maktablarda oʻqish qaysi metod asosida olib borilgan?
 - a) Izohli oʻqish
 - b) Quruq yod olish
 - c) Tahliliy oʻqish
 - d) Amaliy oʻqish

10. Nutqni o‘stirish jarayonida asosiy yo‘nalishlardan biri qaysi?

- a) Yodlash texnikasini rivojlantirish
- b) So‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash
- c) Matematik fikrlashni rivojlantirish
- d) O‘qish tezligini oshirish

11. Nutqning eng kichik birligi nima?

- a) So‘z
- b) Fonema
- c) Tovush
- d) Gap

12. So‘z va leksema o‘rtasidagi farq nima?

- a) So‘z umumiylik, leksema xususiylikdir
- b) So‘z nutqda voqelanadi, leksema esa til birligidir
- c) So‘z morfema bilan bog‘liq, leksema esa gap bilan
- d) Ikkalasi ham bir xil tushuncha

13. So‘z birikmasi qanday vazifa bajaradi?

- a) Fikr ifodalaydi
- b) Faqat grammatika uchun ishlatiladi
- c) Nominativ vazifa bajaradi
- d) Yozma nutqda ishlatilmaydi

14. Gapning asosiy grammatik belgisi nima?

- a) Morfema
- b) Predikativlik
- c) So‘z turkumi
- d) Tovush tizimi

15. Tovushning fonema bilan bog‘liqligi qanday?

- a) Har bir fonema bir tovushdan iborat
- b) Fonema – til birligi, tovush esa nutqdagi voqelanishidir
- c) Tovush har doim fonema sifatida ishlatiladi
- d) Tovush va fonema bir-biridan mustaqil tushunchalar

16. Nutqning asosiy vazifasi nima?

- a) Faqat poetik ifodani yetkazish
- b) Axborot almashish va aloqa o‘rnatish
- c) Faqat yozuv shaklida namoyon bo‘lish
- d) Faqat o‘qish jarayonida qo‘llaniladi

17. Matnning asosiy xususiyati nimada?

- a) So‘z va gap bilan bir xil tuzilishga ega bo‘lishi
- b) Nutqiy butunlik va o‘z qonuniyatlariga ega bo‘lishi

c) Faqat yozma shaklda bo'lishi

d) Immanent va reprezentativ tushunchalariga ega emasligi

18. Yan Komenskiy bolalarning nutqini rivojlantirish uchun qaysi usuldan foydalanishni tavsiya qilgan?

a) Bolalarga murakkab matnlarni yodlatish

b) O'yin uslubi orqali so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qildirish

c) Faqat grammatik qoidalarni o'rgatish

d) Nutqni rivojlantirishga e'tibor qaratmaslik

19. Komenskiyga ko'ra, bolaning nutq va fikrlashini rivojlantirishda qaysi omil muhim rol o'ynaydi?

a) Faqat yozma mashqlar bajarish

b) Faqat grammatik qoidalarni o'rgatish

c) Sensor rivojlanish va tarbiyalash

d) O'quvchilarni faqat eshitishga o'rgatish

20. Nutq g'oyasini shakllantirishda qaysi omil muhim hisoblanadi?

a) Faqat yozma materiallardan foydalanish

b) Auditoriyaning ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olish

c) Nutqni rejasiz, tasodifiy shaklda tayyorlash

d) Nutq g'oyasini faqat o'z fikrlariga asoslanib shakllantirish

21. Nutq o'stirish metodikasida aksent va intonatsiyaning roli qanday?

a) Nutqni ortiqcha murakkablashtiradi

b) Auditoriyaning e'tiborini pasaytirib

c) Nutqni jozibador va tushunarli qiladi

d) Faqat yozma nutqda ishlatiladi

22. Nutq o'stirishda jamoaviy mashqlar qanday foyda beradi?

a) Nutqchini individual ishlashdan chalg'itadi

b) Faqat tinglovchilarning fikrlarini o'rganishga yordam beradi

c) Nutqchini samaraliroq va tajribali bo'lishiga yordam beradi

d) Nutqni rivojlantirishga ta'sir qilmaydi

24. Matnning asosiy vazifasi nima?

a) Faqat so'zlarni to'g'ri yozish

b) Narsa va hodisalarni tasvirlash, so'zlovchining munosabatini aniqlash

c) Faqat hikoyalar tuzish

d) Yod olish uchun ma'lumot berish

25. Rivoyat va hikoyalash matni tasviri matndan nimasi bilan farq qiladi?

a) Dialogik nutqdan foydalanmasligi

b) Unda ishtirok etuvchi shaxslar bo'lmasligi

c) Voqealar izchillikda berilishi va qahramonlar mavjudligi

d) Faqat tabiat manzaralarini tasvirlashi

26. O'quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun eng samarali usullardan biri qaysi?

a) Faqat grammatik qoidalarni o'rganish

b) Matn ustida ishlash va uni tahlil qilish

c) So'zlarni yod olish

d) Faqat yozma nutqni rivojlantirish

27. Matn yaratish orqali o'quvchilar qanday ko'nikmalarga ega bo'ladilar?

a) Faqat grammatikani yaxshi bilishga

b) Nutqiy ko'nikmalarni oshirishga va ijodiy fikrlashga

c) Faqat o'qish savodxonligini oshirishga

d) Faqat hikoyalar yozishga

28. Matnlar bilan ishlashning boshlang'ich sinflar uchun eng muhim jihati qaysi?

a) Faqat so'zlarni o'zlashtirishga yordam beradi

b) O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatadi va nutqini rivojlantiradi

c) Faqat grammatik qoidalarni o'rganishga majbur qiladi

d) Faqat yozma mashqlar bajarishga undaydi

29. O'qish darslarining asosiy vazifalaridan biri nima?

A) O'quvchilarga yozish ko'nikmasini shakllantirish

B) O'quvchilarning kitob bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish

C) Faqat tez o'qish malakasini shakllantirish

D) O'quvchilarga she'r yodlatish

30. O'qish jarayonida xatolar qanday sabablarga ko'ra yuzaga keladi?

A) O'quvchilar o'qishni xohlamaganligi sababli

B) O'qish jarayonida nutq apparatining rivojlanmaganligi sababli

C) O'qish tezligining ortib ketganligi, murakkab so'zlar bo'lishi, yorug'lik sharoiti kabi omillar sababli

D) O'quvchilarning darsga kelmasligi sababli

31. O'quvchilarning ongli o'qish malakalarini shakllantirish uchun qaysi metodik shartlar muhim?

A) O'quvchining hayotiy tajribasi, so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushunish, gapdagi so'zlarning o'rnini anglash

B) O'quvchining hayotiy tajribasi, faqat tez o'qish malakasi

C) She'r yodlash va hikoya tuzish

D) Faqat tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish

32. Boshlang'ich sinflarda suhbat metodining muhim xususiyati nima?

A) O'quvchilarga ma'lumotlarni yod oldirish

- B) Faqat o'qituvchining hikoya qilib berishi
 - C) O'quvchilarning mustaqil fikrlashiga yordam berish va ularning faolligini oshirish
 - D) Faqat yozma topshiriqlar bajarish
33. Analiz-sintez metodining asosiy maqsadi nima?
- A) O'quvchilarning faqat yod olish qobiliyatini rivojlantirish
 - B) Grammatik hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish orqali tushunchalarni shakllantirish
 - C) Faqat mustaqil ishlashni talab qilish
 - D) O'quvchilarga qoidalarini tayyor holda berish
34. O'qish savodxonligi darslarida matnlarning janriy xususiyatlarini hisobga olish nima uchun muhim?
- a) O'quvchilar matnlarni tez o'qib tugatishlari uchun
 - b) O'quvchilarning matnni tushunishiga va nutqini rivojlantirishga yordam berish uchun
 - c) O'quvchilar o'z xotirasini mustahkamlashlari uchun
 - d) Matnlarni yodlashni osonlashtirish uchun
35. Qaysi matn turi voqea va personajlarni bayon qilishga qaratilgan?
- a) Informatsion matn
 - b) Argumentativ matn
 - c) Narrativ matn
 - d) Ko'rsatmalik matn
36. Ko'rsatmalik matnlarning asosiy xususiyati nimada?
- a) Hikoya va voqealar bayon qilinadi
 - b) Ma'lumot va dalillar orqali fikr bildiriladi
 - c) Qadam-baqadam yo'riqnoma beriladi
 - d) Rang-barang tasvir va ta'sirchan ifodalar ishlatiladi
37. Bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi nimalarni o'z ichiga oladi?
- a) Faqat o'z hissiyotlarini anglash
 - b) Boshqalar bilan muloqot qilish va ularning ehtiyojlarini sezish
 - c) Faqat atrof-muhitni kuzatish
38. Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar qanday vazifalarni bajarishlari lozim?
- a) Lug'at boyligini shakllantirish va rivojlantirish
 - b) Bolani mustaqil nutqga majburlash
 - c) Bolaga faqat yozma nutqni o'rgatish
39. O'qituvchi bolalar bilan muloqotda qanday muhim jihatlarga e'tibor berishi kerak?

- a) Faqat qat'iy intizom talab qilish
 - b) Jumalarning qisqa va aniq bo'lishiga e'tibor berish
 - c) Uzoq va murakkab gaplardan foydalanish
40. Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqish qanday omillar orqali oshiriladi?
- A) Faqat materialning qiziqarli bo'lishi orqali
 - B) Faqat darsliklarni ko'p o'qitish orqali
 - C) Ijobiy-emotsional muhit yaratish va ta'lim usullarini o'zgartirish orqali
 - D) Ko'proq uy vazifasi berish orqali
41. O'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi qanday sabablarga ko'ra so'nishi mumkin?
- A) O'quv materialining murakkabligi
 - B) Uyda va maktabda bosim yoki tanqid bo'lishi
 - C) O'quvchining mustaqil ishlash odatiga ega emasligi
 - D) Barchasi to'g'ri
42. O'qituvchi o'quvchini darsga jalb qilish uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?
- A) O'yin elementlarini qo'llash
 - B) O'quvchilarga tanlash imkoniyatini berish
 - C) Darsni qiziqarli va interaktiv tashkil qilish
 - D) Barchasi to'g'ri
43. Qaysi yondashuv o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirishga yordam beradi?
- A) O'quvchilarning qiziqish va talablarini hisobga olish
 - B) Faqat yaxshi o'quvchilargina rag'batlantirilishi
 - C) Xatolar uchun qattiq jazolash
 - D) Har doim faqat bitta o'qitish usulidan foydalanish
44. O'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun ta'limda qanday motivlardan foydalanish mumkin?
- A) Ijtimoiy, axloqiy, muloqot va bilish motivlari
 - B) Faqat ijtimoiy motivlar
 - C) Faqat axloqiy motivlar
 - D) Motivlar o'quv jarayoniga ta'sir qilmaydi
45. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini rivojlantirish uchun qaysi usul tavsiya etilmaydi?
- A) So'z ustida ishlash va lug'at ishlarini tashkil etish
 - B) Matn asosida gap tuzish va nutq mashqlarini bajarish
 - C) Grammatika qoidalarini yodlatish va imtihon topshirish
 - D) O'quvchilarga fikrini asoslashni o'rgatish

46. O'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishda eng muhim jihat nima?
- A) Har bir so'zning grammatik shaklini to'g'ri qo'llash
 - B) Ko'proq matn yod olish va diktant yozish
 - C) So'zlarni o'zaro bog'lab, gap va matn shakllantirish
 - D) Faqat to'g'ri yozish qoidalariga rioya qilish
47. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar so'zlarni noto'g'ri guruhlashining sababi nima?
- A) So'zlarning aniq belgisini bilmasdan taxminiy guruhlashlari
 - B) So'zlarning ma'nosini tushunishlari va taqqoslashlari
 - C) O'qituvchining to'g'ri yo'naltirishi
 - D) O'quvchilarning tajribasi yetarli bo'lishi
48. Til va nutq munosabati bo'yicha quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?
- A) Nutq bo'lmasa ham til mustaqil yashay oladi.
 - B) Til nutq vositasida namoyon bo'ladi.
 - C) Nutq faqat yozma shaklda bo'lishi mumkin.
 - D) Nutq va til bir-biriga bog'liq emas.
49. Psixolingvistika qanday jarayonlarni o'rganadi?
- A) Faqat yozma nutqni rivojlantirish jarayonlarini.
 - B) Tilning tarixiy rivojlanish bosqichlarini.
 - C) Nutqning hosil bo'lishi, idrok etilishi va shakllanishi jarayonlarini.
 - D) Faqat ona tilini o'rgatish metodlarini.
50. Monolog va dialogning farqi nimada?
